Barchamiz bilamizki, 1941-1945 yillar oralig'ida nafaqat bizning yurtda balki, dunyoning barcha mamlakatlarida og'ir judolik bo'ldi. Bu urush qanchadan qancha insonlarni yostig'ini quritdi, qanchadan qancha bolalarni yetimga aylantirdi, qanchadan qancha yuzlar bu urush yillarida tabassum nimaligini unitdi, hatto qarindoshlar bir-birlaridan yuz o'girishga majbur bo'ldi. Shunday qilib, bu urush insonlarni yetti uxlab tushiga kirmagan falokatlarni dlib keldi. Mashhur o'zbek yozuvchisi O'tkir Hoshimov aynan mana shu barcha insonlarning og'riqli nuqtasi bo'lmish, urush mavzusida o'zining mashhur "Urushning so'nggi qurboni" asarini yozdi. Urush haqida o'zbek va jahon adabiyotida misli ko'rilmagan darajada ko'p. she'rlar, romanlar, hikoyalar va qissalar yozilgan. Lekin ularning ichida O'tkir Hoshimovning "Urushning so'nggi qurboni" hikoyasi o'zgacha o'rin tutadi. "Urushning so'nggi qurboni" asarida obrazlar portreti ham o'ziga xosdir. "Urushningso'nggi qurboni" asari bir-biriga o'xshamas xarakterli qahramonlardan tashkil topgan. Barcha obrazlarning o'z tashvishlari, o'y-fikrlari, qiyinchiliklari mavjud. Lekin bu insonlarni barchasini g'am-qayg'ulari ildizida urush yotadi. Baxtdan tabassum qilishdan to'xtamaydigan yuzlarga, qaytib kulishiga izn bermagan, bir kunda qora sochlarni oqartirgan-urush. Bu asar qahramonlari ham urush bo'lishini va guldek oilalariga putur yetishini hech o'ylab ko'rishmagan. Asar boshlanishi ham asarning voqealar rivoji qanday bo'lishi haqida bir oz ma'lumot berilgan. Asarning boshidayoq salbiy holatlar tasvirlangan, barcha narsalar asardagivoqealar rivoji ijobiy ketmasligiga ishora qilardi. Asardagi bosh qahramonlar Shoikrom, Shone'mat, Umri xola va Xadicha. Shoikromoilaning katta farzand bo'ladi. Shone'mat bo'lsa oilaning kichik farzandi ya'ni Shoikromning ukasi bo'ladi. Xadicha Shoikromning xotini Umri xola esa Shoikromning onasi bo'ladi. Shoikromning otasi erta olamdan ko'z yumgan va Shone'matni Shoikrom va Umri xola ikkasi katta

qilishgan. Urush boshlanganda barcha oiladan erkaklarni urushga olib ketishgan. Lekin bu oiladan hech kim urushga bormagan. Shoikromni to'qimachilik kombinatida montyor yetishmasligi sababli olib qolishdi. Shone'mat bo'lsa sil kasaliga chalinganligi sababli urushgajo'natilmadi. Qarangki, urush shuncha uzoqda bo'lsa ham uning sovug'i bu oilaga ham kirmasdan qoladi. Qimmatchilik, qahatchilik sababli xalq och qoldi o'g'rilar ko'paydi. Xattoki, odam o'ldirib uyidagi narsalarini olib chiqib ketadigan odamlar ham paydo bo'ldi. Bu urush qanchadan qancha odamlarni yer qarida olib ketdi va yana qanchadan qancha odamlarni iymonini o'ldirdi. Urush paytida har bir inson o'zini o'ylaganligini shu asar orqali yaqqol ko'ramiz. Shunchalik darajada insonlar imkonsiz qolganki, o'z yaqinlaridan yuz o'girish darjasiga ham borishgan. Bu juda achinarli holat lekin bu ishlar uchun u insonlar ham aybdor emas. Barchasiga urush aybdor-Urush!!!

Urush! Noming o'chsin jahonda,

Hamon bitmas sen slogan alam.

Sen tufayli ko'p xonadonda

Ota nomli buyuk shodlik kam.

Xadicha o'zi qurumsoq bo'lgan urush boshlangan keyin yanada bu hislati oshdi deb tariflangan. Lekin o'ylab qarajak ona bo'lish osonmi uch bolani boqish kerak ayniqsa urush yillarida. Bu asarda Umri xola obrazi orqali yozuvchi barcha xokisor, mehribon onalarni tariflab bergan. Shone'mat o'lishini bilsada bolasi uchun jon-jahdi bilan kurashadi. Uni tuzalib ketishi uchun kim nima desa sinab ko'radi. Umri xolani birdan bir niyati o'g'lini yana sog'lom ko'rish edi. Lekin urush tufayli oziq ovqat tanqis edi. Umri xola o'g'lini tuzalishi uchun Shoikromning xovlisidagi qulupnayni qo'y sutiga almashtira boshlaydi. Oziq-ovqat kam paytda barcha o'z oilasini, bolalarini o'ylaydi. Shoikrom ham ataylab emas, jahl ustida qulupnay ariqchasiga tok simini tashlab qo'yadi. Shoikrom ham shu nasibamizdan ayrilib qolmaylik degan maqsadda bu ishni amalga olishadi. Ming asfuslar bo'lsinki, Shoikrom o'z onasini qotiliga aylanadi. Bu ne ko'rgulik. Eh urush, qanchadan qancha insonlarni hayotiga abadiy zulmatni olib kirdi! O'z jigaridan xabar olmay qo'gan aka-ukalar, o'zlari bilmagan holda ota-onalarini o'lishiga sababchi bo'lgan bolalar, yoki yaqin insonlari ko'z ongida jon bergan insonlar tasvirlangan bu asarda. Abatta, ushbu asar urush haqidagi tasavvurlardan xamir uchidan patir. Aslida bundan ham daxshatli qanchadan qancha voqealar ro'y bergan." Asarda qiyinchilik inson ma'naviyatini sinovdan o'tkazish vositasi ekanligining ko'rsatilganligi. Hikoyada urush yillarining haqqoniy

tasvirlanganligi. Yo'qchilik onani boladanm og'ani inidan sovutganligining ta'sirchan ifodalanganligi. Asl odam har qanday sharoitda ham ma'naviy pokligicha qolishining tasvirlanganligi. Hikoyadagi Shoikrom, Shone'mat, Hadicha va Umri xola obrazlariga xos xususiyatlarning yorqin aks etganligi".elakdan o'tkazdi. Kimdir bu sinovlardan o'ta olmadi, kimdir bu sinovlardan o'ta oldi.

Xulosa qilib aytganda **O'tkir Hoshimovning "Urushning so'nggi qurboni" hikoyasining mazmuni.** Urushning so'nggi qurboni asari urush va uning yomon oqibatlarini ochib berilgan. Ushbu asarda urush barcha insoniyatni sinagani va deyarli, barcha insonlar boshidan o'g'ir kunlar o'tgani shu bir oila misolida ko'rsatib berilgan. Sinovlar shunchalik qattiq bo'lganki, jigarlar bir-birlarining, bolalar ota-onalarining holidan xabar olishmay qo'ygan. Asarda barcha insonlar sharoiti o'g'irligini, asar boshida birgina dast urxon tasvirida yaqqol ko'rishimiz mumkin. Shuningdek asar juda mazmunli va ta'sirli hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Normatov U. Ijod sehri. -T.: Ma'naviyat, 2006. -289 b.
2. Pospelov A. Vvedenie v literaturavedenii. -M.: Nauka, 1988. -234 b.
3. Rasulov A. Yangi zamon yangi qahramon. -T.: Adabiyot va san'at, 1978.
4. Sarimsoqov B. Badiiyat asoslari va mezonlari.-T: Fan, 2004. -194 b.
5. Uorren O., Uellek R. Teoriya literature. -M.:Progress, 1978. -S.308.

BO'LAJAK O'QITUVCHILARNING IJODIY FAOLLIGINI TA'MINLOVCHI KASBIY KOMPETENSIYALARNI RIVOJLANTIRISH MEXANIZMLARI

Umarova Asila Sunnatilla qizi
Qo'qon DPI magistranti

Annotatsiya. Mazkur maqolada bo'lajak o'qituvchilarning ijodiy faolligini ta'minlovchi kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirish mexanizmlari hususida ayrim fikr-mulohazalar bayon etilgan. Shuningdek maqolada, kompetensiya, kasbiy kompetensiya, ijodiy faollik tushunchalari hususida ham mulohazalar bayon etilgan.

Kalit so'zlar. Kompetensiya, kasbiy kompetensiya, ijodiy faollik, rivojlanish, ta'lim jarayoni, mahorat, munozara.

МЕХАНИЗМЫ РАЗВИТИЯ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ, ОБЕСПЕЧИВАЮЩИЕ ТВОРЧЕСКУЮ ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ

Умарова Асила Суннатилла кизи
магистрант Кокан ГПИ

Абстрактный. В данной статье представлены некоторые мнения о механизмах развития профессиональных компетенций, обеспечивающих творческую деятельность будущих учителей. Также в статье содержатся комментарии к понятиям компетентности, профессиональной компетентности и творческой деятельности.

Ключевые слова. Компетенция, профессиональная компетентность, творческая деятельность, развитие, учебный процесс, умение, обсуждение.

PROFESSIONAL COMPETENCE DEVELOPMENT MECHANISMS ENSURING CREATIVE ACTIVITY OF FUTURE TEACHERS

Umarova Asila Sunnatilla kizi
master student of Kokan DPI

Abstract. This article presents some opinions on the mechanisms of development of professional competencies that ensure the creative activity of future teachers. Also, the article contains comments on the concepts of competence, professional competence, and creative activity.

Keywords. Competence, professional competence, creative activity, development, educational process, skill, discussion.

Kirish. Zamonaviy sharoitlarda mehnat bozori talablariga mos ravishda o'quvchilarni kasbiy tayyorlash sifatini oshirish vazifasi qo'yilyapti. Shu munosabat bilan pedagoglar kasbiy – pedagogik faoliyatining yangi mazmunini ishlab chiqarish ularning yangi ta'lim holatlari talab qilayotgan innovatsiyalarni o'zlashtirish va qo'llashga tayyorligini qo'llab-quvvatlash ko'zda tutilgan. Mutaxassislarni tayyorlashdagi maqsad va vazifalar o'zgaryapti, malakalarni shakllantirish uchun bilimlarni o'zlashtirishga urg'u berilyapti, shaxsiy yo'naltirilgan holda o'qitishga qayta moslashish sodir bo'lmoqda.

Kasbiy ta'limni isloh qilish va ta'lim jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish talabning ijodiy, intellektual, ma'naviy rivojlanishining muhim shartidir. Aynan rivojlanish pedagogik jarayonning asosiy tushunchasidir. Shu munosabat bilan kasbiy ta'lim nafaqat bilim berish, ko'nikma hosil qilishi kerak, balki o'z – o'zini aniqlash imkoniyatlarini rivojlantirish, bo'lajak mutaxassislarni mustaqil harakatlarga tayyorlash, mas'uliyatni his qilishni o'rgatishdir.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Shaxs ta'limi va tarbiyasining asosiy vazifalariga o'rganuvchilarning shaxsiy potentsiallarini rivojlantirish, tub madaniyatni tarbiyalash vazifalari kiradi. Ijodiy potentsial shaxsiy potentsialning tarkibiy qismidir. Uni rivojlantirishda o'quv predmeti bo'lgan qiziqish, intellektual rivojlanish darajasi, izlanish xarakteridagi vazifalarni bajarishga qiziqish, mustaqil fikrlash darajasi yuksaladi va o'ziga ishonch, qiziquvchanlik va e'tiqod kabi xususiyatlar shakllanadi. O'quvchilarning ijodiy potentsiali turli xil vazifalarni hal qilish jarayonida rivojlanadi. Ijodiy vazifani biz o'zining yechimi uchun yangi usullarni izlashni qandaydir yangi texnologiyalarni yaratishni talab qiladigan muammo sifatida inson tomonidan qabul qilinadigan kundalik hayotda yoki faoliyatning xohlagan shaklida paydo bo'lgan holat sifatida aniqlaymiz [1].

Tahlil va natijalar. Bo'lajak o'qituvchilar kasbiy kompetensiyasida ijodiy potentsial rivojlanishi uchun ularda o'z kuchiga, ijodiy vazifalarni hal qila olish malakasiga ishonchni shakllantirish zarur. O'ziga ishonmagan odam muvaffaqiyatga erisha olmaydi. Albatta bu ishonch asosli bo'lishi kerak. O'quvchilarning maqsad vazifalar va ularni hal qilish vositalarini mustaqil tanlashga bo'lgan harakati yo'naltirilishi kerak. Mustaqil faoliyat ko'rsatishga odatlanmagan, qaror qabul qilishda masuliyatni olishga o'rganmagan kishi ijodiy faoliyat malakasini yo'qotadi.

Bugungi kunda tashkilotchilik, ijodiy faollik, tashabbuskorlik qobiliyatlariga ega bo'lgan, innovatsion muhitni yarata oladigan mutaxassislar kamyob hisoblanadi. Shuning uchun, o'quv jarayoni va darsdan tashqari faoliyatda ijodiy faollik va ijodiy

talablarni shakllantirish, shu bilan birga talabalarning ijodiy potensialini qo'llash imkoniyatlarini taqdim qilish zarur. Ijodiy faollik mazmuni – turli vazifalarga nisbatan ijodiy munosabat; atrof-dagilar va o'z hayotini boyitish talablari; atrof–muhitni mukammallashtirishga bo'lgan harakat, imkoniyatlar va shaxsiy qobiliyatlarni ochish.

Ijodiy potentsial – shaxsning ijodiy imkoniyatlari xilma–xilligi va miqyosidir. Ba'zan o'z ijodini xilma–xillashtirish va avvalgi ijodiy ishlarga umuman o'xshamagan nimadir yaratishni istab qolasan. Talabalarga o'z ijodini qanday rang-baranglashtirish, ijodiy potensialni oshirish: o'zining sevimli ishidan chalg'ish, ishiga bog'liq bo'lmagan nimanidir o'rganishni boshlash. Yangi ishtiyoqni o'z didiga qarab tanlash mumkin, asosiysi u yoqsin. Shunda yangi “ishtiyoq” eskisi bilan ajoyib shakllarda birlashadi. Yangi ko'nikmalar shakllanadi, maishiy tajriba boyiydi va ijodiy potensial ko'payadi. Shuning uchun aynan yangi qiziqish ijodiy potensialni o'stiradi va shaxs ruhini kamolga yetkazadi

Ijodning deyarli barcha ko'rinishlari talabalarga o'zini namoyon qilish, ta'limda mustaqil innovatsion faoliyat ko'nikmalarini olish va mukammallashtirish imkoniyatlarini beradi. Ilmiy ijod talabani yangi, yanada chuqur bilimlar, ma'lumotni topish va undan oqilona foydalanish malakasi bilan boyitadi, yangi bilimlarni yaratish sohasida o'zini namoyon qilish imkoniyatini beradi. Badiiy ijod san'atning u yoki bu turi bilan muloqot qilish, o'ziga bo'lgan ishonchning cheksiz imkoniyatlarini beradi. Ijodiy faoliyatning barcha turlari talabalarning innovatsion yo'naltirilgan shaxsini shakllantirish uchun juda muhim bo'lgan mustaqil va erkin fikrlash, fikrini bildira olishga asoslangan. Shunday qilib, talabalarning ijodiy qiziqishlarini hisobga olib va ijodiy faolligini shakllantirib, oily va o'rta maxsus ta'limda mutaxassislarni tayyorlash sifatini oshiradi, ijtimoiy ishlab chiqarish jarayonida raqobatbardoshlik va natijalilikni ta'minlaydi.

Zamonaviy sharoitlarda o'qituvchi va talaba munosabati xarakteri sifat jihatdan o'zgardi. Talaba nafaqat ta'lim ob'yekti, balki bu jarayonning subyekti, pedagog esa uning tashkilotchisi bo'ladi. Hodisalarni tushunish uchun nazariy bilimlarga o'rgatishdan ta'lim olish davomida to'plangan ko'nikmalarni egallash va hayotda qo'llashga o'tilyapti. Bo'lajak mutaxassislarning ijodiy imkoniyatlarini rivojlantirish, ta'limning faol usul va shakllariga asoslangan mustaqil ishlar ko'nikmalarini rivojlantirish bo'yicha vazifalar qo'yilyapti.

Ta'limning faol zamonaviy usul va shakllariga ta'limning maxsus vositalari yordamida vazifalar tizimi orqali turli mustaqil faoliyat turlariga talabalarning maksimal jalb qilinishini maqsad qilgan yondashuv asos bo'ladi. Ta'limda o'quv fanlarini o'rganish jarayonida faol shakl va usullardan foydalangan holda ta'limni tashkil etishning quyidagi shakllaridan foydalaniladi:

Muammoning qo'yilishi. Mos kelgan metodik usullar yordamida (axborot va muammoli savollar, hosil bo'lgan farazlarni isbotlash yoki aksi) o'qituvchi talabalarni birgalikda fikrlashga, muhokamaga undaydi. Bu o'quvchilarni fikrlashini shakllantiradi, faollikka chaqiradi. O'qituvchi bilan hamkorlikda talabalar yangi bilimlarni o'zlashtiradilar, o'z kasblarining nazariy va amaliy xususiyatlarini biladilar.

Ma'ruza-munozara. Ma'ruza materialini o'qituvchi va talabalarining o'zaro fikr almashishi shaklida bayon qilish bilan boshlanadi va bu o'zlashtirish faoliyatini faollashtirishga imkon beradi.

Ma'lumotli savollar. Muammoli va ma'lumotli savollar yordamida fanning qonuniyatlari va prinsiplari o'zlashtiriladi, talabaning individual xususiyatlari rivojlanadi, talabalarining mustaqil va o'quv-bilish faoliyati faollashadi. Talabalarda ega bo'lgan bilimlarni aktuallashtirish maqsadida tavsiya qilinadi.

Multimedia taqdimotlari. Vizual ma'lumotlar shaklida ta'limning texnik vositalari (sxemalar, rasmlar, fotosuratlar) yordamida taqdim qilinadi. Ular yordamida talabaning individual xususiyatlari, o'quv-bilish faoliyati, yuqori faollik darajasi shakllanadi. Ishning noan'anaviy shakllari "master-klasslar", "ijodiy ustaxonalar", "dumaloq stollar" talabalarga erkin shaklda o'zlarining takliflarini bildira olish, ijodiy loyihalarni himoya qilish imkoniyatini beradi

Ijodiy fikrlashni rivojlantirish uchun vazifalarni hal qilishning maxsus evristik usullariga o'rgatish foydali hisoblanadi. Aynan shaxs rivojlanishining aktuallashtirish resurslari, ochilishi, hayotiy motivlarni tasdiqlash, faoliyatni o'rnatishning kreativ shakllanishiga yo'naltirilgan evristik ta'lim ta'limning asosiy maqsadini bajaradi. Ta'lim oluvchilarning ijodiy rivojlanishining asosiy sharti o'qituvchi bilan hamkorlikdagi ilmiy faoliyatdir. Bu faqat hal qilinayotgan topshiriqning javobini talaba ham, o'qituvchi ham bilmagan holda amalga oshirilishi mumkin. Bu sharoitlarda topshiriq o'quv muammosidan real ilmiy yoki ishlab chiqarish muammosiga aylanadi va bu ijodiy faoliyatni boyitadi va kuchaytiradi. Maishiy, raqobatlashish, o'zini namoyon qilish motivlari muhim ahamiyatga ega. Bu motivlarni aktuallashtirish va ichki motivatsiyani shakllantirish uchun o'qituvchining talaba bilan hamkorlikdagi faoliyatga shaxsiy yondashuvi muhim o'rin tutadi [2].

Ta'lim jarayonida interaktiv ta'lim texnologiyalari: muammolimodul texnologiya, loyiha metodi, informatsion texnologiyalardan foydalaniladi. Bu o'quv jarayonida o'qituvchi konsultant sifatida, talaba esa faol izlanuvchi sifatida qatnashadi. Ikkalasi ma'lumotlarni izlash, saqlash va qayta ishlash jarayonida yangi mahsulotlarni yaratib hammualliflarga aylanishadi. O'quv jarayoni muvaffaqiyatli bo'lishi uchun talabalarining mustaqil ishlari (ilmiy, ijodiy, izlanish) bukletlar, taqdimotlar, namunaviy konspekt ishlanmalari, sxemalar, grafiklar, tablitsa ko'rinishidagi namunalari kiritiladi. Talabalarga ijod va o'zini namoyon qilish erkinligi beriladi,

shining uchun hamma izlanish faoliyatida mustaqil bo'lishga harakat qilishadi. Masalan: Internetdan texnologik ma'lumotlar va na'munalar tanlashda, materialni mavzu va bo'limlar bo'yicha tartiblash uchun terminologik lug'atlarni shakllantirishda.

Xulosa. Bo'lajak o'qituvchilar bilan ishlash amaliyoti tufayli boy material va undan foydalanish imkoniyati o'zlashtirildi. Alohida o'quv predmetlari bo'yicha metodik komplekslar tuzildi, ulardan o'quv jarayoniga faol foydalanilayapti: ma'ruzalarning elektron variantlari, amaliy mashg'ulotlar o'tkazish uchun uslubiy ishlanmalar, imtihonlarni o'tkazish uchun materiallar, nazorat va o'zo'zini nazorat uchun test topshiriqlari. Shunday qilib, boshlang'ich va o'rta kasbiy ta'limning ta'lim jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalardan, ta'limning innovatsion usullaridan foydalanish bo'lajak mutaxassislarni kasbiy tayyorlash sifatini oshirish imkonini beradi, ulanning raqobatbardoshligini, jamiyat hayotidagi faol ishtirokini ta'minlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

- 1.Современные образовательные технологии. Учебное пособие. - Екатеринбург, 2014.- С.37.
- 2.Чупрасова.В.И. Современные технологии в образовании. - Владивосток, 2000.- С.45.
3. Современные технологии обучения в вузе. Под редакцией М.А.Малышевой. Учебно-методическое пособие.- Санкт-Петербург, 2011.- С.6.

XALQ TABOVATI RIVOJIDA ABU ALI IBN SINO ILMIY MEROSINING O'RNI

O'ralova N.U.

Jizzax DPU Tabiiy fanlar fakulteti

Zoologiya va anatomiya kafedrasida o'qituvchisi

Rezyume; Ushbu maqolada Ibn Sinoning jahon madaniyati yutuqlari ta'sirida shakllangan ilmiy merosi, uning tibbiyot sohasidagi asarlari va asarlarining jahon tibbiyotini takomillashtirishga ta'siri haqida fikr yuritiladi.

Резюме. В данной статье размышляется научное наследие Ибн Сины, сформировавшееся под влиянием мировых культурных достижений, а также влияние его трудов и трудов в области медицины на совершенствование мировой медицины.

Resume. This article reflects on Ibn Sina's scientific heritage, which was formed under the influence of world cultural achievements, and the influence of his works and works in the field of medicine on the improvement of world medicine.

Qadim qadimdan O'rta Osiyo xalqlari asrlar davomida boy o'ziga xos madaniyatni yaratdilar. Bu madaniyatni G'arbiy Sibir, Sharqiy Yevropa, Kavkaz, Eron, Hindiston, Janubi-G'arbiy Osiyo aholisi madaniyatining o'zaro ta'siri natijasi sifatida baholash mumkin. Mazkur uyg'unlashuvi oqibatida mintaqada o'ziga xos va betakror madaniyat qaror topgan.

Mazkur noyob hodisa Ibn Sinoning ilmiy merosida yaqqol ko'rinadi. Ibn Sino ilg'or tafakkur namoyandasi sifatida ilmiy taraqqiyotni qo'llab-quvvatlovchi va tezlashtiradigan falsafiy tizimga intildi. Ibn Sinoning nazariy merosini bir butun sifatida baholashda undagi diniy tushunchalar hal qiluvchi ahamiyatga ega emas. Ibn Sino ilmiy merosida bizni, birinchi navbatda, u islomning idealistik an'analari yukini qay darajada yengib, rasmiy din va ilohiyotning majburiy ko'rsatmalaridan chetga chiqib, ilmiy dunyoqarashning kelajakdagi muvaffaqiyatiga yo'l ochganligi qiziqtiradi. o'yladi. Ibn Sinoning dunyoqarashiga ham ana shu pozitsiyalardan kelib chiqib qarash kerak.

Ibn Sino tabiatshunoslik asarlarida faktlarni aniq kuzatishni talab qiladi. Ibn Sino tajribalar paytida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan xatolar ehtimolini ko'rsatadi. Tajribani amaliyot mezoni sifatida Ibn Sino ataylab qo'llaydi, u ilmiy tajribalarning tabiatdagi tabiiy jarayonlarning borishiga mos kelishini talab qiladi.

Ibn Sino tajribani amaliyot mezoni sifatida qo'llasi natijasida Sharqda ham, G'arbda ham eng mashhur asari "Tib qonunlari" asari yuzaga keldi. Mazkur asar birinchi marta 1433 yilda Venetsiyada nashr etilgan fundamental asaridir. "Tib qonunlari" yaxshi rivojlangan anatomiya, fiziologiya, diagnostika, terapiya, jarrohlik, farmakologiya va profilaktikani o'z ichiga oladi. "Tib qonunlari"da kasallikning sabablari va belgilari haqidagi ma'lumotlar tizimli tarzda bayon etilgan. Shuni ta'kidlash kerakki, Ibn Sino kasalliklarning kelib chiqish sabablari va o'lim sabablari haqida o'zining dastlabki izohlarini berar ekan, birinchi navbatda, inson tanasini chuqur

o'rganishga tayangan. O'rta asrlar sharoitida, din tibbiyotga inson tanasining tuzilishini o'rganishni taqiqlagan paytda, Ibn Sino yashirincha anatomiya bilan shug'ullanadi. Uning jonli kuzatuvchan ongi inson ruhiyatini o'rganishga intildi. U aqliy va jismoniy jarayonlar o'rtasidagi bog'liqlik g'oyasini ifodalab, tibbiyot fani nafaqat anatomiya va terapiya bilimlariga, balki aqliy qobiliyatlarning tabiatini bilishga ham asoslanishi kerakligini ta'kidlaydi. Ibn Sino miya va nervlarning muhim rolini ta'kidlaydi. Ibn Sino dam olish, profilaktika, gimnastika, iqlim va sayohatning inson salomatligiga ta'siriga alohida e'tibor beradi. Xarakterli jihati shundaki, Ibn-Sino yuqumli kasalliklar qo'zg'atuvchilari kashf etilishidan ancha oldin ba'zi kasallik qo'zg'atuvchi moddalarning havo va suv orqali tarqalishi g'oyasini bildirgan.

Ibn Sino "Tib qonunlari" asarida hayratlanarli mantiq va izchillik kuchi bilan antik davr tabiblari va Yaqin Sharq xalqlari tomonidan to'plangan boy va qimmatli materiallarni umumlashtiradi va o'rta asrlarda shakllanayotgan tibbiyot fanini larzaga keltiradigan shunday nazariy xulosalarga keladi. Uning tajribani amaliyot mezoni sifatida qo'llasi "Tib qonunlari"ning asosiy afzalligidan biri hisoblanadi. Ibn Sinoning bu asari uning aniq ilmiy bilimga, hayot jarayonlarini davr imkoni boricha aniq ratsionalistik tushuntirishga intilishidan ishonchli dalolat beradi. Har qanday bilim, deydi Ibn-Sino, sabablar ma'lum bo'lmaguncha, orttirilmaydi va tugallanmaydi. Shuning uchun tibbiyot sohasida salomatlik va kasallikning sabablarini bilishga intilish tabiiydir. Salomatlik va kasallik, shuningdek, ularning sabablari ba'zan aniq, ba'zan yashirin va tushunish bilan emas, balki dalillar bilan ma'lum bo'lganligi sababli, biz sog'lik va kasallikka tegishli bu faktlarni o'rganishimiz kerak.

Abu Ali ibn Sinoning "Tib qonunlari" asarida inson organizmiga o'simliklarning tasirlari va shifobaxshlik xususiyatlari haqida ma'lumotlar mavjud. Misol uchun biz ko'pincha e'tibor bermaydigan ariq bo'ylarida va bog'larda o'sadigan Zubtutumning (*Plantago major* L) dorivorlik xususiyatlari haqida ham mazkur asarda ma'lumotlar mavjud. Zubtutumning bir necha turlari bo'lib ular quyidagilar Katta zubtutum yil bo'yi yo'l yoqalarida, dalalarda, ekinzorlarda, o'tloqlarda, o'rmon chetlarida, ariq bo'ylarida hamda boshqa namligi yuqori yerlarda o'sadi. Bu o'simlikning bargidan dori sifatida foydalaniladi.

O'rta zubtutum, lansetsimon zubtutum kabi turlari ham yil bo'yi o'sadi hamda ularni uchrash geografiyasi ham keng. Ular katta zubtutum bilan bir xil bo'lib bu turlar ham yo'l yoqalarida, dalalarda, ekinzorlarda, o'tloqlarda, o'rmon chetlarida, ariq bo'ylarida hamda boshqa namligi yuqori yerlarda o'sadi. Bu o'simliklarning ham barg qismidan dori darmon tayyorlashda foydalaniladi. Xususan Lansetsimon zubtutum Abu Ali ibn Sino yozib qoldirgan "Tib qonunlari" kitobida qon tomirlarini mustahkamlashi, ayrim bitishi qiyin bo'lgan yaralarni oson bitirishi, hatto oshqozon va ichaklarning ham ba'zi kasalliklarida shifo bo'lishligini ta'kidlab o'tgan.

Shuningek, mazkur asarda jag'-jag' (achambiti) o'simligi va uning shifobaxshlik xususiyati haqida ham ma'lumotlarga duch kelish mumkin. Ma'lumki, jag'-jag' (achambiti) o'simligi – *Capsella bursa pastoris* Medic, karamdoshlar - Brassicaceae (butguldoshlar - Craciferae) oilasiga kiradi. Bir yillik, bo'yi 20-30 sm (ba'zan 60 sm)ga yetadigan o't o'simlik. Poyasi bitta, ba'zan bir nechta, tik o'suvchi, shoxlangan yoki

shoxlanmagan. Ildizoldi barglari bandli, cho'ziq lansetsimon, turlicha qirqilgan barg plastinkasiga ega. Poyadagi barglari mayda, gullari shingilga to'plangan. Mevasi - qo'zoqcha. Aprel oyidan boshlab kuzgacha gullaydi, mevasi iyundan boshlab yetiladi. Geografik tarqalishi. Uzoq Shimol va cho'l tumanlaridan tashqari barcha aholi yashaydigan yerlarda, yo'l yoqalarida, o'tloqlarda va begona o't sifatida ekinlar orasida o'sadi. Mahsulot tayyorlash uchun o'simlik gullashi va mevasi yetilishi davrida ildizi bilan sug'urib olinadi. Ildizini ba'zan ildizoldi barglari bilan tashlab yuborib, qolgan qismini soya joyda quritiladi. Mahsulotning tashqi ko'rinishi. Tayyor mahsulot poya, barg, gul va xom meva aralashmalaridan iborat. Poyasi siyrak bargli, shoxlanmagan yoki shoxlangan, qirrali, tuksiz yoki tuklar bilan qoplangan, uzunligi 20-50 sm bo'ladi. Ildizoldi barglari (agar mahsulotda bo'lsa) cho'ziq lansetsimon, band tomoniga qarab torayib boruvchi, kemptik tishsimon qirrali yoki patsimon kesik, ba'zan tekis qirrali bo'ladi. Poyasidagi barglari mayda, lansetsimon, tekis qirrali bo'lib, bandsiz, ketma-ket o'rnashgan. Gullari oqimtir rangli, shingilga to'plangan. Kosacha va tojbarglari 4 tadan, otaligi 6 ta, shundan 2 tasi kalta, onalik tuguni 2 xonali, yuqoriga joylashgan. Mevasi teskari uchburchak yoki teskari uchburchak - yuraksimon qo'zoqcha. Mevasining uzunligi 5-8 mm, eni 4-5 mm. Kimyoviy tarkibi. Mahsulot tarkibida gissopin glikozidi, 0,12 % askorbin kislota, vitamin K1, organik kislotalar, xolin, asetilxolin, inozit, flavonoidlar, saponinlar, oshlovchi hamda boshqa birikmalar bo'ladi. "Tib qonunlari"da yozilishcha, jag'-jag' o'simligining preparatlari tug'gandan keyin va bachadon kasalliklarida qon oqishini to'xtatish uchun hamda bachadon zaiflashganda uni tonuslovchi vosita sifatida ishlatiladi. Dorivor preparatlari damlama, suyuq ekstrakt shaklida tayyorlanadi. Jag'-jag' - xalq tabobatida qadim qadimdan ishlatilib kelingan o'simliklardan biri hisoblanadi. Bu o'simlikdan tayyorlangan damlamalardan asosan turli xildagi qon oqishlarda (bachadondan, o'pkadan, oshqozondan, ichakdan, buyrakdan hamda turli xil yaralardan qon ketishlarida) samarali dori sifatida foydalanilgan. Ayniqsa qon aralash siydik yo'li kasalliklarida hamda qon aralash ich ketishlarda ham foydalangan. Xulosa o'rnida shuni aytishimiz mumkinki Abu Ali ibn Sinoning tibbiy o'gitlaridan ilmiy merosidan foydalanish xalq tabobatining qolaversa tibbiyotning rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etgan.

AYDARKO‘L SOHILLARINING TURISTIK IMKONIYATLARI

O‘ralova Nilufar Utayevna

Jizzax DPU Zoologiya va anotomiya kafedrası o‘qituvchisi

Tel. 90-515-55-87. O‘zbekiston. Jizzax vil. Jizzax shaxri.

Kalit so‘zlar: Aydarko‘l, antropogen ko‘l, Botanika, efemer, efemeroid, bioekologiya, turizm, ilmiy tadqiqot va h.k.

Annotatsiya: Mazkur maqolada mamalakatimizning turistik salohiyatini oshirish va sayohlarni hududga jalb qilishda muhim sanalgan va o‘zida ko‘plab estetik xususiyatlarni jamlagan Haydar-aydarko‘l sohillari bioekologiyasi xususida fikr yuritilgan hamda ilmiy turistlarni ayniqsa, botaniklarni o‘zuga jalb qiladigan aydarko‘l sohilida o‘sadigan efemer, efemeroidlarning turlari va tarqalishi haqida ma’lumotlar berilgan.

Bugungi kunda mamalakatimizning turistik salohiyatini oshirish va sayohlarni hududga jalb qilish muhim masalalardan biri sanaladi. O‘zbekiston Respublikasining turizm to‘g‘risidagi qonunida turizm hududi tushunchasi “Muayyan chegaralarga ega bo‘lgan, bir yoki bir necha turistik resurslar (tabiiy, tarixiy, ijtimoiy-madaniy, davolash-sog‘lomlashtirish obyektlari, shuningdek turistlar va ekskursantlarning ehtiyojlarini qanoatlantira oladigan boshqa obyektlar) joylashgan, kirish turizmini va ichki turizmni, turistik industriyani rivojlantirish, turistik resurslarni muhofaza qilish hamda ulardan oqilona foydalanish maqsadida tashkil etilgan hudud turistik zonadir”[1.] deb ta’riflanadi. Shu nuqtai nazardan qaraganda Haydar-aydarko‘l sohillari turistik zonalar qatoriga kiradi. Chunki bu hudud bir yoki bir necha turistik imkoniyatlarni o‘zida mujassam etgan. Hududdan turistlarni jalb etish tabiiy, tarixiy, ijtimoiy-madaniy, davolash-sog‘lomlashtirish obyektlari, shuningdek turistlar va ekskursantlarning ehtiyojlarini qandirish maqsadida foydalanish mumkin.

Shu o‘rinda mazkur ko‘l xususida ikki og‘iz to‘xtalishni joiz hisobladik. Aydarko‘l – antropogen ko‘l bo‘lib, Navoiy va Jizzax viloyatlarining cho‘l qismida joylashgan. Aydarko‘lning paydo bo‘lish tarixi juda qiziq: gap shundaki, o‘tgan asrning o‘rtalariga qadar ko‘l o‘rnida namlik yeri bo‘lmagan quruq yer hosil bo‘lgan. Bahorda esa bu yerda Tuzkon ko‘li hosil bo‘lib, kunlar isishi bilan bug‘lanib ketardi. Shu vaqtda suv sathini nazorat qiluvchi shlyuzli Chordaryo GESi qurilgan. GESga suv Sirdaryodan kelib tushgan, biroq 1969 yildan 1970 yilga qadar GES suv mo‘llicidan tosha boshlagan va to‘g‘on o‘pirlilishini oldini olish uchun shlyuzlar ozgina ochilgan. Natijada, suv Arnasoy pasttekisligiga oqa boshlab, keyinchalik Aydarko‘l hosil

bo'lgan. Ko'1 ko'plab mayda ariqlarni birlashtiradi va Orol dengizidan keyin, ikkinchi o'rinda turuvchi O'zbekistondagi sho'r ko'1 sanaladi.

Bundan yarim asr avval Aydarko'1ni hech qaysi bir dunyo xaritasidan topa olmasdingiz, hozir esa bu - inson qo'li bilan yaratilgan mo'jizakor yerdan yuzlab flora va fauna vakillari makon topishgan bo'lib, ulardan ayrimlari Qizil kitobga ham kiritilgan. Shuning uchun ko'1 nafaqat sayyohlarga, balki ko'1 sohilida yashovchi kamyob hayvonlar, qushlarni o'rganuvchi zoologlarga hamda mintaqada kam uchraydigan o'simliklarni o'rganuvchi botaniklarga ham juda qiziqarli joyga aylanadi.

Botanikada kam o'rganilgan o'simlik dunyosiga boy sanalgan Aydarko'1 sohillari barcha bu sohaga qiziquvchilarni ayniqsa, botaniklarni o'ziga chorlamasdan qolmaydi. Aydarko'1 sohillarida o'simliklar dunyosi vakillari orasida to'liq hayot aylanishi bir necha hafta (2 dan 6 gacha) yoki oylarda (5-6, ba'zan ko'proq) tugaydigan o'simliklar mavjud. O'sish davri juda qisqa bo'lganligi sababli, ular qadimgi yunoncha "bir kunlik", ya'ni bir kunlik o'simliklar degan ma'noni anglatuvchi efemera (lat. ephemerae) deb atalgan. Ba'zan bir mavsumda ular bir nechta avlodlarni shakllantirishga muvaffaq bo'lishadi.

Aydarko'1 sohillarida issiq, qurg'oqchil iqlim hukmron bo'lganligi bois efemerlar u yerda yashovchi o'simlik dunyosining 60-90% ni tashkil qiladi. Bu holat ham bevosita ilm-fan bilan qiziquvchi turistlarni hududga jalb qilishning yana bir imkoniyati sanaladi. Ajablanarlisi shundaki, ularning atrof-muhit sharoitidagi turli o'zgarishlarga javob berish qobiliyati yuqori. Efemerlarning mavjud bo'lish davri butunlay kuz, qish va bahor fasllarida yog'ingarchilikka bog'liq. Yozda, uzoq muddatli qurg'oqchilik bilan birga yuqori haroratlarda, o'simliklar butunlay nobud bo'ladi. Lekin Aydarko'1 sohillarida issiq va sovuq iqlim amashinib turganligi bois efemerlarga bu hududda qulay sharoit yuzaga kelgan. Shu bois efemerlarning juda ko'p turlarining vegetatsiya davriga Aydarko'1 sohillarida duch kelish mumkin. Bu jarayonni "Efemerli-qo'ng'irboshli rangzor; aralash o'tli-efemerli-qo'ziquloq aralash rangzor, karrakli-qo'ng'irboshli-rangzor, qo'ziquloq aralash karrakli-qo'ng'irboshzor bodomcha aralash qo'ziquloqli-shuvoqli rangzor va boshqalar" [2.78.] da kuzatish mumkin.

Ma'lumki, cho'1 efemerlari past, odatda balandligi 10-12 smdan oshmaydi. Lekin Aydarko'1 sohillarida o'suvchi ayrim efemerlarda hududda tarkib topgan qulay sharoit tufayli balandligi 12-15 smni tashkil etishini ham kuzatish mumkin. Cho'1 efemerlari – mayda, bo'shashgan barglari va zaif, yuzaki ildiz tizimiga ega bo'lgan o'tsimon o'simliklardir. Ularning gullash davri bahorda (kamroq kuzda) sodir bo'ladi, keyin cho'1 hududi bir vaqtning o'zida ochilgan ko'p rangli va yorqin gullarga aylanadi. Tuproq namligini saqlab, efemer o'simliklar yerni qalin gilam bilan qoplaydi, ko'pincha barglarini quyosh nurlaridan himoya qiluvchi sirt qatlami sifatida ishlatadi.

Qisqa vaqt ichida ularning hayotiy faoliyati uchun etarli bo'lgan suv miqdori tuproqda qolsa-da, efemerlar o'zlarining hayot aylanish jarayonini to'liq o'tkazish uchun vaqt topadilar: so'lib, urug'larni qoldiradilar. Ularning urug'larining yuqori qurg'oqchilik va issiqlikka chidamliligi efemerlarning yangi avlodlariga ekstremal sharoitlarda omon qolish imkonini beruvchi yana bir xususiyatdir.

Efemerlar (yun. – bir kunlik) – cho'l, chala cho'l va adirlarda o'sadigan bir yillik o'simliklar. Efemerlarning qisqa umr ko'rishi ularning sharoit bilan bog'liq xususiyatidir. Noqulay iqlimiy muhit omillariga moslashib, ular hayot uchun eng qulay sharoitlardan foydalanish uchun o'zlarining rivojlanishining barcha bosqichlarini, jumladan, urug'larning unib chiqishi, o'sishi, rivojlanishi, gullashi, meva berishlari va o'lishlarini qisqartirishga majbur bo'ldilar. Ko'pgina o'simliklar singari, efemeraning hayot aylanishi faqat issiq mavsumda, yorug'lik va tuproqda etarli miqdorda namlik bilan bog'liqdir. Efemerlarning vegetatsiya davri kisha. Asosan, bahor va kuzda, tuprok nam vaqtlarida o'sadi. Tipik, ya'ni bahorgi efemerlar va kuzgi efemerlarga ajratiladi.

O'simliklarning hayotga moslashishining eng yorqin misoli cho'ldir. Bu yerda efemer o'simliklar, kaktuslar va sukkulentlar yonma-yon o'sadi. Har bir o'simlik turi esa cho'lda hayotga o'ziga xos tarzda moslashgan. Efemerlar juda qisqa umr ko'radigan bir yillik o'simliklardir. Ularning hayoti may oyida faqat bir oy davom etadi.

Ko'knori, don, anastatik kabi efemer o'simliklar erta bahorda uyg'onadi va issiqlik boshlanishidan bir oy oldin gullash va urug' berishga vaqt topadi. Bahorda, tuproqning yuqori qatlami suv bilan yaxshi ta'minlangan bo'lsa-da, efemera uni tuproqdan faol ravishda o'zlashtiradi, lekin ayni paytda juda ko'p bug'lanadi.

Ba'zi efemerlarning barglari deyarli erga yotib, uni o'zlari bilan qoplaydi va quyosh nurida tez qurib ketishiga yo'l qo'ymaydi. Shunday g'ayrioddiy tarzda efemer o'simliklar cho'lda hayotga moslashgan. Hayotiy davrning oxiriga kelib, efemer o'simliklar butunlay, hatto ildizi ham nobud bo'ladi. Vegetatsiyaning bir oyida ular keyingi vegetatsiya davrida hayotni qayta tiklash uchun faqat urug'larni qoldirishga muvaffaq bo'lishadi.

Ammo efemer o'simliklarni nafaqat cho'lda uchratish mumkin. Efemerlar bahordan yozgacha o'sish sharoitlari keskin o'zgarib turadigan sharoitlarda ham o'sadi. Bu o'simliklarni nafaqat suv bilan, balki yorug'lik bilan ham ta'minlash muhimdir. Shuning uchun, hatto markaziy Rossiyaning keng bargli o'rmonlarida, masalan, yozda yorug'lik etarli bo'lmagan eman o'rmonlarida ham efemerlar uchraydi. Erta bahorda, daraxtlardagi barglarning asosiy qismi xali gullamaganida, efemer tezda o'sadi va urug' berishga vaqt topadi. Daraxtlarda barglar gullaganda, efemeraning asta-sekin yoki tez o'limi sodir bo'ladi. Rossiya hududida uchraydigan efemerlar: eman

yormalari, cho‘l lavlagi, buloq toshbaqasi, shimoliy dalgalanma, Afrika malkolmiyasi, o‘roqsimon shox boshi kabilardir.

Cho‘l va sovuq iqlimda o‘sovchi efemerlardan farqli ravishda issiqlik va namlik yetarli bo‘lgan Aydarko‘lning suv bilan qoplangan sohillarida o‘sovchi efemerlarning vegetatsiyasi o‘ziga xosdir. Chunki, Aydarko‘l sohillari o‘zida ikki kontinentni birlashtirgan hududdir.

Yozda hayoti to‘xtaydigan cho‘l efemeridan farqli o‘laroq, Aydarko‘l sohillari efemeralarining ayrimlari bu hududda yuzaga kelgan qulay kontinent tufayli bahor, yoz va kuz faslarida ham hayot siklini davom ettirishi mumkin. Sovuq iqlim hukron bo‘lgan sharoitida efemer urug‘lar faqat qisqa yoz boshlanishi bilan quyosh nurlari ostida erigan sayoz tuproq qatlamida unib chiqa boshlaydi. Bu mintaqada bir necha hafta ichida, iliq ob-havo bilan birga, bu o‘simliklar mavsumining barcha bosqichlaridan o‘tib, yangi hayot uchun urug‘larini tuproqda qoldiradi.

Efemerlarning orasida yaltirbosh, taroqbosh, arpaxon, no‘xatak, sariq yo‘ng‘ichqa kabi ozuqabop; jag‘jag‘ kabi dorivor, uchma kabi zaharli turlari bor [3.256.]. Bu sanab o‘tilgan turlarning aksariyati Aydarko‘l sohillarida uchraydi.

Bir yillik o‘simliklar bo‘lgan efemerlardan tashqari, efemeroid deb ataladigan ba‘zi ko‘p yillik o‘simliklar ham Aydarko‘l sohillarida uchraydi. Efemeroidlar - ko‘p yillik o‘simliklarning ekologik guruhi; bu guruhdagi o‘simliklar har yilgi vegetatsiya davrining qisqaligi bilan xarakterlanadi. Efemeroidlar yilning ko‘p qismini uyqu holida, ya‘ni tugunak, piyoz yoki ildizpoya shaklida o‘tkazadi. Masalan, rang, qo‘ng‘irbosh, lola, boychechak kabi o‘simliklar [3.256.]ni bunga misol sifatida kiritish mumkin.

Ularning vegetatsiya davri cho‘l hududlarida qisqa davom etsa, Aydarko‘l sohillarida yuzaga kelgan qulay iqlim tufayli bu hududda uzoqroq davom etadi. Efemeradan farqli o‘laroq, noqulay davrlarda efemeroidlarda faqat havo qismi o‘ladi, yer osti qismi (ildiz, ildizpoya, lampochka) saqlanib qoladi. Efemeroidlar uzoq uyqu davri bilan ajralib turadi, buning natijasida o‘simliklar hayot uchun noqulay sharoitlarda omon qolishga muvaffaq bo‘lishadi.

Qulay sharoitlarning boshlanishi bilan efemeroidlar faollashadi, ularning uxlab yotgan kurtaklari uyg‘onadi, kraxmal va er osti qismida saqlanadigan boshqa oziq moddalar yordamida. Efemeroidlar orasida ko‘pchilikni tashkil etuvchi bahorgi gulli o‘simliklar ham, gullashi kuzda sodir bo‘ladigan o‘simliklar ham bor.

Efemeroidlarga tupsimon, ildizpoyali va piyozchali kiradi. Efemeroidlarning vakillari taniqli qor bo‘laklari, bel og‘rig‘i (uyqu o‘ti), ko‘katlar, ssilkalar, lolalar, bahor gulli krokuslar, anemonlar, za‘faronlar, muskarlar, xionodokslar, ranunculus, koridalis, findiq, shuningdek amaryllis, clivia kabi yopiq o‘simliklar kiradi [4.310].

Erta bahorda efemeroidlar, novdalar va yangilanish kurtaklari qor ostida ham hosil bo'ladi. Gullash davrida efemeroidlar changlatuvchi hasharotlar uchun aniq ko'rinadigan yorqin va rangli gullar gilamini hosil qiladi. Mevalar pishib, urug'lar tushib ketgandan so'ng, iyun oyining boshida sharoit o'zgarishi (ozgina suv yoki yorug'lik) bilan efemeroidlarning havo organlari o'ladi. Yangilanish kurtaklari va kraxmal bilan ta'minlangan yer osti organlari kelgusi bahorgacha taxminan o'n oy davomida chuqur uyqu holatida bo'ladi.

Shunday qilib, Aydarko'l sohillari bioekologiyasining turistik imkoniyatlarini o'rganish va qo'lga kiritilgan ilmiy natijalarni keng jamoatchilikka tanitish o'ylaymizki, *birinchidan*, dunyo olimlarining o'lkamizda mavjud bo'lgan flora va fauna dunyosiga qiziqishlarni ortiradi. Buning natijasida esa, o'lkamizning ekoturistik salohiyati yanada oradi; *ikkinchidan*, Aydarko'l sohillarida uchraydigan efemer va efemeroidlarning vegetatsiya davrini aniqlab, bu hududda o'sha paytda chorva mollarini boqishni cheklash lozim. Buning natijasida esa ularning ko'payishi va urug' qoldirishi uchun qulay shart-sharoit yuzaga keladi; *uchinchidan* esa, bu hududda o'suvchi efemer va efemeroidlardan xalq tabobatida foydalanish mumkin. Buning natijasida esa, xalq tabobati vakillarining ham hududga turistik qatnovlari ortishi hamda turli kimyoviy dori vositalaridan foydalanish o'rniga arzon va zararsiz dori-darmonlar vujudga keladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. <https://lex.uz/docs/-4428097>.
2. Qodirov G'. Aydarko'l sohili o'simliklari qoplaminig transformatsiyasi. –T.: Tafakkur, 2014.
3. Ўзбекистан миллий энциклопедияси . – Т.: “Ўзбекистан миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти.
4. Мухаммадхонов С., Ф.Жонгуразов Ф. Ўсимликшуносликка оид русча-ўзбекча изоҳли луғат. – Т.: меҳнат, 1989.

ЎЗБЕКСИТОН ВА ЯПОНИЯ ДАВЛАТИДА ИЖТИМОЙ ХАВФЛИ ҚИЛМИШ СОДИР ЭТГАН ШАХСЛАРГА НИСБАТАН КЎРИЛАДИГАН ЖАЗО ЧОРАЛАРИ ВА ШУ БОРАДАГИ ТАЖРИБАЛАРИ.

Дадажонов Авазбек Абдурасул ўғли

:Наманган давлат университети Юридик факультети

Юриспруденция йўналиши 4-курс талабаси

Аннотация: Ушбу мақолада Ўзбекистон ва Япония давлатида ижтимоий хавфли қилмиш содир этган шахсларга нисбатан кўриладиган жазо чоралари ва шу борадаги тажрибалари, ўхшаш ва фарқли жиҳатлари ҳақида сўз юритилган.

Калит сўзлар: Иена пул бирлиги, мажбурий меҳнат, озодликдан маҳрум қилиш, ижтимоий ҳавфли қилмиш, жазо чоралари, жарима,

Япония давлатида ижтимоий хавфли қилмиш содир этган шахсларга жазо тайинлашда енгил жазо турлари, ўрта оғир жазо ва оғир жазо турлари каби тизимларга бўлинган жазо чоралари қўлланилади. Жазо чоралари сифатида 1.000 иенадан 10.000 иена пул бирлигигача бўлган кичик жарималар, муддати 30 кунгача бўлган озодликдан маҳрум қилиш, 10.000 иенадан кўпроқ бўлган жарима жазоси, бир ойдан кўпроқ бўлган озодликдан маҳрум қилиш жазоси, мажбурий меҳнат ва бир ойдан кўпроқ бўлган озодликдан маҳрум қилиш жазоси ва сўнгида ўта оғир жиноятларни содир этган шахсларга нисбатан қўлланиладиган ўлим жазоси каби турлари мавжуд. Япония суди амалда озодликдан маҳрум қилиш билан боғлиқ бўлган жазоларни камдан-кам ҳолатларда қўллайди. Ижтимоий хавфли қилмишни содир этган шахсларга уларни содир этган ҳаракат ёки ҳаракатсизлиги натижасида вужудга келган ижтимоий ҳавфли оқибатларни даражасига қараб, жарима ва озодликдан маҳрум қилиш, шунингдек мажбурий меҳнатга жалб қилиб, озодликдан маҳрум қилиш жазоларини бир вақтнинг ўзида қўшиб тайишланиши мумкин. Агарда ижтимоий ҳавфли қилмишни содир этган шахс жарима жазосига ҳукм қилинган бўлса-ю, жаримани тўлашга имконияти мавжуд бўлмаса, жазони озодликдан маҳрум қилиш турдаги жазога алмаштирилиб ўташи мумкин. Жарима жазосини ўрнига тайинланган озодликдан маҳрум қилиш жазоси икки йилгача белгиланади. Ижтимоий хавфли қилмиш учун жазо тайинланганда, ижтимоий хавфли қилмиш натижасида етказилган зарар, ёки унинг оқибатлари ва ижтимоий хавфли ҳаракат(ҳаракатсизлик)нинг вужудга келтирган сабабларига қараб жазо тайинланади. Ижтимоий хавфли қилмишни содир этган шахс юқорида

кўрсатилган ҳар қандай жазо тури қўлланилганда, унга нисбатан судланганлик вужудга келади.

Япония давлатида ярашув институти мавжуд бўлиб, унда ижтимоий хавфли қилмишни содир этган шахслар етказилган моддий ва маънавий зарарни ўрнини қоплаганда, шунингдек жабрланувчилар билан ярашганда, унга нисбатан юритилган жиноят иши тугатилади.

Япония давлати жиноят содир этилишини камлиги бўйича дунёда етакчи ўринда туради. Япониянинг жиноят қонунчилигига кўра, Япония давлатида чет ел фуқаролари томонидан содир этилган жиноятларда гумонланаётган шахсларни ҳибсга олинишини 2 хил усулда амалга оширади. 1. Ижтимоий хавфли қилмишни содир этишда гумонланёган шахс жойида ҳибсга олинса (бу ҳолатда Япония ҳуқуқни муҳофаза қилувчи органлар томонидан ҳеч қандай ордер кўрсатилмайди, лекин гумон қилинувчи шахсга дастлабки тушунтиришни берилади) 2. Гумон қилинаётган шахсни тегишли ордерни кўрсатиш бўйича, ҳар иккала ҳолатда ҳам гумон қилингаётган шахсни сўроқ қилиш учун тегишли ҳуқуқ тартибод органи бўлимимга олиб борилади. Ўзига нисбатан жиноят иши судга тақдим қилингандан сўнг, айбланаётган шахс биринчи инстанция судида ўзига нисбатан чиқарилган ҳукмдан норози бўлса, юқори суд инстанциясига 14 кунлик муддат ичида муурожаат қилиш мумкин.

Ўзбекистон Республикаси Жиноят қонунчилиги қонунчилик билан қўриқланадиган объектларини бузилиши натижасида, унга нисбатан тегишли санкция доирасидаги жазо чоралари, яъни жарима, муайян ҳуқуқдан маҳрум қилиш, мажбурий жамоат ишлари, ахлоқ тузатиш ишлари, хизмат бўйича чеклаш, озодликни чеклаш, интизомий қисмга жўнатиш, озодликдан маҳрум қилиш, умрбод озодликдан маҳрум қилиш, шунингдек асосий жазолардан ташқари ҳарбий ёки махсус унвонлардан маҳрум қилиш тариқасидаги жазолар ҳам қўлланилиш мумкин. Япония қонунчилигига кўра, жазо тайинлашда судларнинг мустақиллиги қонун билан кафолатланган бўлса, Ўзбекистон Республикасида ҳам судларнинг мустақиллиги асосий қонунимиз конуституция билан ҳам эътироф этилган. Юртимиздаги қонунчиликда инсоннинг шаъни ва қадр-қиммати юксак эътиборга олинган. Чунки маълум бир ижтимоий хавфли қилмишни содир этган шахсга жазо тайинлашда, давлат махсус ваколатга эга бўлгани сабабли жазо тайинлашда давлат ўзининг қонунийлик, тенглик, адолатлилик принципларига риоя қилган ҳолда шахсни қийнаш эмас балки, уни тарбия қилиш маълум бир ижтимоий хавфли қилмиш содир этишига қаршилик қилиш, қонунларга ҳурмат руҳида тарбиялашни ўзининг устувор йўналиши сифатида баҳолайди.

Ижтимоий хавфли қилмишни содир этган шахс ўзининг хатти-

ҳаракатларини ҳуқуқий оқибатига кўзи етган ҳолда содир этса, унга жазо тайинлашда айбдорлик даражасини, қилмишидан пушаймонлик ҳолатини, қонунларга ҳурмат ва итоатини баҳолаш ҳолати ҳар икки Ўзбекистон-Япония давлатларининг суд ҳокимиятига юкланган вазифа ва мажбурияти сифатида кўришимиз мумкин.

Фойдаланилган адабиётлар:

Jarance Law Translation (Япон қонунлари таржимаси маълумотлар базаси тизими).

Япон жиноят кодекси 2017-йил 72-сонли қонун таҳрири.

Ўзбекистон Республикаси Жиноят кодекси.

TASK-BASED TEACHING OF THE ENGLISH LANGUAGE

N.I. Turayeva

*The English Teacher of the Academic lyceum under
Turin Polytechnic University*

Annotation: Task-based teaching (TBT) is a communicative approach to language instruction that prioritizes meaningful tasks as a medium for learning. Instead of focusing on grammar rules and rote memorization, TBT engages learners in real-life tasks, such as solving problems, planning activities, or participating in role-plays, to develop fluency and accuracy. Rooted in the theories of communicative language teaching (CLT), this methodology emphasizes learner interaction, collaboration, and the integration of language skills in authentic contexts.

Key proponents like Ellis (2003) and Nunan (2004) argue that TBT mirrors real-world communication, thereby preparing learners for practical language use. It incorporates a structured framework comprising pre-task, task, and post-task phases, each focusing on different aspects of language acquisition. The approach has been shown to boost learner motivation, foster teamwork, and enhance communicative competence.

However, TBT is not without challenges. Issues such as time constraints, mixed proficiency levels, and difficulties in assessing task performance can hinder its implementation. Despite these challenges, TBT remains a highly effective method for teaching English, providing learners with the tools to navigate diverse communicative situations.

Seminal works such as *Task-Based Language Learning and Teaching* by Ellis (2003) and *Task-Based Language Teaching* by Nunan (2004) provide comprehensive insights into the theoretical and practical aspects of this methodology, making them invaluable resources for educators aiming to adopt TBT in their classrooms.

Key words: Task-based learning, English language teaching, communicative approach, language acquisition, learner-centered methodology.

Introduction: Task-based teaching (TBT) has emerged as a pivotal methodology in English language instruction, emphasizing the completion of meaningful tasks as a way to facilitate language learning. Rooted in the communicative approach, this pedagogy shifts the focus from traditional grammar-based instruction to real-world tasks that foster interaction and practical application of language skills. By engaging learners in activities that simulate real-life scenarios, task-based teaching enhances

motivation, promotes critical thinking, and enables learners to develop fluency and accuracy naturally.

This article explores the principles of task-based teaching in the context of English language instruction, highlighting its benefits, implementation strategies, and challenges. A review of relevant literature offers theoretical support for this method, followed by practical examples of tasks suitable for various learning levels. Task-based teaching (TBT) in English language education has evolved significantly in recent years, driven by advances in technology, pedagogy, and the needs of 21st-century learners.

Main part:

1. Understanding Task-Based Teaching

Task-based teaching is defined as a pedagogical framework where language is taught through the completion of specific tasks. Nunan (2004) describes a "task" as a piece of classroom work involving learners in comprehending, producing, or interacting in the target language while focusing on meaning rather than linguistic form. This methodology integrates tasks that mirror real-life communication, such as planning a trip, writing an email, or engaging in a debate.

Key characteristics of TBT include:

Authenticity: Tasks reflect real-world language use.

Meaningful Interaction: Learners communicate for a specific purpose.

Focus on Outcome: Success is measured by task completion rather than linguistic correctness.

2. Benefits of Task-Based Teaching

The advantages of TBT in English language teaching include:

Enhanced Learner Engagement: Tasks that resonate with learners' experiences or interests increase motivation.

Practical Language Skills: TBT emphasizes functional use of language, preparing learners for real-world communication.

Collaborative Learning: Group tasks foster teamwork and peer learning, which reinforce language acquisition. Integrated Skills Development: Tasks typically involve listening, speaking, reading, and writing, enabling holistic language development.

3. Implementation of Task-Based Teaching

A. Framework for Task Design

Ellis (2003) outlines a task-based learning framework consisting of three stages:

1. Pre-task Phase: Introduction to the task, vocabulary, and context.

2. Task Cycle: Learners perform the task individually or in groups, focusing on communication.

3. Post-task Phase: Reflection, error correction, and reinforcement of target structures.

B. Examples of Tasks

Elementary Level: Role-playing a shopping scenario to practice asking for prices and quantities.

Intermediate Level: Writing a short travel itinerary for a weekend trip.

Advanced Level: Conducting a debate on environmental policies.

C. Teacher's Role

In TBT, the teacher acts as a facilitator, guiding learners through the task cycle and providing feedback to improve their linguistic output.

4. Challenges of Task-Based Teaching

Annotatsiya: Matematika, xususan, analiz sohasida Ketma-ketliklar muhim bo'limi juda muhim hisoblanadi. Progresiyalar – bu har bir sohada juda ham keng qollaniladi. Ushbu maqolada arifmetik va geometrik progresiyalarning yig'indisi uchun formulalari, Iqtisodiyotda qo'llanilishi, biologiya va ekologiyada qo'llanilishi, fizika va muhandislik sohasida qo'llanilishi yoritib berilgan

Kalit so'zlar: arifmetik progresiya, geometrik progresiya, ketma-ketlik, element, 1-hadi, n-hadi.

Matematika sohasida progresiyalar — bu elementlarning ketma-ketligini tashkil etadigan sonli to'plamlar bo'lib, har bir keyingi element oldingi elementga nisbatan o'zgaradi. Progresiyalar o'rganilayotgan soha turiga qarab ko'plab tarmoqlarda, xususan, algebra, analiz va iqtisodiyotda keng qo'llaniladi. Ularning asosiy turlari — arifmetik va geometrik progresiyalar bo'lib, har biri o'ziga xos xususiyatlar va amaliy qo'llanilish sohasiga ega. Ushbu maqolada progresiyalar haqida kengroq tahlil olib boriladi va ularning matematika va amaliyotdagi o'rni ko'rsatiladi.

1. Arifmetik progresiya

Arifmetik progresiya- bu sonlar ketma-ketligi bo'lib, undagi har bir keyingi son avvalgi sondan bir hil songa farq qiladi. Arifmetik progresiyaning umumiy ko'rinishi quydagicha bo'ladi:

$$a_n = a_1 + (n - 1) * d$$

Bu yerda:

a_n - n- element,

a_1 - 1-element,

d- ayirma (ya'ni har bir elementning o'zgarishi)

n- elementning tartib raqami

Arifmetik progresiya nafaqat matematika sohasida, balki real hayotda ham uchraydi. Misol uchun, iqtisodiyot va statistika sohasida ortib boruvchi daromadlar, vaqt o'tishi bilan o'zgaragan narxlar va boshqa o'zgaruvchilarni tahlil qilishda arifmetik progresiyadan foydalaniladi. Arifmetik progresiyaning tahlili uning qismlariga va summalariga nisbatan qo'llaniladi.

2. Geometrik progressiya

Geometrik progressiya – bu sonlar ketma ketligi bo'lib, undagi har bir keying son

avvalgi songa malum bir sonni ko'paytirishdan hosil bo'ladi. Geometrik progressiyaning umumiy ko'rinishi quyidagicha bo'ladi:

$$b_n = b_1 * q^{n-1}$$

Bu yerda:

b_n – n – element

b_1 – 1-element

q – ayirma

n – elementning tartib raqami.

Geometrik progressiyalar ko'pincha biologiya, fizika va iqtisodiyotda o'sish va kamayish jarayonlarini modellashtirishda qo'llaniladi. Masalan, biror jarayonning o'sish sur'ati doimiy bo'lsa, bu jarayon geometrik progressiya sifatida modellashtirilishi mumkin. Epidemiyalari, biologik populyatsiyalar yoki moliya bozoridagi o'sishlar geometrik progressiya yordamida tahlil qilinadi.

3. Progressiyaning yig'indilari

Progressiyaning yig'indisi — bu uning barcha elementlarining yig'indisi. Arifmetik va geometrik progressiyalar uchun summalar alohida hisoblanadi.

Arifmetik progressiya yig'indisi:

$$S_n = \frac{n(a_1 + a_n)}{2}$$

Arifmetik progressiyaning n-elementigacha bo'lgan yig'indisi ushbu formuladan foydalanib hisoblanadi.

Geometrik progressiya yig'indisi:

$$S_n = \frac{b_1(1 - q^n)}{1 - q}$$

Geometrik progressiyaning n-elementigacha bo'lgan yig'indisi ushbu formula orqali hisoblanadi.

Bu yig'indilar nafaqat matematik hisob-kitoblar, balki amaliy sohalarda, xususan, moliyaviy tahlil va iqtisodiy modellarda qo'llaniladi. Misol uchun, kredit olishda to'lovlar yoki daromadlar doimiy ravishda o'zgarishi geometrik progressiya yordamida hisoblanadi.

4. Progressiyalarning amaliy qo'llanilishi

Progressiyalar matematikadan tashqari ko'plab amaliy sohalarda qo'llaniladi. Ularning ba'zi qo'llanilish sohalari:

Мотивавий хисоб-килолар: Прогресиалар иқтисодий ва мотивавий тahlилларда кенг қo‘лланлади. Масалан, инвеститсия даромадлари, кредитлар ва фоиз ставкалари геометрик прогрессиа yordamida хисобланади.

Биология ва экология: Популятсия o‘сishi, касалликлар тарқалиши yoki ресурслар исте‘мoли каби жарайонлар геометрик yoki арифметик прогрессиалар yordamida modellashtiriladi.

Физика ва муhandислик: Прогресиалар har xil mexanik жарайонлар, электромангнит далгалар ва бoшқа физик hodisalarni modellashtirishda ishlatiladi.

Хулoса

Прогресиалар математик ва амалий тahlilda катта o‘ringa ega bo‘lgan mavzu хисобланади. Арифметик ва геометрик прогрессиалар нафақат o‘rganilgan математик тushunchalar, balki ular real dunyoda ko‘plab жарайонларни modellashtirish uchun қulay vosita хисобланади. Ushbu konseptlarning chuqur тahlili va qo‘llanilishi turli sohalarda samarali yechimlarni ta‘minlaydi. Прогресиаларни o‘rganish orqali biz hayotdagi ko‘plab voqealarni yanada samarali тahlil qilish imkoniyatiga ega bolamiz.

Адабийотлар:

1. Нишонов Туланмирза Сойибжонович. Эхтимоллар назарияси фанини ўқитишда назария билан амалиётнинг боғлиқлик тамойилидан фойдаланиш имкониятлари. Journal of innovations in pedagogy and psychology, Vol. 7, Issue 3, 2020, pp.91-96.

2. Nishonov T.S. Professional approach to teaching of elements of probability theory for students of economics. Наука и образование сегодня № 12 (59), 2020. 85-87 pp.

3. Ахлимирзаев А., Нишонов Т.С. Роль и значение практическо-профессионального подхода обучения теории вероятностей и математической статистики в подготовке будущих экономистов // Universum: психология и образование : электрон. научн. журн. 2021. 2(80). 12-17 с.

4. Sh.O. Alimov va boshqalar.. “Algebra” 9-sinf uchun darslik.-T.: “O‘qituvchi” nashriyot matbaa ijodiy uyi, 2009-yil.

5. В.С. Крамор. “Повторяем и систематизируем школьный курс алгебры и начал анализа”. - Москва: «Просвещение», 1990 г.

6. А.Г. Цыпкин, «Справочник по математике», Для средней школы. -М.: «Наука»,1981 г.

7. В.Б. Лидский, Л.В.Овсянников и другие, «Задачи по элементарной математике».- М.: «Наука», 1968 г

RATSIONAL TENGLAMALAR VA ULARNI YECHISH USULLARI

*Teshaboyeva Muslima**Andijon davlat universiteti Matematika va mexanika fakulteti**Matematika yo'nalishi 4M2-guruh talabasi*

Annotatsiya: Ratsional tenglamalar mavzusi algebra va matematik analizning muhim bo'limlaridan biridir. Ratsional tenglama — bu ratsional ifodalardan tuzilgan tenglamadir. Bunday tenglamalar ko'pincha algebraik ifodalar yordamida beriladi va ularni yechish ko'plab amaliy masalalarda qo'llaniladi. Ratsional tenglamalar, ayniqsa, murakkab algebraik ifodalar va kasrlarning xossalari bilan bog'liq bo'lgan yechimlarni izlashda katta ahamiyatga ega. Mazkur maqolada ratsional tenglamalar turkumiga kiruvchi masalalar va ularni yechish usullari ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: tenglama, ratsional tenglama, tenglama yechish, yechim,ildiz,

Ratsional tenglamalarga o'tishdan oldin tenglama haqida qisqa ta'rif va tushunchalarni berib o'tsak.

Ta'rif: $f(x) = g(x)$ ko'rinishidagi tenglik *bir noma'lumli tenglama* deyiladi, (bu yerda $f(x)$ va $g(x)$ lar x noma'lumli funksiyalar).

Agar tenglamada x ning o'rniga shunday $x = a$ qiymat qo'yilganda $f(a) = g(a)$ to'g'ri tenglik hosil bo'lsa, $x = a$ qiymat $f(x) = g(x)$ tenglamaning ildizi deyiladi.

Tenglamani yechish deganda uning barcha ildizlarini topish yoki uning ildizi mavjud emasligini isbotlash tushuniladi. Agar tenglamaning ildizlari a_1, a_2, \dots, a_n , sonlar bo'lsa, ular $\{a_1, a_2, \dots, a_n\}$ to'plam ko'rinishida, yoki

$x_1 = a_1, x_2 = a_2, \dots, x_n = a_n$ kabi yoziladi.

Tenglamaning barcha ildizlari to'plami *tenglamaning yechimi* deyiladi. Tenglamaning ildizi mavjud bo'lmagan holda "*Tenglamaning ildizi yo'q*" yoki "*Tenglamaning yechimi - bo'sh to'plam*" iborasi ishlatiladi, bu holat $x \in \emptyset$ kabi ham yozish mumkin.

1-misol. $(x + 3)(2x - 1)(x - 2) = 0$ tenglamani yeching

Bu tenglamaning o'ng tarafi nolga teng, chap tarafi esa 3 ta ifodaning ko'paytmasidan iborat. Ko'paytuvchilaridan hech bo'lmaganda bittasi nolga teng bo'lgandagina ko'paytma nolga teng bo'lganligi uchun, har bir ko'paytuvchi ifodani nolga tenglashtirib olamiz: $x + 3 = 0, 2x - 1 = 0, x - 2 = 0$. Hosil bo'lgan ushbu tenglamalardan tenglamaning ildizlari

$$x_1 = -3, \quad x_2 = \frac{1}{2}, \quad x_3 = 2$$

ekanligi kelib chiqadi.

2-misol. Ildizlari 0, -1 va $\sqrt{2}$ ga teng bo'lgan tenglama tuzing.

Turli ko'rinishdagi tenglamalar javob tariqasida berilishi mumkin. Eng sodda tenglama $x(x + 1)(x - 2) = 0$ ko'rinishida bo'lishini eslatib o'tamiz.

Bu sonlar yana quyidagi tenglamaning ham ildizi bo'la oladi:

$$(x^2 + x^3)(x - \sqrt{2})(x^2 + 3) = 0$$

Ta'rif: Agar $f(x) = g(x)$ tenglamaning barcha ildizlari $f_1(x) = g_1(x)$ tenglamaning ildizlari bo'lsa, va aksincha, $f_1(x) = g_1(x)$ tenglamaning barcha ildizlari $f(x) = g(x)$ tenglamaning ildizlari bo'lsa, ya'ni ularning yechimlari ustma-ust tushsa, bunday tenglamalar *teng kuchli tenglamalar* deyiladi.

3-misol. $3x - 6$ va $2x - 1 = 3$ tenglamalarni teng kuchliligini tekshiring.

$3x - 6 = 0$ va $2x - 1 = 3$ tenglamalar teng kuchli, chunki har birining ildizi $x = 2$ ga teng.

Yechimi bo'sh to'plam bo'lgan har qanday ikkita tenglama ham teng kuchli bo'ladi.

Teng kuchli tenglamalar quyidagicha belgilanadi: $3x - 6 = 0 \Leftrightarrow 2x - 1 = 3$

Tenglama quyidagi holatlarda o'ziga teng kuchli bo'lgan tenglamaga o'tadi:

a) Tenglamaning biror-bir hadi tenglikning bir qismidan ikkinchi qismiga qarama-qarshi ishora bilan o'tkazilganda.

Masalan, $f(x) = g(x) + t(x) \Leftrightarrow f(x) - g(x) = t(x)$

b) Tenglamaning ikkala tarafini noldan farqli songa ko'paytirilganda yoki bo'lganda.

Butun ratsional tenglamalar

Agar $f(x)$ va $g(x)$ funksiyalar butun ratsional ifodalar bilan berilgan bo'lsa, $f(x) = g(x)$ tenglama, *butun ratsional tenglama* deyiladi.

Bunday tenglamaning aniqlanish sohasi barcha haqiqiy sonlar to'plami bo'ladi.

Ta'rif. Quyidagi ko'rinishdagi tenglama

$$a_0x^n + a_1x^{n-1} + \dots + a_{n-1}x + a_n = 0, a_0 \neq 0.$$

standart ko'rinishdagi n-darajali butun ratsional tenglama deb ataladi.

Agar $a_0 = 1$ bo'lsa, $x^n + a_1x^{n-1} + \dots + a_{n-1}x + a_n = 0$ tenglama keltirilgan n -darajali butun ratsional tenglama deb ataladi. a_0, a_1, \dots, a_{n-1} –koeffitsiyentlar, a_n –ozod had deb ataladi.

Ma'lumki, n - darajali ko'phad tadan ko'p bo'lmagan ildizlarga ega bo'lishi mumkin, demak, har bir standart ko'rinishdagi n - darajali butun ratsional tenglama ham n tadan ko'p bo'lmagan ildizlarga ega bo'ladi.

Teorema: Butun koeffitsiyentli keltirilgan butun ratsional tenglamaning ildizlari butun son bo'lsa, ular ozod hadining bo'luvchilari bo'ladi.

Ko'phadni ko'phadga burchakli bo'lish usuli yordamida yechish

4-misol: $x^4 + 2x^3 = 11x^2 - 4x - 4$ tenglamani yeching.

Yechish: Avval uni standart ko'rinishga keltiramiz:

$$x^4 + 2x^3 - 11x^2 + 4x + 4 = 0$$

Bu tenglamaning butun ildizlari borligini tekshirish uchun ozod hadi 4 ning barcha bo'luvchi- larini yozib olamiz: $\pm 1, \pm 2, \pm 4$. Bu sonlarni ketma-ket tenglamaga qo'yib ko'rib, $x_1 = 1$ va $x_2 = 2$ sonlar tenglamaning ildizlari bo'lishini aniqlab olamiz. Demak, $x^4 + 2x^3 - 11x^2 + 4x + 4$ ko'phad

$(x - 1)(x - 2) = x^2 - 3x + 2$ ko'phadga qoldiqsiz bo'linadi.

$$\begin{array}{r|l}
 x^4 + 2x^3 - 11x^2 + 4x + 4 & x^2 - 3x + 2 \\
 - x^4 - 3x^3 + 2x^2 & x^2 + 5x + 2 \\
 \hline
 5x^3 - 13x^2 + 4x + 4 & \\
 - 5x^3 - 15x^2 + 10x & \\
 \hline
 2x^2 - 6x + 4 & \\
 - 2x^2 - 6x + 4 & \\
 \hline
 0 &
 \end{array}$$

Demak, tenglamani quyidagi ko'paytuvchilarga ajratish mumkin:

$(x - 1)(x - 2)(x^2 + 5x + 2) = 0$. Demak, hosil bo'lgan tenglama birinchi tenglamaga teng kuchli tenglamadir. Har bir ko'paytuvchini nolga tenglashtirib, tenglamaning ildizlarini topamiz.

Javob: $x_1 = 1, x_2 = 2, x_{3,4} = \frac{-5 \pm \sqrt{17}}{2}$.

Kasr-ratsional tenglamalar

$\frac{f(x)}{g(x)} = 0$ ko'riinishga keltirish mumkin bo'lgan tenglamalarga kasr-ratsional tenglamalar deyiladi.

$\frac{f(x)}{g(x)} = 0$ ko'rinisdagi kasr-ratsional tenglamaning aniqlanish sohasi $g(x) \neq 0$.

Ratsional tenglamalarni yechish qadamlari:

- Tenglamadagi barcha ifodalarni tenglikning chap tarafiga o'tkaziladi; Barcha ifodalar umumiy maxrajga keltiriladi;
- Tenglama $\frac{f(x)}{g(x)} = 0$ ko'rinishiga keltiriladi;
- Suratining nollari topiladi;
- Aniqlanish sohasi topiladi;

• Aniqlanish sohasini qanoatlantiruvchi suratining nollari tenglamaning ildizlari bo'ladi.

• Yoki $\frac{f(x)}{g(x)} = 0$ ratsional tenglamaning yechimini topish uchun uni quyidagi $\begin{cases} f(x) = 0 \\ g(x) \neq 0 \end{cases}$ teng kuchli sistema ko'rinishida yozib olinadi va yechiladi.

Ba'zi hollarda bir tenglamadan unga teng kuchli tenglamaga o'tishda *chet ildizlar* paydo bo'li shi mumkin, masalan, quyidagi tenglamani qaraylik,

$$\frac{x^2 + x - 2}{x - 1} = 0$$

Kasrning suratini nolga tenglashtiramiz:

$$x^2 + x - 2 = 0 \rightarrow x_1 = -2, x_2 = 1$$

Bu tenglamaning aniqlanish sohasi $x \neq 1$, ya'ni $x = 1$ qiymat berilgan tenglamaning yechimi bo'la olmaydi, demak, $x = 1$ — *chet ildiz* bo'ladi.

5-misol. Tenglamaning ildizini toping:

$$\frac{2x + 3}{x - 1} = 0$$

Yechish:

$$\begin{cases} 2x + 3 = 0 \\ x - 1 \neq 0 \end{cases} \Rightarrow \begin{cases} 2x = -3 \\ x \neq 1 \end{cases} \Rightarrow \begin{cases} x = -1,5 \\ x \neq 1 \end{cases}$$

Javob: $x = -1,5$.

6-misol. Tenglamaning ildizni toping:

$$\frac{-2x - 4}{x^2 - 4} = \frac{x + 5}{x - 2}$$

Yechish. Barcha ifodalarni tenglikdan chap tarafga o'tkazamiz va umumiy maxrajga keltiramiz.

$$\begin{aligned} \frac{2x + 4}{x^2 - 4} + \frac{x + 5}{x - 2} = 0 &\Rightarrow \frac{(x + 5)(x + 2) + 2x + 4}{x^2 - 4} = 0 \\ &\Rightarrow \frac{x^2 + 7x + 10 + 2x + 4}{x^2 - 4} = \frac{x^2 + 9x + 14}{x^2 - 4} = 0 \end{aligned}$$

Kasr-ratsional ifodaning suratini nolga tenglashtiramiz va nollarini topamiz. Viyet teoremasidan foydalanamiz:

$$x^2 + 9x + 14 = 0 \Rightarrow x = -2; x = -7.$$

Kasr-ratsional ifodaning maxrajini nolga tenglashtiramiz va nollarini topamiz. Ko'paytuvchilarga ajratish usulidan foydalansak bo'ladi:

$$x^2 - 4 = (x - 2)(x + 2) = 0 \Rightarrow x = -2; x = 2.$$

Ko'rinib turibdiki, $x = -2$ ham suratning, ham maxrajning noli. Maxraj hech qachon nol bo'la olmaydi. Shuning uchun $x = -2$ tenglamaning ildizi emas.

Demak, tenglamaning ildizi bitta $x = -7$.

Жавоб: $x = -7$.

Хулоса

Ratsional tenglamalar ikki yoki undan ortiq algebraik ifodalarni o'z ichiga olgan tenglamalardir. Ularni yechish uchun, ko'pincha umumiy qoidalar, masalan, tenglamani yaxlitlash, ko'paytirish va tenglama qismlarini oddiylashtirish metodlari qo'llaniladi. Ratsional tenglamalarni to'g'ri yechish uchun, ular ustida tahlil qilish va yechimlar uchun ehtiyotkorlik bilan tekshiruvlar o'tkazish zarur. Bu turdagi tenglamalar matematikaning ko'plab sohalarida, xususan, analitik geometriya va algebra sohalarida keng qo'llaniladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Nishonov T.S. Professional approach to teaching of elements of probability theory for students of economics. Наука и образование сегодня № 12 (59), 2020. 85-87 pp.
2. Ахлимирзаев А., Нишонов Т.С. Роль и значение практическо-профессионального подхода обучения теории вероятностей и математической статистики в подготовке будущих экономистов // Universum: психология и образование : электрон. научн. журн. 2021. 2(80). 12-17 с.
3. Sh.O. Alimov va boshqalar.. "Algebra" 9-sinf uchun darslik.-T.: "O'qituvchi" nashriyot matbaa ijodiy uyi, 2009-yil.
4. Adilbek Zaitov va boshqalar.. 10-sinf Algebra va analiz asoslari [Matn]: darslik / – Toshkent: Respublika ta'lim markazi, 2022-yil. – 192 b.
5. Jo'rayev T., Sadullayev A., Hudoyberganov G., Mansurov A., Vorisov A. Oliy matematika asoslari. 1-qism. O'zbekiston, Toshkent, 1995.

RATSIONAL TENGLAMALAR YECHISHDA SIMMETRIK TENGLAMALAR

Yo'ldashev Ziyoydin

Andijon davlat universiteti Matematika va mexanika fakulteti
Matematika yo'nalishi 4M3-guruh talabasi

Annotatsiya: Ratsional tenglamalar mavzusi algebra va matematik analizning muhim bo'limlaridan biridir. Ratsional tenglama — bu ratsional ifodalardan tuzilgan tenglamadir. Ratsional tenglamalarni yechishda simmetrik tenglamalar ham muhim ahamiyat kasb etadi. Ular orqali murakkab ratsional tenglamalar qulay usul bilan yechiladi. Ushbu maqolada ratsional tenglamalar turkumiga kiruvchi simmetrik tenglamalar ularni turlari va yechish usullari ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: tenglama, ratsional tenglama, simmetrik tenglama, yechish, yechim, ildiz.

Ratsional tenglamalar haqida qisqacha

Butun ratsional tenglamalar

Agar $f(x)$ va $g(x)$ funksiyalar butun ratsional ifodalar bilan berilgan bo'lsa,

$$f(x) = g(x)$$

tenglama, *butun ratsional tenglama* deyiladi.

Bunday tenglamaning aniqlanish sohasi barcha haqiqiy sonlar to'plami bo'ladi.

Ta'rif. Quyidagi ko'rinishdagi tenglama

$$a_0x^n + a_1x^{n-1} + \dots + a_{n-1}x + a_n = 0, a_0 \neq 0.$$

standart ko'rinishdagi n-darajali butun ratsional tenglama deb ataladi.

Agar $a_0 = 1$ bo'lsa, $x^n + a_1x^{n-1} + \dots + a_{n-1}x + a_n = 0$ tenglama keltirilgan n -darajali butun ratsional tenglama deb ataladi.

a_0, a_1, \dots, a_{n-1} —koeffitsiyentlar,

a_n —ozod had deb ataladi.

Ma'lumki, n - darajali ko'phad tadan ko'p bo'lmagan ildizlarga ega bo'lishi mumkin, demak, har bir standart ko'rinishidagi n - darajali butun ratsional tenglama ham n tadan ko'p bo'lmagan ildizlarga ega bo'ladi.

Teorema: Butun koeffitsiyentli keltirilgan butun ratsional tenglamaning ildizlari butun son bo'lsa, ular ozod hadining bo'luvchilari bo'ladi.

Simmetrik tenglamalar va ularga keltiriladigan tenglamalar

Ushbu $ax^n + bx^{n-1} + cx^{n-2} + \dots + cx^2 + bx + a = 0$ ko'rinishdagi butun ratsional tenglama *simmetrik tenglama* deyiladi.

Bunda tenglamaning boshidan va oxiridan bir xil uzoqlikda yotgan hadlarining koeffitsiyentlari bir-biriga teng bo'ladi. Simmetrik tenglamaning ildizlaridan hech biri nolga teng emasligini ko'rish oson.

Agar $x = 0$ tenglamaning ildizi bo'lsa, u holda biz $a = 0$ ga ega bo'lamiz va tenglamaning darajasi pastroq bo'ladi.

1.Oldin juft ($n = 2k$) darajali simmetrik tenglamani ko'rib chiqamiz.

Tenglamaning har ikkala qismini x^k ga bo'lib, hadlarni guruhlash natijasida uni quyidagi ko'rinishga keltiramiz:

$$a \left(x^k + \frac{1}{x^k} \right) + b \left(x^{k-1} + \frac{1}{x^{k-1}} \right) + \dots + b \left(x + \frac{1}{x} \right) + a = 0$$

Agar bu tenglamada $x + \frac{1}{x} = t$ deb belgilash kiritsak, ketma-ket quyidagilarni topamiz:

$$x^2 + \frac{1}{x^2} = t^2 - 2, x^3 + \frac{1}{x^3} = t^3 - 3t; \dots$$

Bu ifodalarni yuqoridagi tenglamaga qo'yib, t ga nisbatan k darajali tenglamani hosil qilamiz. x ning qiymatlarini esa $x^2 - tx + 1 = 0$ tenglamadan topamiz.

1-misol. $x^4 - 5x^3 + 8x^2 - 5x + 1 = 0$ tenglamani yeching.

Yechish. Berilgan tenglama 4-darajali qaytma (simmetrik) tenglama. Uni yechish uchun tenglamaning ikkala tomonini $x^2 \neq 0$ ga bo'lamiz va unga teng kuchli tenglamani hosil qilamiz:

$$x^2 - 5x + 8 - \frac{5}{x} + \frac{1}{x^2} = 0$$

Qo'shiluvchilarni guruhlab, tenglamani quyidagi ko'rinishga keltirib olamiz

$$x^2 + \frac{1}{x^2} - 5 \left(x + \frac{1}{x} \right) + 8 = 0$$

$$x + \frac{1}{x} = t, x^2 + \frac{1}{x^2} = t^2 - 2$$

belgilash kiritib, $t^2 - 5t + 6 = 0$ tenglamani hosil qilamiz. Bu tenglamani yechimlari $t_1 = 2$ va $t_2 = 3$. Bu qiymatlarni belgilashga qayta qo'yib, berilgan tenglamaning yechimi

$$x + \frac{1}{x} = 2, x + \frac{1}{x} = 3$$

tenglamalarning yechimi birlashmasiga teng bo'lishini ko'ramiz.

Bu tenglamalarni yechib,

$$x_1 = 1, x_2 = \frac{3 + \sqrt{5}}{2}, x_3 = \frac{3 - \sqrt{5}}{2}$$

ekanligini topamiz.

Javob: $x_1 = 1, x_2 = \frac{3+\sqrt{5}}{2}, x_3 = \frac{3-\sqrt{5}}{2}$

2. Toq darajali ($n = 2k + 1$) simmetrik tenglamani juft darajali simmetrik tenglamani yechoshga keltiriladi

Ushbu $ax^{2k+1} + bx^{2k} + cx^{2k-1} + \dots + cx^2 + bx + a = 0$ tenglamaning $x = -1$ ildizga ega ekanligini ko'rish qiyin emas. Demak, bu tenglamaning chap qismi $x + 1$ ga bo'linadi. Tenglamaning ikkala qismini har biri $x + 1$ ga bo'linadigan qo'shiluvchilar yig'indisi ko'rinishida ifodalaymiz:

$$a(x^{2k+1} + 1) + bx(x^{2k-1} + 1) + cx^2(x^{2k-3} + 1) + \dots + x^k(x + 1) = 0$$

$$(x + 1)(ax^{2k} + b_1x^{2k-1} + \dots + b_1x + a) = 0$$

Shunday qilib, masala juft ko'rsatkichli ushbu $ax^{2k} + b_1x^{2k-1} + \dots + b_1x + a$ simmetrik tenglamani yechishga keltiriladi.

Simmetrik tenglamaning yana o'ziga xos bir xususiyati bor. Agar $x = x_0$ soni simmetrik tenglamaning ildizi bo'lsa, u holda $x = \frac{1}{x_0}$ soni ham shu tenglamaning ildizi bo'ladi.

2-misol. $x^7 + 2x^6 - 5x^5 - 13x^4 - 13x^3 - 5x^2 + 2x + 1 = 0$ tenglamaning ildizlarini toping

Yechish. Toq darajali simmetrik tenglamaning ildizi $x = -1$ bo'ladi. Tenglamaning chap tarafidagi ifodani $x + 1$ ikkihadga bo'lib, quyidagi ko'paytuvchilarga ajratmiz:

$$(x + 1)(x^6 + x^5 - 6x^4 - 7x^3 - 6x^2 + x + 1) = 0$$

Har birini nolga tenglashtiramiz $x + 1 = 0 \Rightarrow x_1 = -1$ yoki

$x^6 + x^5 - 6x^4 - 7x^3 - 6x^2 + x + 1 = 0$ bu tenglamada $x \neq 0$ bo'lgani uchun, tenglamaning ikkala tarafini $x^3 \neq 0$ ga bo'lish mumkin:

$$x^3 + x^2 - 6x - 7 + \frac{6}{x} + \frac{1}{x^2} + \frac{1}{x^3} = 0;$$

$$\left(x^3 + \frac{1}{x^3}\right) + \left(x^2 + \frac{1}{x^2}\right) - 6\left(x + \frac{1}{x}\right) - 7 = 0$$

Belgilash kiritib olamiz:

$$x + \frac{1}{x} = t, x^2 + \frac{1}{x^2} = t^2 - 2, x^3 + \frac{1}{x^3} = t^3 - 3t$$

va quyidagilarni hosil qilamiz:

$$t^3 + t^2 - 9t - 9 = 0$$

$$(t + 1)(t - 3)(t + 3) = 0.$$

Bundan, $t = -1, t = 3$ yoki $t = -3$.

$$1) t = -1 \Rightarrow x + \frac{1}{x} = -1 \Rightarrow \frac{x^2 + x + 1}{x} = 0 \Rightarrow x^2 + x + 1 = 0 \Rightarrow$$

$$\Rightarrow \text{haqiqiy ildizi yo'q}$$

$$2) t = 3 \Rightarrow x + \frac{1}{x} = 3 \Rightarrow \frac{x^2 - 3x + 1}{x} = 0 \Rightarrow x_{2,3} = \frac{3 \pm \sqrt{5}}{2}$$
$$3) t = -3 \Rightarrow x + \frac{1}{x} = -3 \Rightarrow \frac{x^2 + 3x + 1}{x} = 0 \Rightarrow x_{4,5} = \frac{-3 \pm \sqrt{5}}{2}$$

Javob:

$$x_1 = -1, x_{2,3} = \frac{3 \pm \sqrt{5}}{2}, x_{4,5} = \frac{-3 \pm \sqrt{5}}{2}.$$

3. Ushbu $ax^4 + bx^3 + cx^2 + dx + l = 0$, ($l \neq 0$) tenglama simmetrik tenglama bo'lishi uchun uning koeffitsiyentlari quyidagicha bog'langan bo'lishi kerak: $d = \lambda b, l = \lambda^2 a$

4. Quyidagi $(x + a)(x + b)(x + c)(x + d) = m$ tenglamani simmetrik tenglamaga keltirish uchun uning koeffitsiyentlari orasida $a + b = c + d$ (yoki $a + c = b + d$, yoki $a + d = b + c$) tenglik bajarilishi kerak. Bunda avval

$(x + a)(x + b)$ va $(x + c)(x + d)$ lar ko'paytirilib, keyin almashtirish bajariladi.

Xulosa

Ratsional tenglamalar ikki yoki undan ortiq algebraik ifodalarni o'z ichiga olgan tenglamalardir. Simmetrik tenglamalar ham ratsional tenglamani bir turi hisoblanib ularni yechish uchun, ko'pincha umumiy qoidalar, masalan, belgilash usuli qo'llaniladi. Ratsional tenglamalarni to'g'ri yechish uchun, ular ustida tahlil qilish va yechimlar uchun ehtiyotkorlik bilan tekshiruvlar o'tkazish zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Nishonov T.S. Professional approach to teaching of elements of probability theory for students of economics. Наука и образование сегодня № 12 (59), 2020. 85-87 pp.

2. Ахлимирзаев А., Нишонов Т.С. Роль и значение практическо-профессионального подхода обучения теории вероятностей и математической статистики в подготовке будущих экономистов // Universum: психология и образование : электрон. научн. журн. 2021. 2(80). 12-17 с.

3. Sh.O. Alimov va boshqalar.. "Algebra" 9-sinf uchun darslik.-T.: "O'qituvchi" nashriyot matbaa ijodiy uyi, 2009-yil.

4. Adilbek Zaitov va boshqalar.. 10-sinf Algebra va analiz asoslari [Matn]: darslik / – Toshkent: Respublika ta'lim markazi, 2022-yil. – 192 b.

5. Jo'rayev T., Sadullayev A., Hudoyberganov G., Mansurov A., Vorisov A. Oliy matematika asoslari. 1-qism. O'zbekiston, Toshkent, 1995.

PSIXOTRENING HAQIDA UMUMIY TUSHUNCHA: JISMONIY TARBIYA FANI DARSLARIDA PSIXOTRENINGLARNI QO‘LLASH TEXNOLOGIYASI

Hamroyev Azamat Akmalovich

*Buxoro Olimpiya va Paralimpiya sport turlariga tayyorlash markazi
sport psixologi*

Annotatsiya: Maqolada psixotrening haqida umumiy tushuncha va jismoniy tarbiya fani darslarida psixotreninglarni qo‘llash texnologiyasi borasida to‘liq ma’lumotlar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: psixotrening, stress, texnologiya, diagnostika, shaxslararo muloqot, sportchilarni psixologik tayyorlash, metodika.

Psixologik trening - psixologik amaliyotning keng tarqalgan shakllaridan biri bo‘lib kelmoqda. Trening o‘zining o‘sishi bilan psixologiyaning amaliy sohasida o‘zgacha o‘rin tutadi. Har yili yangidan-yangi ilmiy yo‘nalishlarni, trening maktablari esa o‘zlarining o‘zgacha texnikaviy modellari va mashg‘ulotlarini ko‘rsatishadi.

Trening termini (ingliz tilidan kelib chiqqan bo‘lib, train, training) ko‘plab ma’nolarga ya’ni: o‘qitmoq, tarbiyalamoq, (trenirovka) mashq qilmoq kabi ma’nolarga ega. Xuddi shunday ko‘p ma’nolilik treningning ilmiy talqiniga ham mos keladi.

Ijtimoiy va tashkiliy psixologiya kontekstida trening muammosiga e’tibor bergan ko‘plab mualliflar, trening jarayonini tashkil etishning turli metodik uslublariga o‘zlarining bor diqqatlarini qo‘yidagicha jamlaganlar:

- trening guruhlarida o‘tkaziladigan turli metodikalarini tasvirlaydilar;
- mashq va priyomlarni qo‘llashning detallariga tushuncha beradilar;

Treningning u yoki bu psixologik maktabiga xos mashqlar, texnikalar faqatgina vosita bo‘lib qolaveradi, chunki uning natijaviyligi bu vositanining sifatiga emas balki uni qo‘llovchi shaxsning mahoratiga bog‘liq.”

Yuqorida ko‘rsatilgan izlanishlar sikli shuni ko‘rsatadiki, trening kursining samaradorligini aniqlashda uning nazariy tizimining ustivorligi va uning doirasida hosil bo‘lgan amaliy metodikalar haqida so‘z ketmaydi, balki shu treningni olib boruvchi shaxslar va ularning noyob malakalari haqida aytib o‘tiladi. Shunday qilib trening mashg‘ulotlarni olib borishda birinchi o‘rinda: to‘g‘ri nazariya, vositalar yoki trenerning shaxsiy tayorgarligi, trening natijasi, diagnostikasi, hal qiluvchi masalalar shulardan kelib chiqadi. Psixologik trening bo‘yicha barcha kitob mualliflarining, trening ishida samaradorliklar bo‘yicha tafovutlari mavjud. Hozirgi kunda psixologiyada trening tushunchasiga oid ko‘p tarqalgan ta’riflar keltiriladi. Rus

olimpi L.A. Petrovskaya psixologik treningni "shaxslararo muloqot sohasida bilim, ko'nikma, malaka, ijtimoiy ustanovka va tajribalarni rivojlantirishga qaratilgan ta'sir etish vositasi", "muloqotda kompetentlikni rivojlantirish", "psixologik ta'sir etish vositalari" sifatida qaraydi. G.A. Kovalev bo'yicha psixologik trening – majmuaviy ijtimoiy didaktik yo'nalish sifatida faol ijtimoiy-psixologik o'qitish metodlaridir. B.D. Parigin guruhiy maslahat metodlarini umuman jamiyat va hayotda muloqot qilish ko'nikmalariga o'rgatuvchi faol o'qitish uslubi sifatida tavsiflaydi.

Yuqoridagilaridan kelib chiqqan holda psixologik treningga quyidagicha ta'rif berishimiz mumkin - trening ko'p funksiyali bo'lib, u inson fenomenlari psixologiyasini maqsadli o'zgaritish yuzasidan guruh va tashkilotlar, insonning professional va shaxsiy muvofiqligini maqsadli o'zgartirishga qaratilgan metoddir.

Trening mashg'ulotining asosiy maqsadi: shaxsni psixologik (ruhiy) ozod qilish, bunda tabiiy erkinlikni his etishni, o'z guruhida va undan tashqarida o'zaro munosabat va aloqa o'rnata olishdan iborat. Demak-ki, trening – shaxsda mavjud bo'lgan yoki vujudga keladigan muammolarni hal qilish uchun zarur bo'lgan bilim, ko'nikma malakalarni hosil qilish maqsadida bahs-munozara, o'yin va mashqlar orqali o'tkaziladigan mashg'ulotlar yig'indisidir. Shuni alohida qayd etish lozimki, trening jarayonida muammolarni yechish ham, bu boradagi bilim, ko'nikma va malakalarni hosil qilish ham trenerdan shaxs psixologiyasi, shaxs individual psixologiyasi bilan ishlashni taqozo etadi. Shuning uchun psixologiyada bunday treninglar psixologik treninglar deb ataladi.

Masalan ko'plab oliygohlarda ijtimoiy faoliyatning u yoki bu sohalari uchun mutaxassislar tayyorlanadi. Lekin ularning kelgusi faoliyatlarida odamlar bilan murakkab munosabatlarga o'rgatish, o'zini va o'zga shaxslar hamda yahlit ijtimoiy guruhlar faoliyatlarini boshqarishga mashqlantirish va u shaxsni ijtimoiy muloqotga oldindan maqsadli tarzda tayyorlash demaqdir. Treningning tabiiy hamda maxsus tarzda uyushtirilgan turlari haqida mulohaza yuritish mumkin. Birinchi holatni biz hattoki, kichik yoshli bolalarda ham kuzata olamiz. Masalan, yosh bolalarning turli ijtimoiy rollar doirasida o'zaro har hil rolli va syujetli o'inlari bilan mashg'ul bo'lishlari, unda turli rollar (o'qituvchi, tarbiyachi, haydovchi, boshliq va hokazo)ni improvizatsiya qilishlari, tabiiyki ulardagi nafaqat dunyoqarashni, balki bo'lg'usi ijtimoi faoliyatlarga tayyor bo'lishlarida katta ahamiyat kasb etadi. Maxsus tarzda uyushtirilgan treningda alohida vaziyatlar va har bir o'yin ishtirokchisining shaxsiy ehtiyojlari, ularda individual shakllanishi zarur bo'lgan sifatlar katta rol o'ynaydi va shaxs ataylab u yoki bu ijtimoiy psixologik vaziyatga o'zgalar tomonidan qo'yiladi.

Shuningdek trening malakalarni orttirishga qaratilgan tadbirlar va tayyorgarlik majmuasidir. Ya'ni uning asosiy vazifalari quyidagilar bilan izohlanadi:

- shaxsning ijtimoiy psixologik bilimdonligini oshirish;

- muloqot (muomala) faoliyatida namoyon bo'ladigan yaqqol bilimlar malakalar va ko'nikmalarni hosil qilish;

- samarali muloqotda namoyon bo'ladigan zarur sifatlar, ijtimoiy ustanovkalarni shakllantirish;

- noadekvatlarini korreksiya qilish;

- o'zini-o'zi to'laroq anglash, bilish;

- hamda o'zgalarga nisbatan to'g'ri munosabatlarini shakllantirish qobiliyatini o'stirish.

Psixologik treningga murojaat etuvchilar guruxi: bolalar, kattalar guruxlari. Hozirgi davrda odamlar orasida ruhiy zo'riqish holatlari avvalgi paytlardagiga nisbatan ancha ko'p uchrayotganligi va buning natijasida ko'pgina hayotiy muammolar vujudga kelayotganligi ko'pchilikni, ayniqsa keng jamoatchilikni, shuningdek aynan psixolog mutaxassislarni ham tashvishga solayotganligi bejiz emas. Aytish mumkinki bunday holatlar turli darajadagi zo'riqishlar natijasida vujudga kelmoqda.

Ayni kunlarda asabiylashish holatlari kuzatilayotgan quyidagi kishilar guruxini alohida ta'kidlab o'tish joiz:

I. Bolalar orasida:

1. Bog'cha bolalari orasida kuzatiladigan asabiylik holatlari;

2. Maktab o'quvchilari orasida kuzatiladigan asabiylik holatlari;

3. O'smirlar orasida kuzatiladigan asabiylik holatlari;

II. Kattalar orasida:

1. Ish joylarida (rahbar yoki xodimlar orasida) kuzatiladigan asabiylik holatlari;

2. Oilada (er-xotin, qaynona-kelin, ota-ona va farzandlar orasida) kuzatiladigan asabiylik holatlari;

3. Keksalar orasida (psixologik o'zgarishlar natijasida) kuzatiladigan asabiylik holatlari.

Mazkur sanab o'tilgan muammolarni hal qilishda psixologik trening deb ataluvchi o'yin va mashqlar seriyasidan iborat mashg'ulotlar yordam beradi.

Yuqoridagi guruhlar o'zi istab, o'z xohishi bilan treningga keladi va trenerning ko'rsatmalariga amal qiladi. Lekin ba'zi guruhlar bo'ladiki, bu guruh a'zolari treningga istamasdan, xohlamasdan keladi misol: voyaga yetmagan bolalar o'rtasidagi jinoyatchilar, bezorilar, o'g'rilar. Lekin guruh a'zolarining istagidan qat'iy nazar treningning vazifasi ularning muammolarini hal etishda zarur ko'nikmalarni shakllantirishga qaratilgan bo'ladi.

Qadimgi manbalarda ham trening elementlariga oid fikrlar mavjud bo'lib, guruhiy terapiya elementlari vujudga kelgan. Jamoaviy marosim va tadbirlar

o'tkazish orqali bir kishidan ko'ra guruhga ta'sir o'tkazish samarali bo'lishini tabiblik va shamanlik amaliyotlarida keng tarqalgan. Chunki ular shu tadbirlar orqali guruhdagi emotsional kayfiyatni ko'tarinki bo'lishi, ishtirokchilarga yuqishi va shu orqali insonlarni davolashda yaxshi natijalarga erishganlar.

Bugungi kunda hamma uchun umumiy qabul qilingan "trening" tushunchasi yo'q, shuning uchun bo'lsa kerak, psixologik amaliyotda uning ma'nosini anglatuvchi ko'plab metod, shakl va uni anglatib beruvchi manba hamda vositalar kabi tushunchalar kelib chiqadi.

Trening turlari

Treninglarni qanday maqsadda tashkil etilishiga qarab, asosan quyidagi turlarga bo'lish mumkin:

1. Turli xil psixologik muammolardan chiqib ketish uchun ko'nikmalar hosil qilish maqsadidagi treninglar;

2. Davolash maqsadida tashkil etiladigan treninglar;

3. Boshqaruv malakalarini shakllantiruvchi treninglar.

Birinchi turdagi treningni yana bir necha xilga ajratish mumkin:

- Shaxslararo muloqotchanlik ko'nikmalarini hosil qilish uchun tashkil etiladigan treninglar.

- Shaxsni barkamollashtirishga qaratilgan treninglar.

- Emotsional hissiy zo'riqlashlarni bartaraf etish bilan bog'lik treninglar.

- Tanani yangi xatti-harakatlarga o'rgatish uchun treninglar.

Bularni har birini alohida qarab chiqiladigan bo'lsa, quyidagi ma'lumotlarni berish mumkin bo'ladi.

Tanani yangi xatti-harakatlarga o'rgatish uchun treninglar.

Ilmiylashtirish. Shunday o'quvchilarni uchratish mumkinki, ularning o'quvchilar orasida, hatto yaqinlari orasida ham shaxslararo munosabatga kirishishi qiyin. Bunday o'quvchilar gapirayotganida ham yuzida juda kam mimikalarni kuzatish mumkin. Ularning atrofdagilar, ayniqsa ko'pchilik oldida erkin harakat qilishga tortinayotganligini, hatto gapirishga ham botinmayotganligini sezish qiyin emas. Aytish mumkinki, bunday o'quvchilar harakat qilishga ham qo'rqadi, negaki ularda "Nojo'ya harakat qilib, kulguga qolmay yoki ularda o'zim haqimda salbiy fikr uyg'otib qo'ymay", degan o'ziga nisbatan past baho berish ustunligi mavjud. Ular o'quvchilar orasida o'zini haddan tashqari qandaydir ramka ichida sezadi. Bunday muammoning asl sababi — ularning ichki dunyosida qandaydir muammo mavjud. Baxtlilar ichida baxtsizligini (otasi, onasi, yaqin do'stlari yo'qligini) o'zi bilgani holda, bu holatini atrofdagilariga bildirmaslikka harakat qilish. O'zining muammosini boshqalardan yashirib yurishi – bu holatlarni bartaraf etishda treninglar

muhim o‘rin tutadi. Chunki yuqorida sanab o‘tilgan holat bilan bog‘liq muammolar o‘quvchi shaxsning tana harakatlarida namoyon bo‘ladi.

Mashq qilish usuli haqida tushuncha

Mashq qilish usuli — trening jarayonida ishtirokchilarni faollashtirish, kayfiyatini ko‘tarish, ular orasida o‘zaro ishonch va samimiylik muhitini yaratish maqsadida pisixogimnastik mashqlar usulini qo‘llash taktikasidir.

Mashq qilish usuli — zarur malaka va ko‘nikma hosil qilish hamda ularni mustahkamlash uchun nazariy, amaliy bilimlarni ongli ravishda, ko‘p martalab takrorlashdan iborat.

Bu usulning vazifasi — olingan bilimlardan ko‘nikma va malakalarga utishdir. Shuningdek, mashq qilish trening davomida olingan ma‘lumotlarni ishtirokchilar qanday o‘zlashtirayotganligini ham ko‘rsatadi. O‘qituvchidan talab qilinadigan xususiyatlar, ya‘ni mashqni tanlashda o‘qituvchi nimalarni hisobga olishi zarurligi haqida gan ketganda quyidagilarni ta‘kidlab ko‘rsatish joiz.

O‘qituvchi birinchi navbatda mashqni o‘tkazish natijasida guruxda qanday holat vujudga kelishini hisobga olishi lozim. Bunda asosan 2 xil holat kuzatiladi.

- a) butun guruxning holati o‘zgaradi.
- b) guruxdagi har bir ishtirokchining holati o‘zgaradi.

Ikkinchi navbatda o‘qituvchi gurux taraqqiyotning qaysi bosqichida turganligini hisobga olishi kerak. Buni bilishning zaruriyati shundaki, gurux ishtirokchilari qanchalik jipslashgan bo‘lsa, o‘zini erkin sezsa, o‘tkazilayotgan mashqlar tahlikasiz o‘tadi. Ayniqsa gurux a‘zolarining tana kontaktlariga oid bo‘lgan va ko‘zni yumib bajariladigan mashqlarga e‘tibor qaratish kerak, chunki bunday mashqlarning bevaqt o‘tkazilishi guruxda zo‘rikish yoki norozilik holatlarini keltirib chiqarishi mumkin.

O‘qituvchi hisobga olishi zarur bo‘lgan uchinchi holat kun vaqtini hisobga olishdir, kun boshlanishida guruxda ishchanlik, ahillik, o‘zaro ishonch muhitini yaratuvchi mashqlarni o‘tkazish maqsadga muvofikdir. Bu — guruxning ayni paytdagi ishga taalluqli bo‘lmagan tashvish va muammolarini unutishga olib keladi, gurux a‘zolari "hozir va shu yerda" degan sharoitni sezishadi. Bundan tashqari, butun diqqat-e‘tiborini va aqliy faoliyatini safarbar etishiga imkon tuhiladi. Kunning ikkinchi yarmida esa charchoqni tarqatadigan, hayajonli his-tuyg‘ularni yumshatishga olib keladigan mashqlarni o‘tkazish tavsiya etiladi. "Tushgacha ochlikka qarshi, tushdan sung uyquga qarshi kurashish kerak" — bu har qaysi o‘qituvchining shiori bo‘lishi kerak.

Yo‘riqnoma.

Mashqda eng asosiy samaradorlikni ta‘minlovchi qism yo‘riqnoma deyiladi. Mashqning samaradorligi yo‘riqnomaning aniq, puxta, oydin va ixchamligiga bog‘lik bo‘lib, u o‘zida yetarli darajada zarur axborotlarni ifodaetishi kerak. Yo‘riqnomani

ortiqcha tafsilotlar va tushuntirishlar bilan to'ldirmaslik kerak. U qanchalik aniq, qisqa, tushunarli bo'lsa, mashq shunchalik samarali o'tadi va kutilgan natijani beradi. O'qituvchining yo'riqnomani tushuntirish uchun sarflagan vaqti mashqni bajarishga ketgan vaqtga nisbatan kamroq vaqtni olsa, bunday yo'riqnomani risoladagidek yo'riqnoma deyish mumkin. O'qituvchi yo'riqnomani tushuntirish davomida har bir ishtirokchi bilan ko'z orqali kontakt o'rnatishi kerak. Bu esa ishtirokchilarning e'tiborini oshirish, diqqatini jalb etish va ularni yaxshiroq tushunishga olib keladi. O'qituvchi yo'riqnomaning tushunarliliigi yoki tushunmaganlik holati bo'lganligini so'rash shart.

Yo'riqnoma hamma uchun tushunarli bo'lganligini va ishtirokchilar nima qilishni bilib olganligiga ishonch xosil qilgandan keyingina boshlovchi mashqni bajarishga kirishishi mumkin. Agar mashqni bajarish jarayonida yo'riqnomani kimdir yaxshi tushunmagan bo'lsa, u xolda mashqni bajarishni to'xtatish va yo'l qo'yilgan xatoni tuzatish lozim buladi.

O'qituvchining o'zi mashq bajarishda qatnashishi kerakmi? degan savolga javob izlanadigan bo'lsa, aytish mumkinki, bu savolga javob aniq emas. Bu borada faqat ba'zi bir ko'rsatmalarni ta'kiddab o'tish mumkin.

- O'qituvchi kunning 1-yarmida o'tkaziladigan qisqa psixogimnastik mashqlarda imkoniyatiga qarab ishtirok etishi kerak, ayniqsa kun boshida. Buni xatto qoida sifatida qabul qilish ham mumkin. Imkoniyat deganda esa bitta odam o'qituvchi bo'lib ishlash qiyin, har doim yordamchi o'qituvchi bo'lishi kerakligi nazarda tutiladi.

- Ishtirokchilarning toq yoki juft soni talab qilinadigan mashqlarda guruhni to'ldirish uchun qatnashishi mumkin. Lekin, bu o'qituvchi shunday holatdagi barcha mashqlarda albatta qatnashishi shart degani emas. Lekin o'qituvchi mashq jarayonida guruhni tartibga solib turishi kerak.

- Agar o'qituvchidan mashqni nazorat qilib turish talab etilsa, u mashq bajarishda qatnashmaydi. Ayniqsa ko'zni yumib bajariladigan mashqlarda.

Mashqni to'xtatish va muhokama qilish.

Treninglar davomida qo'llaniladigan mashqlar ishtirokchilar uchun qiziqarli va g'ayri oddiy bo'lganligi uchun odatda ko'pchilik ularning uzoqroq davom ettirilishini istaydi. Lekin bu o'qituvchining rejasi buzilishiga va trening samarasining pasayishiga olibkelishim mumkin. Shuning uchun o'qituvchi har bir mashqni vaqtida to'xtatish va muhokama qilish texnikasini puxta egallashi zarur.

Mantiqiy yakunga ega bo'lgan mashqlar ham mavjud. Bunday mashqlar jumlasiga "Buzuq telefon" nomi bilan keng tarqalgan mashq kiradi. Bu mashq ma'lumot oxirgi ishtirokchiga yetib borganda yakunlanadi. Boshlovchi ba'zan mashq tugashining shartlarini oldindan aytib qo'yadi. Masalan, agar guruh ishtirokchilaridan

birortasi gapirib yuborsa, bunday sharoitda mashq to'xtatiladi. Boshlovchi tanlashi mumkin bo'lgan yo'llardan yana biri, mashqni oldindan aytib berishdir. Bunda boshlovchi vaqtni kuzatib boradi va uning tugashini guruhga ma'lum qiladi. Lekin ko'pincha mashqni o'tkazishning chegarasini oldindan aniqlab bo'lmaydi, bunda asosiy e'tibor guruh a'zolari qanday sezishi, ularning bu ishga qo'shilganligi va qiziqqanlik darajasini hisobga olishga qaratiladi.

Umumiy qoida shunday: mashqdan qoniqish yuqori darajaga yetganda, uni yakunlash kerak. Diagnostikani amalga oshirish va guruh ishtirokchilarining holatidagi o'zgarishlarni diqqat bilan kuzatayotgan boshlovchi ana shunday daqiqani payqab olishi kerak. Bu daqiqa shundan iboratki, bir tomondan mashq maqsadi uchun va uning muhokamasi uchun yetarli materiallar yig'iladi, boshqa tomondan esa guruhning ko'pgina ishtirokchilari mashqni bajarishni davom ettirish niyatida bo'lib va uni tugatishga roziligini izhor etadilar.

Umumiy qoida shunday: mashq qanchalik ko'p va mazmunli axborot olishga yo'naltirilgan bo'lsa, uning muhokamasiga ham shuncha ko'p vaqt sarflanadi.

Agar mashqlarning maqsadi guruh a'zolari holatidagi o'zgarishlarni bilishga qaratilgan bo'lsa, unda muhokamada "Siz o'zingizni qanday his qilyapsiz? "Hozir kayfiyatingiz qanday?" kabi qisqa savollar beriladi.

Ba'zan bir xildagi "yaxshi", "tetikman", "me'yorda" kabi javoblar bilan chegaralaniladi. Ba'zi hollarda ishtirokchilarning aniq bir holatini ko'rgan boshlovchi ham ularga gan qotadi: "Siz hushvaqtsiz endi keyingi murakkab ishlarga ham o'tish mumkin", "Men ko'ryapmanki hamma tabassum qilayapti, menimcha kayfiyatlar yaxshi, ishni davom ettirish mumkin" va h.k.

Boshlovchi mashq jarayonida quyidagilarni ham kuzatib borishi lozim: ishtirokchilarda qiyinchilik tug'ilayaptimi (agar qiyinchiliklar bo'lsa, u qanday mazmunga ega), ishtirokchilarning holati qanday o'zgarayapti, ular nimaga erishayapti va nimaga erisha olmayapti. Bunday kuzatishlar esa mashqlar tugagandan keyingi beriladigan savollar xarakterini belgilaydi.

Adabiyotlar:

1. Z.G Gapparov. "Sport psixologiyasi". Darslik. – Toshkent, OOO "Mexridaryo", 2011.
2. X.Tulenova, P.Xo'jaev, M.Xo'jaeva, H.Meliev "Jismoniy tarbiya nazariyasi va metodikasi"– T.: Iqtisod-moliya nashriyoti, 2012 270 b.
3. Z.G Gapparov. "Futbolchilarni psixologik tayyorlash"– T.: "Futbol" (darslik) R.A.Akramov um.tax.os. TDJTI.
4. X.F.Rashidov, A.A.Zokirov, O.U.Avlaev "Rahbarlik psixologiya" Toshkent.2008 O'MKHTTKMO va UQTI. Uslubiy qo'llanma 68 b.

5. E.E.G'oziev "Psixologiya" darslik –T. Noshir nashriyoti 2010 357.b
6. E.E.G'oziev "Ontogenez psixologiyasi" darslik –T. Noshir nashriyoti 2010 267.b
7. Mamatov M.M. Sport psixologiyasi kursidan ma'ruza mavzulari va uning matni. T.: Universitet. 1999.
8. F.Xo'jaev; Futbol o'quv qo'llanma-T: Respublika ta'lim markazi. 2010.127 b.
9. Ilin Ye.P. Psixologiya sporta. M.; 2009 г .
10. Gogunov Ye.N., Martyanov B.I. Psixologiya fizicheskogo vospitaniya i sporta. M; 2000.

ПОНЯТИЕ ТОВАРНОГО ЗНАКА И ЗНАКА ОБСЛУЖИВАНИЯ, ИХ СУТЬ.

Автор: Шакуров Батыр

Научный руководитель: Солиев Дильшод

Аннотация: Статья рассматривает понятие и правовые основы товарных знаков и знаков обслуживания, их роли и значения в современном праве интеллектуальной собственности. Рассматриваются основные признаки и функции этих объектов интеллектуальной собственности также будет дан небольшой исторический анализ по поводу товарных знаков и знаков обслуживания.

Ключевые слова: товарный знак, авторское право, интеллектуальная собственность, знак обслуживания.

Законодательство Республики Узбекистан в области товарных знаков и знаков обслуживания является довольно прогрессивным. Понятие товарного знака и знака обслуживания можно подчеркнуть оттуда потому что там оно четко определено. Товарный знак и знак обслуживания представляют собой официально зарегистрированное обозначение, которое используется для различения товаров и услуг одного юридического или физического лица от аналогичных товаров других лиц. Опираясь на это понятие можно сделать вывод что товарный знак служит для удобства потребителей, а также дает возможность производителям и их товарам иметь возможность отличаться друг от друга. Товарные знаки используются для индивидуализации какого либо товара. Знаки обслуживания же используют для индивидуализации оказываемых услуг. Основной разницей является то что товарным знаком компании маркируют товары, а под знаком обслуживания компании оказывают услуги потребителям. А если смотреть на историческую подоплеку то можно понять что уже в Древнем Египте, Греции и Риме производители использовали различные маркировки на своих продуктах, чтобы идентифицировать происхождение товаров и качество. Эти символы служили своего рода гарантом качества. Законодательство о товарных знаках начало развиваться в Европе в XVIII-XIX веках, когда промышленная революция способствовала росту производства и торговли. Одним из первых официальных законодательных актов, регулирующих использование товарных знаков, стала английская Акт о товарных знаках 1875 года. Система регистрации товарных знаков начала активно развиваться в Европе и США в конце XIX века, что дало возможность

владельцам зарегистрированных товарных знаков защищать свои права на территории других стран.

С развитием международной торговли и интеграции экономики товарные знаки стали играть все более важную роль в защите интересов производителей, потребителей и инвесторов.

В XX веке с распространением глобализации и технологических изменений товарные знаки стали не только инструментами защиты, но и важными элементами маркетинга и брендинга.

Следующим значимым шагом в развитии товарных знаков и их законодательного регулирования стало создание Мадридской системы для международной регистрации товарных знаков в 1891 году, которая позволила производителям регистрировать свои товарные знаки в нескольких странах с помощью одной заявки. Эта система функционирует и в настоящее время, обеспечивая единый механизм охраны прав на товарные знаки в международном масштабе. Теория работы данной системы очень проста она предполагает, что заявитель регистрирует товарный знак в своей стране (национальная регистрация), а затем подает заявку в ВОИС для международной регистрации. Эта заявка, при условии выполнения всех формальностей, будет распространена на страны, которые являются членами системы, по выбору заявителя. В данной системе прописаны и указаны также ограничения:

- Зависимость от национальной регистрации: Международная регистрация товарного знака зависит от первоначальной национальной регистрации.

- Ограниченность стран: Некоторые страны, такие как США и Китай, не являются полными участниками Мадридской системы, хотя они подписали Протокол.

Товарные знаки и знаки обслуживания бывают двух основных типов: индивидуальные и коллективные. Индивидуальный товарный знак — это знак, принадлежащий конкретному юридическому или физическому лицу, который используется для обозначения товаров или услуг этого лица. Он позволяет отличить продукцию или услуги одного производителя от товаров или услуг других производителей на рынке.

Коллективный товарный знак — это знак, принадлежащий группе юридических и/или физических лиц, объединённых для совместной коммерческой деятельности. Такой знак используется для обозначения товаров или услуг, производимых или предоставляемых участниками этой группы и обладающих общими характеристиками или качествами.

Индивидуальные и коллективные товарные знаки выполняют важную функцию в защите прав их владельцев и интересов потребителей.

Индивидуальные знаки гарантируют уникальность и исключительность продукции, тогда как коллективные знаки способствуют объединению участников для совместного продвижения и стандартизации товаров или услуг. В Узбекистане правовая охрана товарного знака осуществляется на основе его регистрации в соответствии с положениями национального законодательства и международными договорами Республики Узбекистан. Регистрация товарного знака может быть произведена на имя юридического или физического лица. Для регистрации товарного знака и знака обслуживания необходимо направить заявку в министерство юстиции. Юридические и физические лица, а если быть точнее заявители подают заявки на регистрацию товарного знака, через государственные информационные системы в Министерство юстиции. Заявка на коллективный знак оформляется от имени объединения юридических или физических лиц на основании соглашения участников, определяющего порядок использования такого знака. Регистрация обозначений в качестве товарных знаков в Республике Узбекистан регулируется строгими нормами, направленными на защиту общественных и правовых интересов, предотвращение введения потребителей в заблуждение, а также охрану культурных и исторических ценностей. Согласно действующему законодательству, не подлежат регистрации:

- Государственная символика и официальные атрибуты такие как изображения гербов, флагов, государственных наград, официальных знаков отличия государственных служб, а также контрольные, гарантийные и пробирные клейма и печати.

- Наименования государств и международных организаций.

- Вводящие в заблуждение обозначения, а также ложные или формально корректные, но дающие ошибочное представление

- Обозначения, противоречащие принципам морали и гуманности, например, те, которые оскорбляют общественные ценности.

Перечень ограничений на регистрацию товарных знаков, предусмотренный законодательством Республики Узбекистан, является исчерпывающим. Изучив его лицо, которое хочет зарегистрировать товарный знак или знак обслуживания может сделать четкие выводы о том что подлежит запрету. Также можно отметить защиту прав потребителя ведь ограничения на использование ложных или вводящих в заблуждение обозначений защищают права потребителей. Они предотвращают злоупотребления, связанные с недостоверным указанием качества, места происхождения или других характеристик товаров.

Запрет на регистрацию знаков, противоречащих общественным интересам или моральным нормам, способствует защите культурных и этических ценностей общества. В рамках законодательства Республики Узбекистан в качестве товарных знаков могут быть зарегистрированы различные виды обозначений, включая изобразительные, словесные, объемные и другие формы. Эти элементы могут использоваться как по отдельности, так и в комбинации, а также быть представлены в любом цвете или их сочетании. Данный подход отражает многообразие способов идентификации товаров и услуг на рынке

Заключение

Современное и стандартизированное законодательство в области товарных знаков служит на пользу всем сторонам правовых отношений. Как можно понять товарные знаки и знаки обслуживания это обозначение, которые используются для различения товаров одного производителя от товаров других производителей. Это может быть слово, изображение, комбинация букв и цифр, или даже специфический цвет, форма упаковки и другие визуальные элементы. Сущность данных объектов интеллектуальной собственности заключается в том что они обеспечивают стабильность среди участников рынка, а также помогают потребителям осуществлять свои права и не использовать фальсифицированный товар. Для создателей и владельцев товарных знаков эти объекты интеллектуальной собственности служат в роли маркетингового инструмента для создания репутации бренда.

Использованная литература

1. Закон Республики Узбекистан “О товарных знаках, знаках обслуживания и наименованиях мест происхождения товаров”.
2. "Trade in the Ancient Mediterranean World" - Мартин Ф. Хендерсон

BUGUNGI KUNDA O‘ZBEKISTONNING EKOLOGIK HOLATI

Jizzax Davlat Pedagogika Universiteti o‘qituvchisi

Qodirova Surayyo Qarshiboyevna

surayyoq75@gmail.com

Jizzax Davlat Pedagogika Universiteti talabasi

Karimova Go‘zal

Annotatsiya: Bugungi kunda O‘zbekistonning ekologik holati dolzarb masalalardan biri bo‘lib qolmoqda. Davlatda tez o‘sayotgan sanoat, intensiv qishloq xo‘jaligi faoliyati, suvlarga nisbatan ortib borayotgan talab va iqlim o‘zgarishlari kabi omillar ekologik muammolarni kuchaytirgan. Qishloq xo‘jaligida suv resurslarining noto‘g‘ri taqsimlanishi, tuproq eroziyasi, havoning ifloslanishi va tabiiy boyliklarning haddan tashqari foydalanilishi O‘zbekistonning ekologik barqarorligini xavf ostiga qo‘ymoqda. Shu bilan birga, so‘nggi yillarda mamlakatda ekologik muvozanatni tiklashga qaratilgan chora-tadbirlar ko‘rilmoqda, jumladan, yirik infratuzilma loyihalarini amalga oshirish, qayta tiklanuvchi energiya manbalariga o‘tish va ekologik ta‘limni kuchaytirish kabi qadamlar qo‘yilmoqda.

Kalit so‘zlar: O‘zbekiston, ekologik holat, iqlim o‘zgarishi, suvlarga talab, qishloq xo‘jaligi, tuproq eroziyasi, havoning ifloslanishi, ekologik barqarorlik, qayta tiklanuvchi energiya, ekologik ta‘lim.

O‘zbekiston Respublikasi, Markaziy Osiyoning yuragi bo‘lib, o‘zining boy tabiiy resurslari, qishloq xo‘jaligi va sanoati bilan tanilgan mamlakatdir. Biroq, bu sohalarda amalga oshirilgan intensiv faoliyatlar va tabiiy resurslardan haddan tashqari foydalanish, ekologik muammolarning yuzaga kelishiga sabab bo‘lmoqda. Hozirgi kunda O‘zbekiston ekologik holatiga ta‘sir ko‘rsatayotgan asosiy omillar, iqlim o‘zgarishlari, suv resurslarining kamayishi, tuproqning ifloslanishi va tabiiy boyliklarning o‘zgarishidir. O‘zbekistonning ekologik holatiga eng katta tahdidni suv resurslarining kamayishi tashkil etmoqda. O‘zbekiston Markaziy Osiyodagi eng ko‘p suv iste‘mol qiluvchi mamlakatlardan biri bo‘lib, mamlakatning qishloq xo‘jaligi va sanoati katta miqdorda suvga ehtiyoj sezadi. Asosiy suv manbalari – Amudaryo va Sirdaryo — o‘zaro bo‘linib, qo‘shni mamlakatlar bilan qattiq raqobatni keltirib chiqarmoqda. Bu suvlarga bo‘lgan raqobat, suv taqsimoti bo‘yicha ham, ekologik muammolarni keltirib chiqarmoqda. Suvning ifloslanishi, sug‘orish usullarining samaradorligi va iqlim o‘zgarishi bu muammoning kuchayishiga sabab bo‘lmoqda.

Tuproqning eskirishi va ifloslanishi ham ekologik holatga salbiy ta‘sir ko‘rsatmoqda. O‘zbekistonda intensiv qishloq xo‘jaligi amaliyotlari, ayniqsa paxta

ekinlari bilan shug'ullanish, tuproqni kamaytirishga olib kelgan. Paxtachilikda qo'llaniladigan pestitsidlar va kimyoviy o'g'itlar tuproqning biologik faoliyatini pasaytiradi, uni ifloslantiradi. Bundan tashqari, tuproq eroziyasi va sho'rlanishi ham katta muammo bo'lib, bu yerlarning unumdorligini kamaytiradi. Shu sababli, samarali sug'orish tizimlari va ekotizimlarni tiklashga qaratilgan chora-tadbirlar zarur. Iqlim o'zgarishi ham O'zbekistonning ekologik holatiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. O'zbekistonning iqlimi asosan quruq va yarim quruq bo'lib, global isish bilan bog'liq ravishda, qurg'oqchilik va yuqori haroratlar tez-tez yuz berayotgani kuzatilmoqda. Bu, ayniqsa, qishloq xo'jaligi va suv resurslariga ta'sir ko'rsatadi. O'simliklar va ekinlar suvning kamayishi sababli muammo yuzaga kelmoqda, bu esa oziq-ovqat xavfsizligi uchun tahdid solmoqda. O'zbekiston hukumati ekologik vaziyatni yaxshilash uchun turli tashabbuslarni amalga oshirmoqda. Bu tashabbuslar orasida tabiiy resurslarni saqlash, chiqindilarni qayta ishlash va yashil energiya manbalarini rivojlantirish kabilar mavjud. 2021-yilda O'zbekistonda ekologik taraqqiyot bo'yicha milliy strategiya qabul qilindi, bu esa mamlakatning uzoq muddatli ekologik barqarorligini ta'minlashga qaratilgan muhim qadamlardan biridir. Bundan tashqari, suv resurslaridan samarali foydalanish, aqlli qishloq xo'jaligini joriy etish, tabiiy hududlarni himoya qilish kabi ekologik islohotlar amalga oshirilmoqda. Ekoturizmni rivojlantirish, chiqindilarni qayta ishlash va suvni tejashga qaratilgan dasturlar ekologik holatni yaxshilashga yordam beradi. O'zbekistonning ekologik holati hali ham o'zgarishga muhtoj bo'lib qolmoqda. Agar tabiiy resurslar va ekologik muammolarni hal etish uchun zarur choralar ko'rilmasa, mamlakatda yirik ekologik falokatlar yuzaga kelishi mumkin. O'zbekistonning ekologik holatini yaxshilash uchun davlat va jamiyat o'rtasida hamkorlik, innovatsion texnologiyalarni joriy etish va global ekologik harakatlar bilan birgalikda ish olib borish zarur. O'zbekistonning ekologik holati jiddiy muammolarni o'z ichiga oladi, lekin mamlakatning ekologik kelajagini yaxshilash uchun qadamlar qo'yilmoqda. Suv resurslaridan samarali foydalanish, qishloq xo'jaligida ekologik texnologiyalarni joriy etish va iqlim o'zgarishiga qarshi kurashish masalalari dolzarb bo'lib qolmoqda. Kelajakda O'zbekistonning ekologik barqarorligini ta'minlash uchun mamlakatning barcha sektorlarida mas'uliyatli yondashuv va kompleks choralar zarur. Insoniyat yovvoyi o'simlik va hayvon turlarining kamayib borayotganligini bilgan sayin, uning hayotdagi muhim ahamiyatini anglab yetmoqda. Mamlakatimizda biologik xilma-xillikni saqlash va undan barqaror foydalanishni ta'minlash, muhofaza qilinadigan tabiiy hududlarni rivojlantirish va kengaytirish, tabiiy ekologik tizimlarning tanazzulga uchrash su'ratlarini pasaytirish, hayvonlar va o'simliklarning kamyob va yo'kolib borayotgan turlarini tiklash, bioxilma-xillikni saqlab qolish asosiy maqsadlardan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirzayev, M., & Tashkent, A. (2021). O'zbekiston ekologiyasining asosiy muammolari va ularni hal etish yo'llari. Tashkent: O'zbekiston Ekologik Akademiyasi..
2. Shodiev, U. (2019). Iqlim o'zgarishi va O'zbekistonning ekologik xavflari. Tashkent: O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi.
3. Karimov, A. (2020). Qishloq xo'jaligi va suv resurslarining ekologik ta'siri. Tashkent: Iqtisodiyot va Ekologiya Nashriyoti.
4. Saidov, S. (2022). O'zbekistonda ekologik ta'lim va yirik infratuzilma loyihalari. Tashkent: O'zbekiston Ta'lim Vazirligi.
5. O'zbekiston Respublikasi Ekologiya va Atrof-muhitni Muhofaza Qilish Davlat Qo'mitasi. (2023). O'zbekistonda ekologik holat va uning barqaror rivojlanishiga doir hisobot. Tashkent.

WAYS TO END POVERTY IN TODAY'S INNOVATIVE ECONOMY

Fozilov Vahobjon Akrom ogli

Samarkand institute of economics and service

Independent researcher (PhD), assistant-teacher of

"Real economy" department

E-mail: vaxob.fozilov@mail.ru

Annotation. This article explores effective strategies to address poverty in an era shaped by technological advancements and innovative economic models. By analyzing methodologies such as financial inclusion, digital skills training, and sustainable development programs, the study identifies impactful solutions for poverty alleviation. The article emphasizes the role of innovation in creating equitable opportunities and fostering sustainable growth.

Keywords. Poverty alleviation, innovative economy, financial inclusion, digital transformation, education access, technology for good, microfinance, social entrepreneurship, sustainable development, wealth distribution.

INTRODUCTION

Poverty remains a persistent global challenge despite advancements in technology and economic innovation. According to the World Bank, over 700 million people live on less than \$2.15 a day. While traditional methods such as charitable aid and welfare programs have played a crucial role, they often fail to address systemic barriers. Today's innovative economy, driven by technology and digital transformation, offers new opportunities to tackle poverty sustainably. This article examines effective strategies that leverage innovation to reduce poverty and create inclusive economic opportunities. Below is a review of the literature on this topic:

FDI has been identified as one of the strategic engines of the economic prosperity. Further empirical evidence has reinforced that FDI has the potential to propel advancement of growth in various countries.¹ The Global Findex Database reveals that many developing countries have used financial inclusion initiatives to combat poverty and enhance income generating opportunities.²

¹ Bhuimali, A., Partha, P. S., Sidhartha, S. L., & Madhabendra, S. (2019). FDI, trade, and economic growth: a dynamic panel study on global economy. In Rajib Bhattacharyya (Ed.), *The Gains and Pains of Financial Integration and Trade Liberalization* (pp. 77–87). Bingley: Emerald Publishing Limited.

² The Global Findex Database (2021). The World Bank.

<https://www.worldbank.org/en/publication/globalindex/brief/the-global-findex-database-2021-chapter-3-financial-resilience>.

METHODOLOGY

To identify practical solutions for ending poverty, this study employed a mixed-method approach combining:

1. **Case Studies:** Analysis of successful poverty alleviation programs such as Kenya’s mobile money system M-Pesa and India’s Digital India campaign.
2. **Quantitative Data:** Examination of poverty rates, income inequality indices, and access to digital infrastructure.
3. **Qualitative Research:** Interviews with experts in social entrepreneurship, microfinance, and sustainable development.
4. **Comparative Analysis:** Evaluation of policies across different countries to identify scalable and replicable strategies.

RESULTS

The research identified several innovative approaches with significant potential for poverty reduction: (Fig. 1.)

Fig. 1.





Figure 1. Innovative approaches for poverty reduction

1. **Financial Inclusion through Technology.** Mobile banking and fintech solutions, such as M-Pesa, have revolutionized access to financial services for underbanked populations, enabling savings, credit, and investment opportunities.
2. **Digital Skills Training.** Programs that equip individuals with digital literacy and technical skills have empowered marginalized communities to participate in the global digital economy. Initiatives like Code.org and Udemy for Business have demonstrated scalable success.
3. **Social Entrepreneurship.** Businesses that address social issues, such as TOMS Shoes and Grameen Bank, combine profitability with impactful poverty reduction strategies.

4. **Sustainable Development Programs.** Renewable energy initiatives, like off-grid solar solutions in Sub-Saharan Africa, provide affordable power while creating jobs and improving quality of life.
5. **Universal Access to Quality Education.** Digital learning platforms, such as Khan Academy and Coursera, democratize education and improve access for disadvantaged populations.

Fig. 2.

Figure 2. The vicious circle poverty.³

CONCLUSION

The innovative economy holds immense promise for ending poverty through scalable and sustainable solutions. By harnessing technology, promoting financial inclusion, and investing in education and entrepreneurship, societies can address

³ Rohima, S., Suman, A., Manzilati, A., & Ashar, K. (2013). Vicious circle analysis of poverty and entrepreneurship. IOSR Journal of Business and Management (IOSR-JBM), 7(1), 33–46.

systemic inequalities and create pathways for inclusive growth. However, achieving these outcomes requires collaboration among governments, private enterprises, and non-profits to ensure equitable access to resources and opportunities. Through such coordinated efforts, poverty can be reduced, empowering millions to lead better lives.

In today's innovative economy, the fight against poverty is no longer limited to traditional approaches. Technological advancements, digital transformation, and inclusive policies offer a new paradigm for tackling this age-old challenge. The integration of financial technologies, such as mobile banking and microfinance, empowers individuals by granting them access to essential financial services. Digital skills training and online education platforms democratize knowledge, creating opportunities for individuals to improve their livelihoods. Meanwhile, sustainable development programs, like renewable energy initiatives, directly address environmental challenges while fostering economic growth.

However, innovation alone is not enough. Effective poverty reduction requires an ecosystem of collaboration between governments, private sectors, non-profits, and local communities. Policymakers must create an enabling environment through regulations and infrastructure investments. Simultaneously, private companies and social enterprises must design products and services that prioritize inclusion and affordability.

Ultimately, addressing poverty in an innovative economy is about equity—ensuring that technological progress benefits everyone, not just a privileged few. By leveraging innovation responsibly and inclusively, we can not only reduce poverty but also build a more resilient, equitable, and prosperous future for all.

To further reduce poverty, the following suggestions are proposed:

1. **Expand Access to Digital Infrastructure:** Governments and private sectors should invest in affordable internet access and technological infrastructure in underserved areas, enabling more people to participate in the digital economy.
2. **Promote Inclusive Financial Services:** Develop tailored financial products such as microloans, savings plans, and insurance schemes for low-income groups to support entrepreneurship and financial stability.
3. **Invest in Education and Workforce Development:** Prioritize affordable education and vocational training programs that equip individuals with the skills needed for jobs in emerging industries, ensuring they are prepared to thrive in a rapidly changing economy.

By implementing these strategies, societies can harness innovation to create a more equitable and prosperous future for all.

REFERENCES

1. Bhuimali, A., Partha, P. S., Sidhartha, S. L., & Madhabendra, S. (2019). FDI, trade, and economic growth: a dynamic panel study on global economy. In Rajib Bhattacharyya (Ed.), *The Gains and Pains of Financial Integration and Trade Liberalization* (pp. 77–87). Bingley: Emerald Publishing Limited.
2. The Global Findex Database (2021). The World Bank. <https://www.worldbank.org/en/publication/globalfindex/brief/the-global-findex-database-2021-chapter-3-financial-resilience>.
3. Rohima, S., Suman, A., Manzilati, A., & Ashar, K. (2013). Vicious circle analysis of poverty and entrepreneurship. *IOSR Journal of Business and Management (IOSR-JBM)*, 7(1), 33–46.
4. Bahmani-Oskooee, M., & Oyolola, M. (2009). Poverty reduction and aid: Cross-country evidence. Published in the *International Journal of Sociology and Social Policy*, this article examines the effectiveness of foreign aid in alleviating poverty across 49 developing countries, emphasizing the role of growth-promoting and inequality-reducing policies. DOI: doi:10.1108/01443330910965796
5. Fonseca, S., Moreira, A., & Mota, J. (2024). Factors Influencing Sustainable Poverty Reduction: A Systematic Review of the Literature with a Microfinance Perspective. This research explores the impact of microfinance initiatives on sustainable poverty alleviation through empowerment and financial self-sufficiency.
6. Hoddinott, J. (2015). What works to reduce extreme poverty? A selective review. This article delves into the mechanisms and evidence behind effective poverty-reduction strategies, particularly for those in extreme poverty.
7. Nyoman Ruja, I., Sumarmi, S., & Idris, I. (2020). Programs, Opportunities, and Challenges in Poverty Reduction: A Systematic Review. Published in *Sage Journals*, it focuses on recent trends and challenges in poverty alleviation, particularly during global crises.
8. The World Bank Group (2015). *Ending Poverty: Learning from Experience and Moving Forward*. This report reflects on global efforts to meet poverty eradication goals and discusses scalable strategies for achieving sustainable outcomes.
9. UNDP (2020). *The Impact of Education and Culture on Poverty Reduction*. This study highlights the correlation between educational investment and cultural development in eradicating poverty, aligning with the 2030 Agenda for Sustainable Development.

ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBURNING TARIXDA TUTGAN O'RNI*Sultonova Anzirat Lutfulloyevna**1-sonli ayrim fanlarni chuqur o'rganishga ixtisoslashtirilgan
maktabning ona tili va adabiyot o'qituvchisi***Annotatsiya:**

Zahiriddin Muhammad Bobur yoshligidan ilimga chanqoq bo'lib, o'z tengdoshlari orasida ajralib turgan shaxs bo'lgan. Bobur barcha temuriy shahzodalar kabi maxsus tarbiyachilar, yirik fozil-u ulamolar ustozligida harbiy ta'lim, fiqh ilmi, arab va fors tillarini o'rganadi, ko'plab tarixiy va adabiy asarlar mutolaa qiladi, ilm-fanga, she'riyatga qiziqqa boshlaydi. Boburning ulkan san'atkorligi shundaki, shaxsiy kechinmalarini jiddiy umumlashma darajasiga ko'tara oladi va natijada asarlarida olg'a surilgan g'oyalar umuminsoniy qadriyatlar darajasiga ko'tariladi.

Kalit so'zlar: Zahiriddin Muhammad Boburning ilmiy-ijodiy, milliy madaniyatimiz, xalqimiz tafakkurining shakllanishidagi roli, Boburning adabiyotga va she'riyatga qiziqishi, Bobur ijodida ishq-muhabbat, sevgi-sadoqat, visol va hijron mavzusi g'azal va ruboiylar, tuyuq va masnaviylarida ma'shuqaning maftunkor go'zalligi, beqiyos husnu latofati, sharqona odobu axloqi

Abstract

Zahiriddin Muhammad Babur had a thirst for knowledge from his youth and was a person who stood out among his peers. Like all Timurid princes, Babur studied military education, jurisprudence, Arabic and Persian languages under the tutelage of special tutors and great religious scholars, read many historical and literary works, became interested in science and poetry. can rise to the level of generalization, and as a result, the ideas advanced in his works rise to the level of universal values.

Keywords: Zahiriddin Muhammad Babur's scientific and creative role in the formation of our national culture and the thinking of our people, Babur's interest in literature and poetry, the theme of love, loyalty, visal and hijran in Babur's work is the charming beauty of the lover in his ghazals and rubai, tuyuk and masnavi, incomparable elegance, oriental manners and morals

Istiqlol yillari o'zbek adabiyotshunosligida navoiyshunoslik bilan bir qatorda yangi ilmiy tarmoq - boburshunoslik ham uzil-kesil shakllandi. XIX asrdayoq G'arbiy Yevropada paydo bo'lgan va XX asrda rivojlanish bosqichiga kirgan boburshunoslik ilmi endi nafaqat shakllandi, hatto bu sohada "Zahiriddin Muhammad Bobur ensiklopediyasi" va "Zahiriddin Muhammad Bobur "Bibliografiya" (Moskva, 2016) singari fundamental nashrlar ham dunyo yuzini ko'rdi.

Bobur tavalludining 534 yilligi tantanalarida xalqaro anjumanga qatnashgan jahonning mashhur boburshunoslari Eyji Mano (Yaponiya), Magda Maxluf (Misr), Aziz Qayumov, Saidbek Hasanov (O'zbekiston), Mansura Haydar (Hindiston), Ilza Sirtautas (AQSH), Ramiz Asker (Ozarboyjon), Bilol Yujel (Turkiya) boburshunoslik ilmining markazi O'zbekistonga - Toshkentga ko'chganini bir ovozdan e'tirof etdilar.

Bu sohada Bobur nomidagi xalqaro jamoat fondi rayosati va raisi Zokirjon Mashrabovning alohida xizmatlari borligi qayd etildi. O‘shandan buyon har yili boburshunoslikka doir yuzlab maqola va o‘nlab risola, monografiya yozilib nashr etilmoqda. Jumladan, 2017 yili Bobur tavalludining 535 yilligi oldidan o‘tkazilgan “Zahiriddin Muhammad Bobur asarlarining jahon madaniyati tarixida tutgan o‘rni” mavzusidagi xalqaro anjuman va uning materiallarining “Bobur abadiyati” nomida nashr etilgani ham boburshunoslikdagi muhim voqea bo‘ldi.

O‘tgan yilgi - Zahiriddin Muhammad Bobur tavalludining 539 yilligiga bag‘ishlangan Mirzo Kenjabekning “Mubayyin” va “Volidiya”ga doir yangi tadqiqotlari va taniqli boburshunos Hasan Qudratullayevning “Boburning adabiyestetik olami” (“Ma’naviyat” nashriyoti, 2018) monografiyalarining chop etilgani ham ilmdagi sezilarli ishlardan bo‘ldi. “Boburnoma” qomusiy asar bo‘lgani uchun o‘nlab fanlar ma’lumotlari saqlangan xazinaga o‘xshaydi. Bu xazinaga adabiyotshunos kiradimi, tilshunos bosh suqadimi, tarixchi varaqlab ko‘radimi, har gal o‘zidan oldingi tadqiqotchining ko‘zi tushmagan yangi-yangi ma’lumotlarga duch kelaveradi.

Tadqiqotchi yangi asarida “Boburnoma”ga tipologiya nuqtai nazaridan yondoshishni asosiy maqsad qilib olgan. Muallif mohirlik bilan “Boburnoma”dagi voqea-hodisalar, shaxslar va ularning qismlari haqidagi matnlarni o‘sha zamonning ulug‘ adiblari va tarixchilari Alisher Navoiy, Zayniddin Vosifiy, G‘iyosiddin Xondamir, Abdurazzoq Samarqandiyning kitoblaridagi ma’lumotlarga qiyosan tahlil qilgan. Ayni paytda mualliflarning mavqei, shaxsi, iqtidori, e‘tiqodi, shaxsiy uslubi haqida ham mushohada yuritish payida bo‘lgan.

“Boburnoma” o‘zbek va umumturkiy adabiyotining dunyoga ma’lum va mashhur qomusiy asari. Bu memuarda O‘zbekiston, Afg‘oniston va Hindiston xalqlarining madaniyati, qadriyatlarini, o‘ziga xos xususiyatlaridan tortib, tabiati, geografiyasi, hayvonot va nabotot olami to‘g‘risida bebaho ma’lumotlar mavjud. Bu nodir manbaning turli tillarga tarjima qilingan nashrlarini qo‘ya turaylik, o‘zimizda mumtoz asarlari yuzasidan tuzilgan mukammal izohli lug‘atlar ham kamchilikdan xoli emas.

Bugun “Boburnoma”ni nozik jihatlarigacha teran anglab, tadqiq etiladigan boburshunoslar borligiga aminmiz. Zahiriddin Muhammad Boburning ilmiy-ijodiy merosini, davlatchilik va sarkardalik faoliyatini keng o‘rganish maqsadida xalqaro miqyosda ilmiy izlanishlar olib borish va ularning natijalarini e‘lon qilish, yangi ilmiy, badiiy-publitsistik asarlar yaratish;

Zahiriddin Muhammad Boburning hayoti va faoliyatiga bag‘ishlangan yuqori sifatli media mahsulotlar hamda audiovizual asarlar yaratish, ularni mahalliy va xorijiy ommaviy axborot vositalarida e‘lon qilish, Internet va ijtimoiy tarmoqlarda keng targ‘ib qilish;

O‘zbekiston Respublikasining xorijiy mamlakatlardagi elchixonalarini, O‘zbek milliy madaniy markazlari, vatandoshlar jamiyatlarida Zahiriddin Muhammad Bobur ijodini keng o‘rganish va targ‘ib qilishga bag‘ishlangan ma’rifiy tadbirlar, davra suhbatlari tashkil etish.

Madaniyat va turizm vazirligi Tashkiliy qo'mitaning ishchi organi etib belgilansin va mazkur qarorda belgilangan vazifalar bo'yicha vazirlik va idoralar faoliyatini muvofiqlashtirib borsin. Andijon viloyati hokimligi tomonidan Bobur nomidagi xalqaro jamoat fondi bilan birgalikda Andijon shahrida "Zahiriddin Muhammad Bobur ijodiy merosining bashariyat ma'naviy-ma'rifiy taraqqiyotidagi o'rni" mavzusidagi xalqaro ilmiyamaliy konferensiya;

Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi tomonidan Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetida "Zahiriddin Muhammad Bobur merosining Sharq davlatchiligi va madaniyati rivojida tutgan o'rni" mavzusida xalqaro ilmiy-nazariy anjuman;

Toshkent shahar hokimligi, Madaniyat va turizm vazirligi tomonidan Toshkent shahrida Zahiriddin Muhammad Bobur tavalludining 540 yilligiga bag'ishlangan adabiy-badiiy anjuman;

Madaniy meros agentligi va Bobur nomidagi xalqaro jamoat fondi tomonidan Andijon shahridagi "Bobur va jahon madaniyati" kitob muzeyida Boburning hayoti, ilmiy va ijodiy faoliyatiga bag'ishlangan asarlarning qo'lyozma va nashr nusxalarining ko'rgazmasi; Badiiy akademiya va "Hunarmand" uyushmasi tomonidan mavzuga bag'ishlangan tasviriy san'at asarlari, miniatyuralar, xalq amaliy san'ati namunalari ko'rgazmalari yuqori saviyada o'tkazilishini ta'minlasin. Zahiriddin Muhammad Boburning ibratli hayoti va boy merosini aholi orasida keng targ'ib qilish maqsadida: Madaniyat va turizm vazirligi Bobur nomidagi xalqaro jamoat fondi bilan birgalikda: "Bobur merosi" xalqaro sayyohlik targ'ibot dasturini amalga oshirilishi.

2023-yilda Zahiriddin Muhammad Bobur hayoti va asarlari asosida yangi spektakllar yaratish, shoir g'azallari bilan ijro etiladigan eng yaxshi qo'shiqlar tanlovlari hamda "Nazm va navo" maqom kechalarini tashkil etishi belgilandi. Davlat buyurtmasi asosida Zahiriddin Muhammad Boburning bolalik davriga bag'ishlab suratga olinayotgan "Yo'lbarsning tug'ilishi" badiiy filmi yakuniga yetkazish uchun yana mukammal ishlash, tomoshabinga yetkazib bera oladigan darajada ishlash, yoshlarni jasur, mard, vatanga muhabbat, fidoyilik ruhida tarbiyalash lozimligi haqida bir qancha takliflar berildi.

Zahiriddin Muhammad Bobur hayoti va ijodiga doir "Bobur ensiklopediyasi"ning to'ldirilgan uchinchi nashri, "Bobur" kitob-albomi, shuningdek, Bobur asarlari lug'ati, Bobur devonining mukammal nashrini; "Boburnoma" asarining zamonaviy o'zbek va qoraqalpoq tillariga tabdilini yaratish; "Boburga armug'on" rukni ostida shoir asarlari, uning hayoti va ijodi haqidagi ilmiy va ommabop kitoblar turkumini tayyorlash va chop qilish choralarini ko'rish chora tadbirlari amalga oshirilmoqda.

Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi Yozuvchilar uyushmasi, Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi, Bobur nomidagi xalqaro jamoat fondi bilan birgalikda: ikki oy muddatda Zahiriddin Muhammad Bobur hayoti va ijodiy merosini tadqiq etish bo'yicha ilmiy tadqiqot ishlariga davlat buyurtmasi talablariga muvofiq ilmiy loyihalar tanlovini e'lon qilishi yoshlarimizni yanada xursand qildi.

Bobur Mirzo hayoti va faoliyatiga bag'ishlangan asarlarning o'zbek tilidan xorijiy tillarga hamda xorijiy tillardan o'zbek tiliga bosqichma-bosqich tarjima qilinishi va chop etilishini ta'minlasin. 2023-2024 o'quv yilidan boshlab oliy ta'lim muassasalari talabalari uchun tarix va geografiya yo'nalishlarida Zahiriddin Muhammad Bobur nomidagi davlat stipendiyasi ta'sis etilsishi.

Vazirlar Mahkamasi uch oy muddatda mazkur davlat stipendiyasini tayinlash tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlasin. Biz yoshlarga bo'lgan e'tibor shuningdek yanada sifatli ta'lim olishimiz uchun qilinayotgan shartsharoitlar meni hamda butun O'zbekiston yoshlarini o'ziga bo'lgan ishonchini yanada oshirish imkonini berdi desak mubolag'a bo'lmaydi. Ushbu maxsus stipendiya bilan Z.M.Boburning hayoti va ijodini o'rganish, faoliyatini yoritish, ilmiy tadqiq qilish va targ'ib etish yo'nalishida izlanish olib borayotgan, adabiyot va kitobxonlikni keng targ'ib qilish yo'nalishida alohida faollik ko'rsatayotgan va konferensiyalarda (tanlovlarda) qatnashgan, mualliflik asosida nashr etilgan ishlari (asarlari) mavjudligi mezonlarga asosan har yili 20- mayga qadar institutda tahsil olayotgan 1-3 bosqich kursantlari rag'batlantiriladi.

“Zahiriddin Muhammad Bobur” nomidagi ko'krak nishoni nikel hamda tilla qoplangan mis qotishmasidan tayyorlangan bo'lib, sakkiz qirrali tilla rangli yulduz shakliga egadir. Ko'krak nishonining markazida havo rang emal bilan qoplangan, orqa tomonidan quyosh nurlari taralayotgan fonda Zahiriddin Muhammad Boburning sarkardalik mahorati va saltanat sohibi ekanligini anglatuvchi suvoriy qiyofasidagi oltin rangda bo'lgan sur'ati joylashgan bo'lsa, uning yuqori qismida ikki tomonidan qabariq sakkiz qirrali yulduz bilan ajratilgan qabariq harflarda «BOBUR» degan yozuv mavjud.

Ko'krak nishonining orqa tomonida esa Davlat gerbi tasvirlangan. Uning qadag'ichidagi qizil, moviy, sariq ranglardagi shoyi lenta ham o'z ma'nosiga ega bo'lib, u Zahiriddin Muhammad Bobur asos solgan davlat bayrog'ining ranglarini tasvirlaydi. Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari, Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi, Yozuvchilar uyushmasi, Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi hamda boshqa vazirlik, idora va tashkilotlar Zahiriddin Muhammad Boburning ilmiyijodiy merosiga bag'ishlangan ijodiy uchrashuvlar, davra suhbatlari, kitoblar taqdimotlari hamda shunga o'xshash tadbirlar o'tkazilmoqda.

Jahon tarixida o'chmas iz qoldirgan betakror siymolardan biri Zahiriddin Muhammad Bobur buyuk shoir, qomusiy olim, davlat arbobi va mohir sarkarda sifatida butun dunyoda ma'lum va mashhurdir. Uning beqiyos ilmiy-ijodiy merosi nafaqat milliy madaniyatimiz va xalqimiz adabiy-estetik tafakkurining shakllanishida, balki jahon adabiyoti, ilm-fani va davlatchiligi tarixida alohida o'ringa ega. Mustaqillik davrida Zahiriddin Muhammad Boburning hayoti va faoliyatini har tomonlama chuqur o'rganish, uning asarlarini yurtimiz va xorijiy davlatlarda targ'ib qilish borasida keng ko'lamli ishlar amalga oshirildi.

Xususan, shoir tug‘ilgan kun - 14-fevral sanasi har yili mamlakatimiz bo‘ylab adabiyot va ilm-ma‘rifat bayrami sifatida nishonlanmoqda. Boburshunoslik sohasida ko‘plab tadqiqotlar, respublika va xalqaro miqyosda ilmiy anjumanlar muntazam o‘tkazilmoqda. Keyingi yillarda Toshkent va Andijon shaharlarida Bobur Mirzoning muazzam haykallari o‘rnatilgani, uning tug‘ilib o‘sgan yurti - Andijon shahrida Bobur nomidagi xalqaro jamoat fondi va uning tasarrufidagi “Bobur va jahon madaniyati” kitob muzeyi faoliyat ko‘rsatayotgani, “Bobur ensiklopediyasi”, “Bobur kulliyoti”, “Babur. Baburidi. Bibliografiya” deb nomlangan salmoqli asarlarning nashrdan chiqarilgani, “Bobur va dunyo” jurnalining tashkil qilingani madaniy hayotimizda katta voqea sifatida e‘tirof etildi. Jonajon Vatanimiz milliy rivojlanishning yangi bosqichiga - Uchinchi Renessans davriga qadam qo‘yayotgan, hayotimizning barcha jabhalarida tub o‘zgarishlar yuz berayotgan bugungi kunda Bobur Mirzoning bebaho merosini chuqur o‘rganish va ommalashtirish yanada muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Buyuk ajdodimiz asarlarining milliy va umuminsoniy mohiyatini, uning yosh avlodimiz intellektual va ma‘naviy salohiyatini oshirish, farzandlarimizni shu asosda Yangi O‘zbekiston bunyodkorlari etib tarbiyalash borasidagi ulkan o‘rni va ta‘sirini inobatga olib, Bobur Mirzoning ilmiy va ijodiy merosini mamlakatimiz va xalqaro miqyosda yanada chuqur o‘rganish va targ‘ib etish maqsadida keng ko‘lamli ishlar amalga oshirilmoqda.

Madaniyat va turizm vazirligi, Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligi, Fanlar akademiyasi, Yozuvchilar uyushmasi, Respublika Ma‘naviyat va ma‘rifat markazi, Bobur nomidagi xalqaro jamoat fondi hamda jamoatchilik vakillarining 2023-yilda Zahiriddin Muhammad Bobur tavalludining 540 yilligini keng nishonlash to‘g‘risidagi taklifi ma‘qullandi. Shuningdek bir hafta muddatda Zahiriddin Muhammad Bobur tavalludining 540 yilligini nishonlash bo‘yicha amalga oshiriladigan chora-tadbirlar dasturini tasdiqlasin. Ushbu dasturda quyidagi masalalarga alohida e‘tibor qaratilsin: mamlakatimizdagi Zahiriddin Muhammad Bobur nomi bilan bog‘liq obida va qadamjolarini, jumladan yodgorlik majmualarini ta‘mirlash va ularning hududlarini obodonlashtirish; Bobur Mirzo merosiga mansub qo‘lyozma, qadimiy kitoblar, san‘at asarlari va boshqa madaniy boyliklarni restavratsiya qilish, ularni ishonchli darajada saqlash uchun zarur sharoit yaratish; xorijiy mamlakatlarda saqlanayotgan Zahiriddin Muhammad Boburning hayoti, ilmiy-ijodiy merosi hamda u yashagan davrga oid noyob qo‘lyozma asarlar va boshqa madaniy boyliklarni aniqlash, ularning nusxalarini O‘zbekistonga olib kelish va tadqiq qilishni davom ettirish; kabi ishlar amalga oshirilmoqda. O‘tgan vaqt ichidagi bu katta yutuqlar O‘zbekistonni dunyo boburshunosligining markaziga aylanishiga xizmat qildi.

Bobur hayoti va ijodi bilan xalqimizga ma‘nan yaqinlashdi. Barcha bajarilgan ishlarning solnomasi sifatida mamlakatimizda ilk bor shaxsga nisbatan qomus, ya‘ni “Bobur ensiklopediyasi” yaratildi. 64 bosma toboqli bu ulkan ensiklopediyani yaratishda o‘zbek boburshunos olimlari qatorida Yaponiya, Hindiston, Turkiya, Afg‘oniston va yevropalik olimlar ham faol ishtirok etishdi. Bobur ijodini qirq yildan beri o‘rganib kelayotgan yaponiyalik boburshunos olim Eyji Mano ensiklopediyaga

“butun dunyo boburshunoslari uchun muhim qo‘llanma bo‘ladi” deya baho berdi. Xullas, Zahiriddin Muhammad Bobur bugungi yoshlarga barcha tomonlama o‘rnak bo‘la oladigan shoh, shoir va sarkardadir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. S.Hasanov. Boburning «Risolayi aruz» asari. -T.:1986;
2. Xayriddin Sulton. Boburiynoma. -T.:1996;
3. "Science and Education" Scientific Journal / Impact Factor 3,848 (SJIF) February 2023 / Volume 4 Issue 2 www.openscience.uz / ISSN 2181-0842 1189
4. G‘aybulloh as-Salom, N.Otajon. Jahongashta «Boburnoma». — T.:1996;
5. U.Erskin. Hindistonda Bobur davlati (Ingliz tilidan G‘.Sotimov tar.). — T.: 1997:
6. 1997:
7. R.Sharma. Boburiylar saltanati (Ingliz tilidan G‘.Sotimov tar.).. -T.: 1999.
8. Karimov I.A.,Yuksak ma’naviyat- yengilmas kuch.-T.: Ma’naviyat, 2008y.
9. Karimov I.A. Vatan ravnaqi uchun har birimiz mas’ulmiz.-T.: O‘zbekiston,

HAMMURAPI QONUNLARIDA OILA MUNOSABATLARI

*Mo'minova Gulchehra Ismoilovna – Jizzax davlat pedagogika universiteti Tarix fakulteti o'qituvchisi,
Abdujalilova Odina Norqul qizi – Jizzax davlat pedagogika universiteti Tarix fakulteti talabasi*

Annotasiya: Ushbu maqolada Qadimgi Bobil podsholigi hukmdori Hammurapi tomonidan tuzdirilgan, davlatning har tomonlama rivojlanishi uchun xizmat qilishi nazarda tutilgan “Hammurapi qonunlari” haqida so'z boradi. Hammurapi qonunlarida “Oila” munosabatlariga alohida e'tibor qaratilgan bo'lib, ushbu kodeksda oila a'zolarining huquq va majburiyatlari atroflicha yozib qo'yilgan. Aynan shu qonun-qoidalarga oila a'zolarining amal qilib yashashi ma'lum ma'noda jamiyat rivojini ta'minlagan, ayni shu jihatlar maqolada yetarlicha yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: Qadimgi Bobil, Hammurapi qonunlari, Elam davlati, bazalt ustunlari, Shamash, bel ashshentum, Koshaker, talion huquqi, er va xotin burchlari, ota va o'g'il munosabatlari.

Qadimgi Sharq xalqlarining sivilizatsiyalari asosan, buyuk daryolar Nil, Dajla va Frot, Hind, Gang, Xuanxe, Yanszi, Amudaryo kabi daryo havzalarining unumdor vodiylarida sun'iy sug'orishga asoslangan xo'jalik hayotini samarali rivojlanishi bilan ajralib turadi. Qadimgi Sharq sivilizatsiyasi jahon xalqlari taraqqiyotining keyingi rivojlanishiga samarali ta'sir ko'rsatadi va uning poydevori hisoblanadi.

Hozirgi kunda dunyoda 240 dan ortiq davlatlar mavjud bo'lib, ular faoliyatida ma'lum bir ustunlarga tayanib ish ko'radilar. Mana shunday asosiy ustunlardan biri bu - davlatda o'rnatilgan qonun-qoidalardir. Qonun qoidalarga asoslangan har bir davlatda tinchlik, totuvlik, aholining farovon hayoti hukm suradi. O'z davri uchun mukammal qonunlar yaratilishi tarixiga qaraydigan bo'lsak, Qadimgi Bobil davlatida Hammurapi nomi bilan bog'liq qonunlarga duch kelamiz. Bu qonunlar tavsifiga to'xtalishdan oldin Hammurapining shaxsiy faoliyati tarixiga to'xtalib o'tamiz.

Bobil davlatining gullab-yashnashi o'z sulolasining oltinchi vakili hisoblangan Hammurapi (er .avv.1792-1750-yillarga) hukmronligi davriga to'g'ri keladi. Hammurapi dono, uzoqni ko'ra oladigan, yirik strateg, o'ziga xos ayyor davlat arbobi, mohir tashkilotchi va adolatli qonunshunos bo'lgan. Hammurapi mohir diplomat bo'lib, Bobil uchun foydali bo'lgan ittifoqlar tuzgan va u vazifasini o'tagach tezda voz kechgan[Rajabov R. 2009. 90-b.].

Hammurapi hukmronligi davrida davlat, jamiyat hayotini tartibga solish maqsadida o'z qonunlarini ishlab chiqqan. Hammurapi qonunlari sifatida talqin

qilinadigan bu nizom me'yorlari davlat hayotining bir maromda kechishiga asos bo'lib xizmat qilgan. Hammurapi qonunlarida sud huquq sohasi, jinoiy ishlar, o'g'rilik, talonchilik, oila va nikoh masalalari, aholining asosiy mashg'uloti bo'lgan dehqonchilik va chorvachilik sohalariga alohida e'tibor qaratilgan [www.wikipedia.uz. internet sayti].

Hammurapi qonunlari bazalt ustunlarga o'yib yozilgan bo'lib, ushbu tosh ustunlar davrimizgacha to'liq saqlanmagan. O'zaro urushlar, Bobilning bosib olinishi natijasida, ustunlarning ayrimlari Elam hukmdori tomonidan o'lja sifatida olib ketiladi. Hammurapi qonunlari uch qisimdan ya'ni 1.Kirish 2.Asosiy qism. 3.Xulosalardan iborat bo'lgan. Mazkur qonunlarnig kirish qismida bu qonunlar majmuasini yaratishdan asosiy maqsad adolat o'rnatib, farovon hayot kechirish deyiladi [Kurshkol. Y.S.1975. 119-121-b.].

Ustunlarda adolat, haqiqat va yorug'lik xudosi bo'lgan Shamash va uning oldida xudo qo'llaridan oliy sud ramzi bo'lgan cho'qmor va chamber olayotgan podsho Hammurapining bo'rtma siymolari tasvirlangan [Avdiyev A .1984. 99-b.].

Hammurapi qonunlarida jamiyatning asosi bo'lgan oila mavzusiga alohida o'rin ajratilgan. Bobilda oila patriarxal oilalar tashkil topgan. Patriarxal oilaning har birida ota va er hukumronlik qilib oilaning har bir a'zosi ularga bo'ysunishga majbur bo'lgan. Hammurapi qonunlarining 129-moddasida er xo'jayin (bel ashshentum) bo'lib xotin er izmida bo'lgan, er xotin olishdan oldin qaynotasiga ma'lum miqdorda haq to'lab sotib olgan va shu tariqa xotin cho'riga aylangan.

Yirik tarixchi Koshaker Qadimgi Bobil huquqlarini o'rganib ularga oid bir qancha asarlar yozgan. U o'zining asarlarida Qadimgi Sharqdagi oilalar haqida yozgan reaksiya tarixchilarni qattiq tanqid qilgan. Bu qonunlarning bir qanchasini tahlil qilsak, ayol huquqi er huquqlariga nisbatan past bo'lgan. Hammurapi kodekslarida ayol va er vafodorligi buzilsa ularga beriladigan jazo farq qilgan. Agar er xiyonat qilsa, ayol sepini olib otasining uyiga ketishi mumkin bo'lgan. Agar xotin xiyonat qilsa, uni suvga tashlash shart bo'lgan. Nikoh ahtida xotin eridan yuz o'g'irsa eri unga tamg'a bosib sotib yuborish huquqiga ega bo'lgan [Kabirov A. 2016. 127-128-b.]. Bundan tashqari xiyonatkor ayollarga boshqa jazolar ham qo'llangan. Xiyonatkor ayolni shu chog'da o'ldirish mumkin bo'lgan. Erini o'ldirishda hayrixoh bo'lgan ayolni qoziq ustiga o'tkazib o'ldirishgan, isrofgar ayolni esa, uydan haydab yuborgan yoki cho'riga aylantirilgan.

Otasini urgan o'g'il qo'l panjasini kesib tashlash bilan jazolangan. Vaholanki, o'g'ilni urish ham jinoyat hisoblangan. Ba'zida, o'g'il otasi qilgan jinoyatlari uchun javobgar bo'lgan. Agar ota beparvolik qilib uy qursa u qurgan u biror kishining farzandini bosib qolsa, uning farzandi ham o'lim jazosiga hukm qilingan (o'g'il uchun o'g'il- talion prinsipi). Lekin davlat oilaviy shafqatsiz huquqni har holda biroz

cheklab qo‘ygan. Agar er ayoliga tuhmat qilsa unga badal sifatida haq to‘lagan. Ota farzandini o‘zboshimchalik bilan meros huquqidan mahrum qila olmagan. Bu mazkur ishni faqat sud orqali hal qilgan. Shunday qilib, davlat organlari oilaviy munosabatlarga ijobiy natijalarga erishish uchun ham aralashgan[Rajabov R. 2015. 108-111-b.]

Hammurapi qonunlarida ota va o‘g‘il munosobotlariga katta ahamiyat berilgan. Agar asrandi o‘g‘il otasidan voz kechsa, u qullikka mahkum qilingan. Oilani yanada mustahkamlash uchun ajrashishni yanada qiyinlashtirilgan. Ayolga eri moxov kasalini yuqtirsa uni tashlab keta olmagan. Aksincha, umrining oxirigacha xotiniga qarab o‘tgan. Oila munosabatlariga ahamiyat berish orqali jamiyat rivojiga ham alohida o‘rin ajratilgan[Kabirov A. 2016. 129-b.].

Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, Hammurapi qonunlari Ibtidoiy jamiyatda paydo bo‘lgan yozilmagan xulq-atvor qoidalari normalarining amal qilishini birlashtirish va to‘ldirishga mo‘ljallangan mavjud huquqiy tartibotning katta islohoti natijasidir. Qadimgi Mesopotamiya mixxat huquqi taraqqiyotining cho‘qqisi sifatida qonunlar ko‘p asrlar davomida Qadimgi Sharqning huquqiy madaniyatiga ta’sir ko‘rsatgan.

Qonunlar O‘rta Sharqdagi sinfy jamiyati shakllanishining dastlabki bosqichida yaratilgan bo‘lib, ular tomonidan belgilangan jinoiy jazolarning qiyosiy shafqatsizligiga olib kelganiga qaramay, qonunlar huquqiy tartibga solishning o‘ta puxta o‘ylanganligi va uyg‘unligi bilan ajralib turadi. Sharqning boshqa qadimiy yodgorliklaridan farqli o‘laroq, Hammurapi kodeksi individual huquqiy normalarning muqaddas va diniy motivlarining deyarli yo‘qligi bilan ajralib turadi, bu esa uni insoniyat tarixidagi birinchi sof qonunchilik hujjatiga aylantiradi. Bu qonunlar qaysidir jihati bilan shafqatsizlik, ayol va er huquqlarida tenglik bo‘lmaslik, inson qadr-qimmatiga e’tibor berilmaganligi jihatlari bo‘lsada, oila munosabatlaridagi jarayonlarga qo‘llanilgan ayrim tartib-qoidalar ahamiyatlidir. Hammurapi qonunlarining oila munosabatlariga daxldor ayrim qoidalarini davlatimiz qonunchiligida joriy etsak, balkim “muqaddas” deya ta’riflanuvchi oilalarni saqlanishi, ajrimlar holatini kamayishi, ota va o‘gil o‘rtasidagi munosabatlarga doir salbiy illatlarni yo‘qotilishiga xizmat qilishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Avdiyev A. Qadimgi Sharq tarixi. Toshkent. 1984.
2. Kabirov A. Qadimgi Sharq tarixi. Toshkent. 2016.
3. Kurshkol. Y. S. Qadimgi dunyo tarixi. 1-tom. Toshkent. 1975.
4. Rajabov R. Qadimgi dunyo tarixi. O‘quv qo‘llanma. Toshkent. 2009.
5. Rajabov R. Jahon tarixi. I-qism. Darslik. Toshkent. 2015.
6. www.wikipedia.uz. internet sayti

QADIMGI DUNYONING “TO‘RT IQLIM PODSHOLARI”

*Hasanboyev To‘raqul Foziljon o‘g‘li - Jizzax davlat pedagogika universiteti Tarix fakulteti o‘qituvchisi,
Qo‘chqarova Maftuna Akrom qizi - Jizzax davlat pedagogika universiteti Tarix fakulteti talabasi*

Annotatsiya. Ushbu maqolada Ikki daryo oralig‘i sivilizatsiyasida tashkil topgan davlatlarda o‘z faoliyati amalga oshirgan, 5 ta “To‘rt iqlim podshosi” nomiga sazovor bo‘lgan hukmdorlar va ularning amalga oshirgan ishlari xususida ma‘lumotlar keltirilgan. Ushbu “To‘rt iqlim podsholari”ning o‘z davlati hududini kengaytirish, aholining ijtimoiy-iqtisodiy hayotini rivojlantirish uchun qilgan ishlari tarixi mavjud manba va adabiyotlar tahlili asosida yoritib berildi.

Kalit so‘zlar: Mesopatamiya, “To‘rt iqlim podshosi”, Sargon I, “Haqiqiy podsho”, muntazam qo‘shin, Naram-Suen, Shulgi, Gandash, Agum II, Esagil ibodatxonasi,

Insoniyat tarixida ibtidoiy jamoadan sivilizatsiyaga o‘tish shaharlarning paydo bo‘lishi, ularning hokimiyat va diniy markaz sifatida shakllanishi ibodatxona, saroylar qurilishi, yozuvni paydo bo‘lishi bilan va shuningdek, jamiyatda turli sinflar va davlatchilikni paydo bo‘lishi bilan boshlanadi. Qadimgi sivilizatsiyalar davri, qadimgi dunyo tarixi fani tomonidan o‘rganiladi. Tabiiyki, sivilizatsiyalar tarixi qadimgi sharqda eramizdan avvalgi IV ming yilliklardan jamiyatning taraqqiyoti natijasida turli ijtimoiy qatlamlarni paydo bo‘lishi bilan boshlanadi.

Qadim Sharqning muhim sivilizatsiya o‘chog‘i sifatida talqin qiluvchi Mesopatamiya hududi o‘zining shonli yo‘lini, davlatchiligini va o‘zining keng islohotlari tufayli dunyoga tanitgan hukmdorlari orqali tarixdan joy olgan. Ta‘rixdan ma‘lumki, Ikki daryo oralig‘ida tashkil topgan davlat hukmdorlari ko‘p asrlar davomida hukmronlikni qo‘ldan bermay kelishgan. Mesopatamiya hududi o‘zining siyosiy va iqtisodiy keng imkoniyatlari tufayli bu yerda kuchli va markazlashgan davlatlar paydo bo‘la boshlagan. Ushbu maqola orqali Mesopotamiya hamda Bobil tarixidagi o‘tgan eng kuchli hukmdorlar va ularning faoliyati bilan tanishamiz.

Mesopatamiya davlatchiligi tarixida yorqin iz qoldirgan, Shumer va Akkad davlatlari o‘rtasidagi urushda g‘alaba qozonib, ularni birlashtirgan hukmdor bu-Sargon I (2316-2261) edi. Ma‘lumotlarga qaraganda, Sargon I kambag‘al oilada tug‘ilgan va onasi uni boqishga iloji bo‘lmay tashlab ketgan. Ma‘buda Ishtar esa uni yoqtirib, Akkadga podsho etib ko‘tarar ekan. Sargon I Sharukkin “Haqiqiy podsho” degan ma‘noni anglatadi. [Kabirov A. 2001. 70-b.].

Sargon I markaziy hokimiyatni mustahlamlanish va tashqi xavflarni bartaraf etish uchun kurash olib boradi va kuchli qo'shin bilan Kishni bosib oladi. Undan keyin, Sargon I Umma hokimi Lugal-zagis va uni qo'llab quvvatlagan 50 hukmdor qo'shinlarini tor-mor etgan. [Kabirov A. 2001. 70-b.]. Natijada, Sargon I ko'plab chiroyli shaharlarni o'zida jamlagan Shummerni egallaydi va ikki davlat hududini birlashtirib, Mesopotamiya va Old Osiyoni o'z ichiga olgan ulkan davlat barpo etadi.

Shuni alohida aytib o'tish joizki, jahon tarixidagi muntazam qo'shin ham ilk bor Sargon I davrida tuzilgan. Uning soni 5400 nafarni tashkil etgan. Sargon o'zining 55 yillik hukmronligi davrida mamlakatning iqtisodiy va harbiy qudrati oshirdi. Bosib olingan hududlardagi qo'zg'olonlarni shafqatsizlik bilan bostirganiga qaramay, nafaqat o'z xalqi, balki qo'l ostidagi barcha hudud aholisining ham manfaatlaridan kelib chiqqan holda farmon va qonunlar qabul qildi. U mamlakat iqtisodiyotining ravnaqi uchun olib borgan islohotlari barcha uchun bir xil bo'lgan o'g'irlik, uzunlik o'lchov birliklarini joriy etilishi bo'lgan [Rajabov R. 2009. 88-b.]. Bu islohotlar va qilingan ishlar tarixi Sargon I ga "To'rt iqlim podshosi" unvonini olib keldi.

Sargon I dan so'ng uning vorislari davrida ham Mesopotamiyada o'z maqomini yo'qotmadi, davlat hududini kengaytirish uchun ko'plab yurishlar olib borildi. Bu ishlarni amalga oshirish Sargon I ukasi Naram-Suenga nasib qildi. Naram-Suen Suriya, Falastin, Subarti, Elam va Fors qo'ltig'i sohilidagi mamlakatlarni o'ziga itoat ettirgan. U "To'rt iqlim podshosi" unvonini olib, o'zini xudo darajasiga ko'targan [Kabirov A. 2001. 71-b.]. Naram Suen akasi davrida egallangan hududlar o'z ta'sirini yo'qotmadi va uning hukmronligi ham Akkad davlatini yuqori cho'qqiga olib chiqqan.

Mesopotamiyadagi keyingi siyosiy jarayonlar va davatlar o'rtasidagi urushlarda Ur shahar davlati siyosiy kurash maydoniga chiqadi. Urning 3-sulolasi vakillari o'zlarini Shumer va Akkad podsholari deb, hatto "Dunyoning 4 iqlim podsholari" deb atashganki, bu narsa butun dunyoda hukmronlik qilishga da'vogar bo'lishdan dalolat beradi. Ba'zida ular hatto xudolar deb ataladilar (bunda Akkad podshosi Naram Suen ularga ibrat bo'lgan)[Krushkol Y.S. 1974].

Ur 3-sulolasi Shummer-Akkad podsholigini 115 yil idora qilgan. Bu sulola vakillari, xususan, Shulgi (2109-2046) davrida Suriya, Falastin, Elam, Kichik Osiyo va boshqa o'lkalar hisobiga podsholik yerlari kengaytirilgan. Shulgi ham o'zini "To'rt iqlim podshosi" deb atagan [Kabirov A. 2001. 72-b.] Uning davrida mamlakat xo'jaligi, hunarmandchilik, chorvachilik va savdo-sotiq ishlariga katta e'tibor berilgan. Qo'shni davlatlar bilan keng miqyosda savdo aloqalari o'rnatilgan. Ishlab chiqarishni takomillashtirishga hissa qo'shgan va rag'batlantirgan.

Navbatdagi fikr yuritmoqchi bo'lgan hukmdor ham o'z faoliyati tarixida yuqorida keltirilgan rutabaga ega bo'lgan. Bunda Bobil davlatining zaiflashuvi kassit

qabilalarini faollashtirdi. Mil.avv. 1742-yilda kassitlar sardori Gandash Bobilga bostirib kirib “O’zini to’rt iqlim podshosi” deb e’lon qilgan. U Shumer, Akkad va Bobil hukmdori sifatida kassitlar sulolasiga asos solgan [Kabirov A. 2016. 129-b.].

Mil.avv. XVI asr boshlaridan boshlab mamlakatda kassitlar sulolasining hukmronligi Bobil podsholigining O’rta davri deb atalgan. Kassit sulolasi podsholari mil.avv.1155-yilgacha Bobilda hukmronlik qilgan. Ular Bobilni bosib olgach, bobilliklarning madaniyatini qabul qilganlar. Kassitlar Bobilda mutahkam o’rnashib olganlaridan so’ng. Shimoliy-g’arbda xetlar qarshiligini sindirib, janubdagi dengizbo’yi sulolasi qo’shinlarini mag’lubiyatga uchratib, u yerlarni ham o’zlariga itoat ettirganlar [Kabirov A. 2016. 129-130-b.].

O’rta Bobil podsholigi Agum II davrida ya’ni mil.avv.XVI asrda kuchayadi Agum II va uning vorislari Qadimgi Bobil podsholigining istilochilik sivosatini davom ettirib, butun Shumerni o’zlariga itoat ettiradilar. So’ng dengizbo’yi sulolasining hukmronligiga barham berganlar. Agum II davrida Bobil kuchayib, uning qo’shinlari Yuqori Frot mamlakatlarini istilo qilgan. Agum II o’z yozuvlarida Xanaan mamlakatidan xudo Marduk va uning xotini Sarpanitning haykallarini keltirganligini, bu haykallarni zarbof kiyimlar, qimmatbaho narsalar va dabdabali toshlar bilan bezaganligini hamda bu xudo haykallarini Bobildagi Esagil ibodatxonasiga qaytadan o’rnatganligini faxr bilan gapirgan [www.wikipedia.org. internet sayti].

Bevosita ko’rinib turibdiki, ushbu voqealar bayonida Agum II ning mashur haykallarni Esagil ibodatxonasiga qaytarilishi uning din va madaniyat faoliyatiga e’tiborini ko’rsatib turibdi. Ya’ni ushbu haykallarning faqatgina moddiy qiymati emas, balki tarixiylik darajasi yuzasidan ham hukmdorning e’tiborini tortgan. Tarixiy ma’lumotlarga qaraganda, ushbu haykallar ibodatxonaga 25 yildan so’ng keltirilgan.

Agum II o’zini “Kashshu va Akkad podshosi, keng Bobil mamlakatining podshosi, Guti mamlakatining podshosi” deb ham atagan [Kabirov A. 2016. 130-b.]. Ushbu holat kassitlar podshosining hokimiyati Dajla daryosining sharqidagi viloyatlarga ham yoyilganligini ko’rsatadi. Ushbu qilingan ishlar podsho Agum II ga ham “To’rt iqlim podshosi” unvoni berilishiga olib kelgan.

Ushbu hukmdorlarning deyarli barchasi Ikki daryo oralig’i hududlari, xususan, Shummer va Akkad davlatlarini birlashtirganlar. Nega aynan “To’rt iqlim podshosi” unvoni? – bunga sabab qilib Mesopotamiya xalqi qarashlaridan kelib chiqish mumkin. Ular dunyoni 4 tomoni – shimol, janub, sharq va g’arbni ajrata bilganlar va ular eng qudratli hukmdorlarini “Dunyoning to’rt burchagi egasi” yoki “To’rt iqlim podshosi” kabi ramziy nomlar bilan atashgan. Bu dunyo ustida hukmronlik demakdir.

Xulosa o’rnida aytish mumkinki, Ikki daryo oralig’ida faoliyat ko’rsatgan turli davlardan turli vaqtlarda birlashtirib, o’z davlatini har tomonlama rivojlantira olgan

ayrim hukmdorlargina tarixda “To’rt iqlim podshosi” unvoniga sazovor bo’lgan. Bu unvonga ega bo’lish faqatgina harbiy yurishlar bilangina emas, davlat miqyosida o’tkazilgan, xalq uchun foydali, keng islohotlar natijasida hukmdorlarga berilgan. Demak, har ikki davlat hududi (Shummer va Akkad) hamda Sharqiy O’rtayer dengizi davlatlarining kuch-qudrati aynan bir hukmdor qo’l ostida bo’lishi bu judayam katta jasorat, kuch-qudrat va davlat boshlig’i salohiyatining yuqori saviyasidan darak beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:

- 1.Kabirov A. Jahon tarixi. Toshkent. 2001.
- 2.Kabirov A. Qadimgi Sharq tarixi. Toshkent. 2016.
- 3.Krushkol Y. S. Qadimgi dunyo tarixi. 1-qism. Toshkent. 1974.
- 4.Rajabov R. Qadimgi dunyo tarixi. Toshkent. 2009.
5. www.wikipedia.org. internet sayti

MUHAMMAD ALIXON DAVRIDA QO'QON XONLIGI

*Hasanboyev To'raqul Foziljon o'g'li - Jizzax davlat pedagogika universiteti Tarix fakulteti o'qituvchisi,
Niyazova Mexrangiz Alisherovna - Jizzax davlat pedagogika universiteti Tarix fakulteti talabasi*

Annotatsiya. Ushbu maqolada Qo'qon xonligi tarixida o'tgan 30 dan ortiq xonlar ichida o'z o'rniga ega bo'lgan Muhammad Alixon (Madalixon) faoliyati tarixi haqida so'z boradi. Madalixon Qo'qon adabiy muhiti shakllantirib bergan Umarxonning o'g'li bo'lib, uning Qo'qon xonligidagi faoliyati va tutgan o'rni mavjud manba hamda adabiyotlar tahlili asosida, xolis yoritib berildi.

Kalit so'zlar: Qo'qon xonligi, Umarxon, Qo'qon adabiy muhiti, Muhammad Alixon, Qo'qon yurishi, Xonariq, madrasalar, Rossiya bilan aloqalar, kanizak muammosi, Amir Nasrullo.

XIX asr boshlarida Turon zaminida 3 ta xonlik faoliyat ko'rsatgan bo'lib, ulardan eng yirigi Qo'qon xonligi edi. Tarixdan ma'lumki, Qo'qon xonligiga Shoxruhbiy ibn Ashur Muhammad 1710-yilda asos solgan. Qo'qon xonligi (1710-1876) tarixan qisqa vaqt bo'lsa-da, O'rta Osiyo xalqlarining siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayotida katta ro'l o'ynagan. Ayniqsa, o'zbek davlatchiligining uzviy bo'lagi bo'lgan Qo'qon xonligi va uning ma'muriy-boshqaruv tizimini aniq faktlarga tayangan holda ochib berish, tahlil qilish tarix fani uchun dolzarb ahamiyatga egadir.

Bu xonlik davlat tuzilishining ko'p xususiyatlari bilan boshqa O'rta Osiyo xonliklariga o'xshash bo'lgan bo'lsa-da, undagi davlatni idora etishga mas'ul bo'lgan shaxslar, boshqaruv tizimining ayrim bo'g'inlari funksiyalarida keskin farqlar bor edi[Ermatova M. 165-b.].

Qo'qon xonligi faoliyati tarixida 35 ta xonlar o'tgan bo'lib, ular orasida Madalixon nomi ostida Muhammad Alixon alohida o'rin tutadi. Madalixon Umarxon va Nodiraning o'g'li bo'lib, otasi vafotidan keyin 13 yoshida taxtga o'tirgan. Ma'lumki, Qo'qon xonligida XIX asr boshlarida Qo'qon adabiy muhiti degan narsa paydo bo'ladi. Bu madaniy muhit, uning shakllanishi va rivojlanishi bevosita Qo'qon xoni Umarxon va uning turmush o'rtog'i Mohlaroyim nomlari bilan bog'liqdir[Asqarov A. 1994. 183-185-b.].

Bu davrda Qo'qon xonligida tarixnavislik, xattotlik, me'morchilik, adabiyot va she'riyat sohalari har qachongidanda yuksak rivojlanadi. Bu davr voqealari muarrixlarning ajoyib tarixiy asarlarida o'z aksini topdi.

Qo'qon xoni Umarxon qisqa vaqt hukmronlik qilgan bo'lib, ayrim tarixiy manbalarda yozilishicha, mayparast va mayishatparast sifatlari bilan unga ta'rif berilgan. Umarxon 36 yoshida vafot etadi va otasining vafotidan so'ng Qo'qon xonligi taxtiga yosh Madalixon o'tiradi. Madalixon hukmronlik qilgan davrda Qo'qon xonligi bir qadar rivojlangan hisoblanadi.

Muhammad Alixon siyosiy tarixi haqida fikr yuritadigan bo'lsak, u hukmronlik davrida xonlik hududini kengaytirishga uringan. Yurishlar natijasida, Qorategin butunlay, Darvoz, Shug'on, Roshan, Vohonfaqat nomigagina zabt etilgan. Madali 1829-yilda Qashqarga yurish qilgan va uning bu harakatidan foydalangan Qashqar musulmonlari Xitoyga qarshi bosh ko'targan [Bobobekov H. 1996. 234-b.]. Shiddatli janglarda mag'lub bo'lgan uyg'urlardan 70 mingi Muhammad Alixon bilan birga qaytib, Qo'qon xonligidagi shaharlarga joylashtirilgan.

Muhammad Alixon uyg'urlar yurti sifatida qaraluvchi - Qashqarga qilgan qayta-qayta hujumi natijasida Sharqiy Turkiston shaharlaridan boj yig'ish huquqini olgan. Muhammad Alixon hukmronligi davrida sug'orish ishlari yo'lga qo'yilgan bo'lib, Toshkent yaqinida Xonariq qazilgan. Toshkent hokimi Lashkar qushbegi Muhammad Alixonning yaqin maslahatchisi bo'lib qolgan [Бобоев Х., Хидиров З. 2009. 76-78-b.].

Muhammad Alixon qisqa vaqt hukmronlik qilgan bo'lsada, Rossiya bilan savdo va diplomatik aloqalarni yaxshi yo'lga qo'ya oldi. Manbalarda yozilishicha, 1828-yilda Qo'qondan Sankt-Peterburgga elchilar boradi va ular yaxshi kutib olinadi. Aloqalar davomida 1830-yilda Qo'qonga Rossiya elchisi xorunjiy Potanin keladi [O'z.ME.2000. 328-330-b.]. Kichik Juz qozoq xonligining hududi masalasida ikki davlat o'rtasidagi munosabatlar buzilib, aloqalar ma'lum vaqt olib borilmaydi.

Muhammad Alixon g'azallar yozgan, uning buyrug'iga binoan, xattotlar Alisher Navoiy asarlarini miniatyuralar bilan bezatib ko'chirgan, ko'plab tarixiy asarlar fors va arab tillaridan o'zbek tiliga tarjima qilingan. Muhammad Alixon davrida maktab va madrasalar qurilgan, Qo'qonning eski o'rdasi ta'mirlangan. Shaxsan Muhammad Alixon donatorligida Quva, Qo'qon va Toshkentda uning nomi bilan atalgan madrasalar bunyod etilgan [www.wikipedia.uz. internet sayti].

Muhammad Alixon hukmronligining so'nggi yillarida ichkilikbozlik va axloqsizlikka beriladi. Muhammad Alixonning hukmronlik davrida Qo'qon-Buxoro munosabatlari keskin yomonlashadi. Ular orasida bo'lib o'tgan urushlar natijasida Buxoro amirligi hukmdori Amir Nasrulloh Qo'qon qo'shinini tor-mor qiladi. Muhammad Alixon o'zini noiloj amirning noibi deb e'tirof qiladi. Oradan ikki yil o'tgach, 1841-yilning oktyabrida Qo'qonda xon zulmiga qarshi xalq qo'zg'oloni ko'tariladi. Muhammad Alixon 1841-yil noyabrda ukasi Sulton Mahmud foydasiga taxtdan voz kechadi, shunday bo'lsa ham 1842-yilda aprelda Buxoro amirligi

hukmdori Amir Nasrulloh Qo‘qonni zabt etdi [Исҳоқхон тўра Ибрат. 2005. 152-б.].

Madalixon bilan Buxoro amiriligi o‘rtasida turli xil ziddiyatlar bo‘lgan bo‘lib bunga asosiy sabab m‘alum bir hududlar sabab bo‘lgan bo‘lsada, ba‘zi adabiyotlarida bunga sabab qilib Otasi Umarxondan beva qolgan yosh go‘zal kanizak sababli deya aytib o‘tilgan.

Otasi Umarxon haramida voyaga yetmagan go‘zal kanizagi bo‘lib, yovaya yetishi bilan Umarxonga nikohlanishi kerak edi. Ammo bo‘lg‘usi o‘gay onasi bo‘lmish kanizakni Umarxonning vafoti tufayli ammalga oshmay qolgan nikohdan so‘ng Muhammad Alixon o‘z nikohida olish istagini bildiradi [Bobobekov H. 1996.]. Diniy ulamolar bunga qarshi chiqib, asosiy sabab qilib garchan otasi uylanmagan bo‘lsada kanizak Madalixonga ona maqomida hisoblanib shariyat bo‘yicha ruxsat berilmasligi aytib o‘tilsada Madalixon otasi Umarxonning bevasi bo‘lmish kanizakka uylanadi va hattoki nikohini qonuniylashtiradi.

Xulosa qiladigan bo‘lsak, Madalixon hukmronligi davrida davlatni birlashtirish harakatlari davom ettirildi. Davlatning qudratlilik jihatlari ta‘minlandi, aholining ijtimoiy-iqtisodiy hayoti nisbatan bo‘lsada, yaxshi davom etdi. Madalixon tarix sahnasida ba‘zi yaxshi ba‘zi yomon hislatlari bilan eslab o‘tilsada, Qo‘qon xonligini 20 yil davomida boshqardi. Madalixon hukmronligining so‘nggi yillarida ichkilikka va maiyshatga ruju qo‘ygan bo‘lib, davlat ishlariga befarq bo‘lib qoladi. Bundan foydalangan amir Nasrulloxon 1842-yilda Qo‘qon xonligiga bostirib kiradi va Madalixonni va oilasini qatl ettiradi. Bir jihatdan olib qarasa, bunday birgina hukmdorning salohiyatsizligi, nomaqbul siyosati Qo‘qon adabiy muhitini ma‘lum vaqtgacha rivojlanishini to‘xtatib qo‘ydi.

Foydalangan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Asqarov A. O‘zbekiston tarixi. Toshkent. 1994.
2. Bobobekov H. Qo‘qon tarixi. Toshkent. 1996.
3. Бобоев Х., Хидиров З. ва бошқ. Ўзбек давлатчилиги тарихи. 2-китоб. Тошкент. 2009.
4. Ermatova M. Qo‘qon tarixining o‘rganilishi. // Oriental Journal of Social Sciences. 2022.
5. Исҳоқхон тўра Ибрат. Тарихи Фарғона. Тошкент. 2005.
6. O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi. Birinchi jild. Toshkent. 2000.
7. www.wikipedia.uz. internet sayti.

THE PRACTICAL IMPORTANCE OF THE INTERNATIONAL PISA

*Andijan State Institute of Foreign Languages
English philology, teaching methodology
And Faculty of Translation Studies
Guiding and interpreting activities
Student of group 301 - Abdug'aniyeva Mushtariy
Scientific supervisor: Ahmedov Azimjon*

Abstract: This article describes PISA (Programme for International Student Assessment) as an international assessment program that serves to evaluate the practical application of education and students' literacy in various subjects. It focuses on applying acquired knowledge and skills to real-life situations, making informed decisions, independent thinking, and further shaping a worldview.

Keywords: Skill, experience, innovation, program, Research, global education, teaching training, analysis, international Collaboration

PISA(The programme for International Student Assessment) is an international assessment that measures 15-year-old students' knowledge and skills in science, mathematics, reading literacy, and problem-solving. It includes students from many developed and developing countries and assesses their ability to apply their knowledge and skills to real-world situations, including critical thinking, analysis, application, and innovative thinking.

PISA is considered to be of significant importance in improving the quality of education. That is, PISA results allow for the improvement of curricula, teacher training, and other aspects of the education system. Furthermore, by comparing with education systems in other countries, it helps in formulating strategies to improve student learning. Additionally, PISA encourages international collaboration and facilitates the exchange of research and data in the field of education.

PISA has several key objectives. These include: International Comparison: PISA allows for the comparison of students' knowledge and skills across different countries. Assessment of Educational Quality: PISA helps evaluate the effectiveness of education systems and identify their strengths and weaknesses. Improving Educational Policies: PISA provides data necessary for improving curricula and enhancing educational policies. Assessing Educator Preparedness: PISA is also used to assess the competence of teachers, principals, and other education professionals.

PISA's dimensions are: Reading: Assesses students' abilities to understand, interpret, and reason using texts. Mathematics: Assesses students' abilities to solve

problems, think logically, identify patterns, and generalize. Science: Assesses students' abilities to understand natural phenomena, conduct experiments, and analyze results.

Conculation

PISA results influence educational policy, teacher training, various standards for measuring student knowledge, and play a significant role in evaluating the global values of education systems. PISA provides valuable data on the quality of education according to international standards.

References:

1. OECD. (2014). "PISA 2012 Results: Effective Policies, Successful Schools". Volume II. OECD Publishing. This report details effective school policies based on PISA results.
2. OECD. (2016). "PISA 2015 Results (Volume I): Excellence and Equity in Education". OECD Publishing. Comprehensive findings and analyses from the 2015 PISA cycle, focusing on the relationship between educational equity and quality.
3. OECD. (2019). "PISA 2018 Results: What Students Know and Can Do". Volume I. OECD Publishing. This volume presents the results from the 2018 assessment, including data on reading, mathematics, and science.
4. OECD. (2020). "PISA 2018 Results (Volume II): Where All Students Can Succeed". OECD Publishing. Analysis of factors that contribute to student success in various contexts.
5. McKinsey & Company. (2021). "How the World's Best-Performing Schools Come Out on Top". Examination of high-performing school systems and the strategies that have led to their success, informed by PISA findings.

Used web-sites:

<https://www.wikipedia.org/>

<https://www.oecd.org/en/about/programmes/pisa.html>

UMUMTA'LIM MAKTABLARIDA QIZIQARLI MATEMATIKA MASALALARI

Mamatova Zilolaxon Xabibuloxonovna

*Farg'ona Davlat Universiteti dotsenti,
Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)*

Abdulazizova Zulayho Abduhamid qizi

Farg'ona Davlat Universiteti talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqola matematik ta'limda qiziqarli masalalarni qo'llash va ularning samaradorligini o'rganishga qaratilgan. Mualliflar matematik fikrlash, muammolarni hal qilish ko'nikmalarini rivojlantirish va o'quvchilarning qiziqishini oshirish uchun turli metodologiyalarni ko'rib chiqadilar. Kitoblar, maqolalar va onlayn resurslar orqali taqdim etilgan materiallar ta'lim jarayonida muammolarni hal qilishning ahamiyatini va ular orqali o'quvchilarni jalb qilishning samarali usullarini yoritadi. Maqola matematik ta'limga oid ilmiy tadqiqotlar va amaliy tajribalarni birlashtirgan holda, o'qituvchilar va ta'lim mutaxassislari uchun foydali manba bo'lib xizmat qiladi.

Аннотация: Данная статья посвящена применению интересных задач в математическом образовании и их эффективности. Авторы рассматривают различные методики развития математического мышления, навыков решения задач и вовлечения учащихся. Материалы, представленные в книгах, статьях и онлайн-ресурсах, подчеркивают важность решения проблем в обучении и эффективные способы вовлечения учащихся посредством решения проблем. Статья представляет собой полезный ресурс для учителей и специалистов в области образования, сочетающий научные исследования и практический опыт математического образования.

Abstract: This article focuses on the use of interesting problems in mathematics education and their effectiveness. The authors consider various methodologies for developing mathematical thinking, problem-solving skills, and increasing student interest. The materials presented in books, articles, and online resources highlight the importance of solving problems in the educational process and effective ways to engage students through them. The article serves as a useful resource for teachers and education professionals, combining scientific research and practical experience in mathematics education.

Kalit so'zlar: matematik ta'lim, muammolarni hal qilish, qiziqarli masalalar, matematik fikrlash, ta'lim metodologiyalari, o'quvchilarning qiziqishi, amaliy tajribalar.

Ключевые слова: математическое образование, решение задач, интересные задачи, математическое мышление, методики обучения, интерес учащихся, практический опыт.

Keywords: mathematics education, problem solving, interesting problems, mathematical thinking, educational methodologies, student interest, practical experiences.

Umumta'lim maktablarida matematika ta'limi o'quvchilarning umumiy rivojlanishi uchun juda muhimdir. Matematika nafaqat raqamlar va formulalar bilan bog'liq, balki mantiqiy fikrlash, muammolarni hal qilish va analitik qobiliyatlarni rivojlantirishga yordam beradi. Ushbu fan orqali o'quvchilar:

- Mantiqiy fikrlashni rivojlantiradilar: Matematika masalalarini yechish jarayonida o'quvchilar mantiqiy xulosalar chiqarishni, muammolarni turli xil yondashuvlar bilan hal qilishni o'rganadilar.

- Muammolarni hal qilish ko'nikmalarini oshiradilar: Qiziqarli masalalar orqali o'quvchilar muammolarni aniqlash, tahlil qilish va yechish strategiyalarini ishlab chiqish ko'nikmalarini egallaydilar.

- Ijodkorlikni rag'batlantiradilar: Qiziqarli va noan'anaviy masalalar o'quvchilarning ijodkorligini oshiradi, chunki ular o'z fikrlarini ifodalash va yangi yechimlarni izlashga undaydi.

- Qiziqishni oshiradilar: o'ziga jalb qiluvchi masalalar orqali matematika darslari yanada qiziqarli bo'ladi. o'quvchilar o'z bilimlarini amaliyotda qo'llash imkoniyatiga ega bo'lishadi, bu esa ularning fan ga bo'lgan qiziqishini oshiradi.

- o'z-o'zini baholashni rivojlantiradilar: Qiziqarli masalalarni yechish jarayonida o'quvchilar o'z bilimlarini baholash va o'zlashtirish darajasini aniqlash imkoniyatiga ega bo'lishadi, bu esa ularning o'z-o'zini rivojlantirishiga yordam beradi.

Umumta'lim maktablarida matematika ta'limining ahamiyatini oshirish uchun o'qituvchilar qiziqarli masalalarni tanlash va ulardan foydalanishlari zarur. Bu nafaqat ta'lim jarayonini jonlantiradi, balki o'quvchilarning matematikaga bo'lgan qiziqishini ham oshiradi, natijada ularning muvaffaqiyatlarini ta'minlaydi.

Maqolamizning maqsadi qiziqarli matematik masalalarni tanlash va ularni ta'lim jarayonida samarali qo'llash orqali o'quvchilarning matematikaga bo'lgan qiziqishini oshirishdir. Bunday masalalar o'quvchilarning fikrlash qobiliyatini rivojlantirish, ijodkorlikni rag'batlantirish va muammolarni hal qilish ko'nikmalarini oshirishga yordam beradi.

Qiziqarli matematik masalalarni tanlashda ko'zda tutilgan vazifalar quyidagilar bo'lishi mumkin:

* Mantiqiy fikrlashni rivojlantirish: Masalalar o'quvchilarga mantiqiy xulosalar chiqarishga va o'z fikrlarini tizimli ravishda ifodalashga yordam berishi kerak.

Namuna masala*: "Agar birinchi raqam 3 ga teng bo'lsa, ikkinchi raqam 5 ga teng bo'lsa, u holda bu raqamlarning yig'indisi va farqini toping."

* Muammolarni hal qilish ko'nikmalarini oshirish: Masalalar turli xil yondashuvlar bilan yechishga imkon berishi va o'quvchilarni muammoni tahlil qilishga undashi lozim.

Namuna masala*: "Bir bog'da 12 ta olma va 8 ta nok bor. Agar siz 4 ta olma va 2 ta nokni olib ketsangiz, bog'da qancha meva qoladi?"

* Ijodkorlikni rag'batlantirish: o'quvchilarni yangi yechimlarni izlashga undovchi masalalar tanlanishi kerak.

Namuna masala*: "Sizda 10 ta turli rangdagi to'p bor. Agar siz har bir rangdan 1 tadan olib, ularni qanday qilib eng ko'p rangli to'pni olish yo'lida tartibga solishingiz mumkin?"

* Amaliyotga oid masalalar: o'quvchilarga kundalik hayotda uchraydigan vaziyatlardan kelib chiqqan masalalarni taklif etish.

Namuna masala*: "Agar bir kilogramm kartoshka 50 so'm bo'lsa, 3 kilogramm kartoshka xarid qilish uchun qancha pul kerak?"

* Qiziqarli va interaktiv masalalar: o'quvchilarni jalb qiladigan, guruhda yoki juftlikda ishlashga imkon beradigan masalalar.

Namuna masala*: "Sizda 20 ta shokolad bor. Agar siz bu shokoladlarni 4 do'stingiz bilan teng taqsimlasangiz, har biringizga qancha shokolad to'g'ri keladi?"

Ushbu vazifalar orqali o'quvchilar matematikani nafaqat nazariy jihatdan, balki amaliyotda ham o'rganadilar, bu esa ularning bilimlarini yanada mustahkamlashga yordam beradi.

Matematika ta'limida qiziqarli masalalar o'quvchilarning diqqatini jalb qilish, motivatsiyasini oshirish va fikrlash qobiliyatini rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi. Qiziqarli masalalarni tanlash jarayoni bir qancha omillarni hisobga olishni talab qiladi. Quyida masalalarni qanday tanlash va ularning ta'limiy jihatlari haqida ma'lumot beramiz.

- o'quvchilarning qiziqishlarini inobatga olish

Masalalarni tanlashda o'quvchilarning qiziqishlari va ehtiyojlarini hisobga olish muhimdir. o'quvchilarni qiziqtiradigan mavzular, masalan, sport, san'at, tabiiy fanlar yoki kundalik hayotdagi muammolar bilan bog'liq masalalar, ularning matematikaga bo'lgan qiziqishini oshiradi.

Misol: "Agar sizning sevimli sportingiz futbol bo'lsa, futbol o'yinlari bilan bog'liq masalalarni taklif qilish orqali ularni yanada qiziqtirish mumkin."

- Mantiqiy fikrlash va muammoni hal qilish ko'nikmalarini rivojlantirish

Tanlanadigan masalalar o'quvchilarga mantiqiy fikrlashni rivojlantirishga yordam berishi kerak. Masalalar turli yondashuvlar bilan yechishga imkon berishi va o'z fikrlarini tizimli ravishda ifodalashga undashi lozim.

Misol: "Bir kunda 5 ta kitob o'qiyotgan o'quvchi 7 kun ichida qancha kitob o'qiydi?" Ushbu masala o'quvchilarni ko'paytirish va yig'indilarni hisoblashga undaydi.

- Amaliyotga oid masalalar

o'quvchilarga kundalik hayotda uchraydigan vaziyatlardan kelib chiqqan masalalarni taklif etish, ularning matematikani amaliyotda qo'llash ko'nikmalarini rivojlantiradi. Bu, shuningdek, matematikani haqiqiy hayot bilan bog'laydi.

Misol: "Agar siz supermarketda 3 ta olma va 2 ta nok sotib olsangiz, jami qancha pul to'lashingiz kerak?" Bu savol o'quvchilarga arifmetik amallarni amaliy ravishda qo'llash imkonini beradi.

- Ijodkorlikni rag'batlantirish

Tanlanadigan masalalar o'quvchilarni ijodkorlikka undashi va yangi yechimlarni izlashga imkon berishi kerak. Bu, o'z navbatida, o'quvchilarning mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi.

Misol: "Sizda 10 ta rangli to'p bor. Agar siz ularni qanday qilib eng ko'p rangli to'pni olish yo'lida tartibga solishingiz mumkin?" Ushbu savol o'quvchilarni ijodiy yondashuvlarga undaydi.

- Interaktiv va guruhda ishlashga imkon beruvchi masalalar

o'quvchilarni jalb qiladigan va guruhda yoki juftlikda ishlashga imkon beradigan masalalar tanlanishi kerak. Bunday masalalar o'zaro hamkorlik va fikr almashish orqali ta'lim jarayonini boyitadi.

Misol: "Agar sizda 20 ta shokolad bo'lsa va siz ularni 4 do'stingiz bilan teng taqsimlasangiz, har biringizga qancha shokolad to'g'ri keladi?" Bu masala o'quvchilarni birgalikda ishlashga undaydi.

Demak, qiziqarli matematik masalalarni tanlash jarayoni o'quvchilarning qiziqishini oshirish, mantiqiy fikrlash va muammolarni hal qilish ko'nikmalarini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega. o'quvchilarning qiziqishlari, amaliyotga oid vaziyatlar, ijodkorlikni rag'batlantirish va interaktiv yondashuvlar orqali matematikani o'rganishni yanada qiziqarli va samarali qilish mumkin. Bunday yondashuvlar nafaqat matematikani o'rganishni qiziqarli qiladi, balki o'quvchilarning bilimlarini mustahkamlashga yordam beradi.

o'quvchilar bilan ishlash metodlari: Masalalar bilan tanishtirish va ularni yechishga jalb qilish usullari. Matematika ta'limida o'quvchilarni masalalar bilan tanishtirish va ularni yechishga jalb qilish muhim vazifalardan biridir. Bu jarayonda turli metod va usullarni qo'llash o'quvchilarning qiziqishini oshirish, fikrlash

qobiliyatini rivojlantirish va muammolarni hal qilish ko'nikmalarini shakllantirishda samarali bo'ladi. Quyida ushbu jarayonda foydalanish mumkin bo'lgan ba'zi metodlar va ularning afzalliklari keltirilgan.

- Mashg'ulotlar — o'quvchilarga matematik masalalarni yechishda amaliy tajriba berishning samarali usulidir. Ular o'quvchilarning faol ishtirokini ta'minlaydi va mustaqil fikrlashga undaydi. Mashg'ulotlar davomida o'quvchilar turli masalalarni yechish orqali bilimlarini mustahkamlash imkoniyatiga ega bo'lishadi.

Afzalliklari:

- * o'quvchilar faol ishtirok etadilar.
- * Muammolarni hal qilish jarayonida tajriba orttiradilar.
- * o'z fikrlarini ifodalash va baham ko'rish imkoniyatiga ega bo'lishadi.

- o'yinlar — o'quvchilarni masalalar bilan tanishtirish va ularni yechishga jalb qilishning qiziqarli va interaktiv usulidir. Matematik o'yinlar o'quvchilarga raqobat ruhini oshirish, hamda matematikani o'rganishni qiziqarli qilishga yordam beradi. Bu usul, shuningdek, guruhda ishlash ko'nikmalarini rivojlantiradi.

Misollar:

* "Matematik bingo": o'quvchilarga masalalar beriladi, ularning javoblari bingo kartasida joylashgan. To'g'ri javoblarni topgan o'quvchi g'olib bo'ladi.

* "Masala yutqazish": o'quvchilar juftliklarda ishlaydilar, har bir to'g'ri javob uchun ball to'playdilar.

Afzalliklari:

- * o'yinlar orqali o'quvchilar qiziqish va motivatsiya hosil qiladilar.
- * Stress darajasi kamayadi, bu esa o'qish jarayonini yengillashtiradi.
- * Guruhda ishlash ko'nikmalari rivojlanadi.

- Guruh ishlari — o'quvchilarni bir-biriga yordam berishga undaydigan va hamkorlikda muammolarni hal qilishga imkon beruvchi metoddir. o'quvchilar guruhlariga bo'lingan holda masalalarni yechishadi, bu esa ularning ijtimoiy ko'nikmalarini rivojlantiradi.

Afzalliklari:

- * o'quvchilar bir-biridan o'rganadilar va fikr almashadilar.
- * Boshqalar bilan hamkorlikda ishlash ko'nikmalari rivojlanadi.
- * Muammolarni turli yondashuvlar bilan hal qilish imkoniyati paydo bo'ladi.

- Masala muhokamalari — o'quvchilarga berilgan masalalarni birgalikda muhokama qilish va ularga turli yondashuvlarni ko'rib chiqish imkoniyatini beradi. Bu metod o'quvchilarning fikrlarini ifodalash va mantiqiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi.

Afzalliklari:

- * o'quvchilar o'z fikrlarini erkin ifodalaydilar.

- * Turli yondashuvlar orqali muammoni hal qilish imkoniyati yaratiladi.
- * o‘qituvchi va o‘quvchilar o‘rtasida munosabatlar mustahkamlanadi.

Ushbu fikrlar yakuni sifatida shuni aytish mumkinki, o‘quvchilarni masalalar bilan tanishtirish va ularni yechishga jalb qilishda turli metod va usullarni qo‘llash juda muhimdir. Mashg‘ulotlar, o‘yinlar, guruh ishlari va masala muhokamalari orqali o‘quvchilar nafaqat matematikani o‘rganadilar, balki ijodiy fikrlash, hamkorlik va mantiqiy fikrlash ko‘nikmalarini ham rivojlantiradilar. Bu yondashuvlar ta’lim jarayonini yanada qiziqarli va samarali qiladi, shuningdek, o‘quvchilarning bilimlarini mustahkamlashga yordam beradi.

Qiziqarli masalalarni umumta’lim maktablarida qo‘llash bo‘yicha tavsiyalar va kelajakdagi tadqiqotlar uchun yo‘nalishlar. Umumta’lim maktablarida qiziqarli masalalarni qo‘llash ta’lim jarayonini yanada samarali va qiziqarli qilishda muhim rol o‘ynaydi. o‘quvchilarni matematikaga qiziqtirish, ularning ijodiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirish va muammolarni hal qilish ko‘nikmalarini oshirish maqsadida, quyidagi tavsiyalarni keltirish mumkin:

- Masalalarni tanlashda diversifikatsiya: o‘quvchilarning turli darajadagi qobiliyatlarini hisobga olgan holda, masalalarni tanlashda xilma-xillikni ta’minlash kerak. Qiziqarli va ijodiy masalalar o‘quvchilarning motivatsiyasini oshiradi va ularni faol ishtirok etishga undaydi.

- Interaktiv yondashuvlar: Masalalarni yechishda interaktiv metodlarni qo‘llash, masalan, guruh ishlari, o‘yinlar va muhokamalar orqali o‘quvchilarni jalb etish. Bu usullar o‘quvchilarning bir-biridan o‘rganishiga, fikr almashishiga va hamkorlikda ishlashiga yordam beradi.

Interaktiv metodlarga quyidagini namuna qilib keltirishimiz mumkin:

3. “JUFTLIKDA ISHLASH” METODI

1. Biror mavzu bo‘yicha yonma-yon o‘tirgan o‘quvchilarga biror topshiriq (yoki alohida-alohida topshiriqlar) yoki berish va ularni birgalikda topshiriqda keltirilgan muammo (masala) yechimini topishga chorlash, yechimlarni eshitish va baholash.
2. Ba’zi hollarda o‘quvchilar bir-birlariga navbatma-navbat savol (masala) bilan yuzlanishlari ham mumkin. Bunday holda savol javobi (masala yechimi) savol (masala) bergan o‘quvchi tomonidan tinglanishi (tekshirilishi) va baholanishi lozim bo‘ladi.
3. Juftlikda ishlash mavzusini tanlayotganda alohida ehtiyot bo‘lish zarur. Bu mavzu ko‘pchilik tomonidan o‘zlashtirilgan bo‘lishi lozim, aks holda juftlarda ish ketmasligi mumkin.

NAMUNA:

A) Har bir o‘quvchi 1 minut davomida “O‘nli kasrlarni 10, 100, 1000 va hokazo sonlarga bo‘lish” mavzusiga oid 3 ta misolni tuzsin va o‘z partadoshi bilan almashsin. 3 minutdan keyin misollarga javobni qaytarib olsin va javoblarni 1 minut ichida tekshirib, baholasin.



- Kontekstual masalalar: o'quvchilarga hayotiy vaziyatlarga asoslangan masalalarni taklif etish, ularning matematik bilimlarini amaliyotda qo'llay olish qobiliyatini rivojlantiradi. Bu yondashuv o'quvchilarning matematikani real hayot bilan bog'lashlariga yordam beradi.

- o'qituvchilarni tayyorlash: o'qituvchilarni qiziqarli masalalarni yaratish va qo'llash bo'yicha malaka oshirish dasturlarini tashkil etish. o'qituvchilar yangi metodlar va yondashuvlarni o'zlashtirib, darslarda samarali qo'llay olishlari kerak.

- Tadqiqotlar va tajribalar: Kelajakdagi tadqiqotlar uchun yo'nalish sifatida, qiziqarli masalalarni qo'llashning ta'sirini o'rganish, o'quvchilarning motivatsiyasi, qobiliyatlari va natijalariga bo'lgan ta'sirini tahlil qilish zarur. Tadqiqotlar natijalari ta'lim jarayonini takomillashtirishda muhim manba bo'ladi.

Alhosil, qiziqarli masalalarni umumta'lim maktablarida qo'llash — bu o'quvchilarning matematikaga bo'lgan qiziqishini oshirish, ijodiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish va muammolarni hal qilish qobiliyatlarini mustahkamlash uchun samarali usuldir. Yuqoridagi tavsiyalar va kelajakdagi tadqiqot yo'nalishlari orqali ta'lim jarayonini yanada takomillashtirish va o'quvchilarning muvaffaqiyatini oshirish mumkin.

Xulosa

Ushbu maqolada umumta'lim maktablarida qiziqarli masalalarni qo'llashning ahamiyati va samaradorligi tahlil qilindi. Olingan natijalarga ko'ra, qiziqarli masalalar o'quvchilarning matematikaga bo'lgan qiziqishini oshirishda, ijodiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishda va muammolarni hal qilish qobiliyatlarini mustahkamlashda muhim rol o'ynaydi.

Shuningdek, masalalarni tanlashda xilma-xillik, interaktiv yondashuvlar va hayotiy vaziyatlarga asoslangan kontekstual masalalar taqdim etish o'quvchilarning motivatsiyasini oshiradi. o'qituvchilarni tayyorlash va ularning malakasini oshirish ham ta'lim jarayonining samaradorligini yanada kuchaytiradi.

Kelajakdagi tadqiqotlar esa qiziqarli masalalarni qo'llashning ta'sirini o'rganishga va o'quvchilarning muvaffaqiyatiga bo'lgan ta'sirini tahlil qilishga qaratilishi lozim. Umuman olganda, qiziqarli masalalarni ta'lim jarayoniga joriy etish, o'quvchilarning bilim olish jarayonini yanada samarali va qiziqarli qilish imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. John P. D'Angelo, Douglas B. West. Mathematical Thinking: Problem-Solving and Proofs. Pearson, 2010, 480 sahifa.
2. Paul Zeitz. The Art and Craft of Problem Solving. Wiley, 2007, 400 sahifa.
3. Sue Johnston-Wilder, John Johnston-Wilder. Teaching Mathematics: Foundations to Middle Years. SAGE Publications, 2015, 256 sahifa.

4. David Tall. The Role of Problem Solving in Mathematics Education. Springer, 2003, 292 sahifa.

5. Richard Rusczyk. Engaging Students with Problem Solving. AoPS (Art of Problem Solving), 2006, 300 sahifa.

6. David H. Pritchard. Problem Solving in Mathematics Education: A Review of the Literature. Journal of Mathematical Behavior, 2013, 45-56.

7. <https://www.nctm.org>

8. <http://mathforum.org>

9. <https://www.khanacademy.org>

KONSTITUTSIYA- ERKIN VA FAROVON HAYOT GAROVI

Mutalibjonova Ruxshona Ozodbek qizi

Andijon davlat chet tillari

E-mail: mutalibjonovaruhshona@.com

Xomidova Malohat Oktyabrjon qizi

Annotatsiya: Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasining davlat konstitutsiyasi, fuqarolarning konstitutsiya oldidagi huquq va majburiyatlari, qonun oldidagi vakolatlari, O'zbekiston Respublikasida davlat tuzilishi, davlat boshqaruv shakli to'g'risida so'z yuritilgan. Shuningdek, maqolada konstitutsiyaning hayotimizda tutgan muhim o'rni haqida alohida to'xtalib o'tilgan.

Kalit so'zlar: konstitutsiya, fuqaro, davlat, qonun, modda, Oliy Majlis, Senat, huquq, deklaratsiya, vakolat, burch, himoya.

Annotation: This article talks about the state constitution of the Republic of Uzbekistan, the powers and obligations of citizens before the constitution the structure of state in the Republic of Uzbekistan, the form of the state administration. Also, the important role of the constitution in our life is discussed in this article.

Keywords: constitution, citizen, state, law, substance, senate, right, declaration, authority, commitment, defence.

Аннотация: В данной статье говорится о государственной конституции Республики Узбекистан, полномочиях и обязанностях граждан перед конституцией, устройстве государства в Республике Узбекистан, форме государственного управления. И о важной роли конституции в нашей жизни также говорится в статье.

Ключевые слова: конституция, гражданин, состояние, закон, вещество, Верховное собрание, сенат, верно, декларация, власть, долг, защита.

Hozirgi kunda hayotimizni konstitutsiyasiz tasavvur qila olmaymiz. Inson manfaatlarini har tomonlama ta'minlash masalasi konstitutsiyamizda asosiy masala hisoblanadi. Konstitutsiya – davlatning asosiy qonuni bo'lib, eng yuqori yuridik kuchga ega bo'lgan hujjatdir. Konstitutsiya – davlat tuzilishi, davlat boshqaruvi shakli, shaxsning huquq erkinlik va burchlari, davlat organlarini tuzish tartibi, ularning vakolatlari belgilaydi. Konstitutsiya meyorlari bilan jamiyatdagi eng muhim ijtimoiy munosabatlar mustahkamlanadi. Konstitutsiya hayotning mazmunini aniqlashtiruvchi, hayotning u yoki bu sohasida insonlar yurish-turishi va muomilasi qoidalarini belgilovchi, inson huquqlarini buzganlik uchun jazolarni nazarda tutuvchi boshqa qonunchilik hujjatlari yaratishga asos bo'lib qoluvchi muhim hujjat

hisoblanadi. Konstitutsiya moddolari asosida qonunlar qabul qilinadi. Qabul qilingan qonunlar davlat va jamiyat hayotida vujudga keladigan ijtimoiy munosabatlarni tartibga soladi. Qonunlardan birortasi ham Konstitutsiyaga zid bo'lmashligi shart, chunki faqatgina ushbu hujjat oliy yuridik kuchga egadir. Qonun konstitutsiya mazmunidan kelib chiqadi. Shuning uchun ham iqtisodiyot va siyosatdagi o'zgarishlar natijasida qonunlar ham o'zgarishi mumkin. Qonun – bu davlat tomonidan o'rnatilgan, odamlar o'rtasidagi eng muhim munosabatlarni tartibga soluvchi majburiy qoidalardir. Bu kabi huquqiy normalarga rioya etish mamlakat hududida yashab turganlarning barchasi uchun majburiydir. Qonunlarning barchasi birgalikda mamlakat qonun hujjatlari deb ataladi. 1

Oliy Majlis - qonun chiqaruvchi oliy organ bo'lib, davlatimiz hayoti uchun qonunlarni yaratadi. Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputatlari o'z saylovchilarining manfaatlarini ifoda etadi va mamlakat fuqarolari nomidan qonunlarni qabul qiladi. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi – Qonunchilik palatasi (quyi palata) va Senat (yuqori palata) dan tashkil topgan. Deputatlar 5 yil muddatga saylanadi. Oliy majlis qonunchilik palatasining katta zalini davlatimiz ramzlari bezatib turadi. Qonun loyihasi, basharti uning qabul qilinishiga Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputatlari ovoz bersa, qabul qilinadi. Qonun, Oliy majlis Senati tomonidan ma'qullangandan va unga president imzo chekkangan so'ng kuchga kiradi., ya'ni hamma tomonidan ijro etilishi majburiy tus oladi. O'zbekiston Respublikasida qonun chiqqunicha, uning qabul qilingunicha mana shunday bosqichlardan o'tadi. Har tomonlama ma'nfaatligi tekshirilib so'ng kuchga kiradi.

Odamlar o'z haq-huquqlarini tan olishga, ularni tushunib yetishga birdaniga erishmaganlar. Manbaalarda yozilishicha, hatto qadimgi zamonlarning eng ajoyib faylasuflari ham odamlar teng bo'la olmaydi, deb hisoblashgan. Quldorlik tuzumida quldorlar qul sifatida odamlarni sotishgan. Xo'jayin o'z qulini nafaqat jismonan jazolashga, uni hayotdan mahrum etishga ham haqli bo'lgan, negaki qul ya'ni inson zodagon xo'jayinning mulki hisoblangan. Faqatgina O'rta asrlardan keying Ma'rifatchilik davriga kelib, odamlar inson hayoti qiymatini, uning qimmatli ekanligini anglab yeta boshladilar. Hamda tenglik va ideallari uchun kurashish yo'liga kirdilar. Shunday qilib, shaxsiy va siyosiy huquqlar insonning birlamchi huquqlariga aylandi, shu boisdan ularni huquqlarning birinchi avlodi deb atashdi. Bu huquqlar har bir inson shaxsiy erkinliklari va hayotiga shuningdek, fuqarolarning jamiyat hayotidagi ishtirokiga daxldordir. 2 Insonning shaxsiy ya'ni tabiiy huquqlari unga tug'ulganidanoq taalluqli bo'ladi. Bular – yashash huquqi, hurmat ko'rish huquqi, bir joydan ikkinchi joyga ko'chish huquqi, shaxsi, turar joyi daxlsizligi huquqi, yozishmalar va telefonda so'zlashuvlarni sir saqlash huquqi, vijdon va diniy e'tiqod erkinligi, fikr va so'z erkinligi, adolatli sudlov huquqi kabilarni o'z ichiga oladi. 3

Biz turli oilalarda dunyoga kelganmiz, qobiliyatlarimiz ham turlicha, tabiat bizga o'ziga xos tashqi qiyofa ato etgan. Biz, shuningdek, bir- birimizdan fe'l-atvorimiz, odatlarimiz va qiziqishlarimiz bilan ham farqlanamiz, lekin qonun oldida barchamiz tengmiz. Hech kim bizni huquqlarimizdan mahrum eta olmaydi. Boshqa insonlar bilan tengligimiz davlat huquq va erkinliklarni amalga oshirish uchun hammaga teng imkoniyatlar ta'minlaganligida namoyon bo'ladi. Ana shu imkoniyatlardan qay yo'sinda foydalanish esa o'zimizga bog'liqdir. Aynan insonlarning teng- huquqliligi prinsipi – inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasining bosh g'oyasidir.

Inson erkinlik va shaxsiy daxlsizlik huquqiga tug'ulgan kundan boshlab ega bo'ladi. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida har kim erkinlik va shaxsiy daxlsizlik huquqiga ega ekanligi e'lon qilingan. Bu, masalan, qonuniy asoslarsiz qamoqqa olish va qamoqda saqlashga hech kim haqli emasligini anglatadi. Qonun bilan har birimizga o'zimizni qanoatlantirgan va shaxsiy erkinliklarimizni cheklab qo'ymaydigan xatti- harakatlar sodir etish huquqi berilgan. Biroq shaxs erkinligi umumiy qabul qilingan yurish – turish normalari doirasida va qonun asosida amalga oshirilishi kerak.

Mustaqil O'zbekistonda tinch- totuv, farovon hayot kechirishimiz uchun Konstitutsiyamizda kerakli qonunlar belgilab qo'yilgan. Muhtaram birinchi prezidentimiz Islom Abdug'aniyevich Karimovning mustaqillikka erishganimizdan so'ng, birinchi navbatda inson huquqlarini himoya qilish maqsadida Konstitutsiya kitobini yozishni vazifa qilib topshirgan. Shuningdek, uni nuqsonsiz yozilganligini shaxsan o'zi tekshirgan. Qonunlar inson hayoti himoyasida ekanligi har birimizning baxtimizdir.

Konstitutsiyamizda insonning yashash huquqini himoya qilishda jinoiy qonunchilik alohida o'rin egallaydi. Inson o'limiga olib keluvchi har qanday harakat jinoiy qonunchilikda jinoyat deb tan olingan. Shunday qilib, davlat mamlakat aholisining o'z hayoti, farzandlari hamda qarindoshlari hayoti borasida xotirjam bo'lishi haqida g'amxo'rlik qilishi shart. Yashash huquqini ta'minlash – odamlar avariylar, kasalliklar, shuningdek, jinoyatchilar dastidan halok bo'lmasliklarining oldini olish yo'lida barcha ishlarni amalga oshirish demakdir.⁴

Yashash huquqini ta'minlash – birinchi navbatda, davlat bola sog'lom tug'ilishi va rivojlanishi uchun, uning hayotiga biron-bir xavf- xatar tahdid solmasligi uchun barcha chora – tadbirlarni ko'rish majburiyatini zimmasiga oladi deganidir. Ko'ryapmizki, davlatimizda inson haq-huquqlarini ta'minlash maqsadida to bola tushilishidan avval chora – tadbirlar ko'riladi. Bunday farovon va tinch hayotda yashashimizni ta'minlab berish oson kechmaydi.

Biz shunday farovon mustaqil davlarda yashayotganimizdan faxrlanishimiz, shukr keltirishimiz kerak. Shunday rivojlangan dunyoda urush olib borilayotgan, inson ma'nfaatlari toptalayotgan, zo'ravonlik kuchaygan davlatlar ham mavjud. Bu davlatlarda inson huquqlari himoyalanganligi uchun shunday holatlar kuzatilyapti. Shuning uchun ham "Konstitutsiya – farovon hayot garovi" shiorida juda ham to'g'ri fikr bayon qilinganligini anglashimiz kerak.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. "Konstitutsiya olamiga sayohat" – V.A Kostetskiy, G.M Tansiqboyeva, R.I Rahimov, F.P Xayitboyev.
2. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi haqida. Maqola "Xalq so'zi".
3. "Tarix va zamonamiz." Tadbiri asosida fikrlar "
4. "Konstitutsiya va inson huquqlari" Xalqaro huquqshunoslar jamiyati a'zolari.

TABLE OF CONTENTS / ОГЛАВЛЕНИЯ / MUNDARIJA

№	The subject of the article / Тема статьи / Maqola mavzusi	Page / Страница / Sahifa
1	MEDITATION DURING PREGNANCY: NURTURING MIND AND BODY	3
2	IMPORTANCE OF MULTIMEDIA TECHNOLOGIES IN TEACHING FOREIGN LANGUAGES	6
3	THE ROLE OF SOCIAL MEDIA IN THE LIVES OF YOUNG PEOPLE IN UZBEKISTAN	9
4	SIMILARITIES AND DIFFERENCES OF GRAMMATICAL CATEGORY PERSON IN TWO DIFFERENT LANGUAGES	12
5	JADIDCHILIK HARAKATI POYDEVORI, MA'RFATPARVAR BOBOLARIMIZ MEROSINI CHUQUR O'RGANISHIMIZDA	15
6	OZIQ OVQAT ISHLAB CHIQRARISHDAGI ZAMONAVIY FAN YUTUQLARI	19
7	O'TKIR HOSHIMOVNING "URUSHNING SO'NGGI QURBONI" ASARIDA QAHRAMONLAR XARAКTERI.	23
8	BO'LAJAK O'QITUVCHILARNING IJODIY FAOLLIGINI TA'MINLOVCHI KASBIY KOMPETENSIYALARNI RIVOJLANTIRISH MEХANIZMLARI	27
9	XALQ TABOBATI RIVOJIDA ABU ALI IBN SINO ILMIY MEROSINING O'RNI	32
10	AYDARKO'L SOHILLARINING TURISTIK IMKONIYATLARI	35
11	ЎЗБЕКСИТОН ВА ЯПОНИЯ ДАВЛАТИДА ИЖТИМОЙ ХАВФЛИ ҚИЛМИШ СОДИР ЭТГАН ШАХСЛАРГА НИСБАТАН КЎРИЛАДИГАН ЖАЗО ЧОРАЛАРИ ВА ШУ БОРАДАГИ ТАЖРИБАЛАРИ.	40
12	TASK-BASED TEACHING OF THE ENGLISH LANGUAGE	43
13	THE IMPORTANCE OF A MODERN LESSON AND THE REQUIREMENTS FOR IT.	47
14	APPLICATION OF THE INTERACTIVE METHOD IN TEACHING FOREIGN LANGUAGES.	52
15	THE LINGUISTIC ANALYSIS OF AFRICAN PROVERBS	59
16	LANGUAGE AND GENDER: HOW LANGUAGE SHAPES GENDER ROLES	63
17	THE ROLE OF DIALECT IN AMERICAN SOUTHERN LITERATURE	70
18	ANIQ INTEGRAL VA UNI HISOBLASH USULLARI	75
19	FUNKSIYA TUSHUNCHASI	78
20	SONLI KETMA-KETLIK TUSHUNCHASI	81
21	CARDIAC ARRHYTHMIAS IN PATIENTS CIRRHOSIS OF THE LIVER	84
22	ANTIMICROBIAL DRUGS AND THEIR USE	92
23	MATEMATIKANING HAYOTDAGI O'RNI VA AHAMIYATI	106

24	SONLAR NAZARIYASI	112
25	MATEMATIK MODELLASHTIRISH VA UNING MUHANDISLIK SOHASIDAGI O'RNI	118
26	SOME MEDICINAL PROPERTIES AND ANALYSIS OF GLYCYRRHIZA GLABRA	124
27	PROGRESIYALAR: MATEMATIK TAHLIL VA ILMIY AMALIYOTDAGI AHAMIYATI	130
28	RATSIONAL TENGLAMALAR VA ULARNI YECHISH USULLARI	133
29	RATSIONAL TENGLAMALAR YECHISHDA SIMMETRIK TENGLAMALAR	138
30	PSIXOTRENING HAQIDA UMUMIY TUSHUNCHA: JISMONIY TARBIYA FANI DARSLARIDA PSIXOTRENINGLARNI QO'LLASH TEXNOLOGIYASI	142
31	ПОНЯТИЕ ТОВАРНОГО ЗНАКА И ЗНАКА ОБСЛУЖИВАНИЯ, ИХ СУТЬ.	150
32	BUGUNGI KUNDA O'ZBEKISTONNING EKOLOGIK HOLATI	154
33	WAYS TO END POVERTY IN TODAY'S INNOVATIVE ECONOMY	157
34	ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBURNING TARIXDA TUTGAN O'RNI	162
35	HAMMURAPI QONUNLARIDA OILA MUNOSABATLARI	168
36	QADIMGI DUNYONING "TO'RT IQLIM PODSHOLARI"	174
37	MUHAMMAD ALIXON DAVRIDA QO'QON XONLIGI	175
38	THE PRACTICAL IMPORTANCE OF THE INTERNATIONAL PISA	178
39	UMUMTA'LIM MAKTABLARIDA QIZIQARLI MATEMATIKA MASALALARI	180
40	KONSTITUTSIYA- ERKIN VA FAROVON HAYOT GAROVI	188

Напоминание! — Образование наука и инновационные идеи в мире || Авторы несут персональную ответственность за правильность цифр и данных в статьях и планах занятий, включенных в мировой научно-методический журнал, и за правильность приведенных цитат.


**Главный редактор:
Семёнов Владимир Львович**

**Помощник редактора:
Абдурахманов Бобуржон**

**Подготовитель к публикации:
Халиков Тохирджон Шавкатжонович**

— Образование наука и инновационные идеи в мире всемирный научно-методический журнал, 2024-г.





OPEN  ACCESS

